

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
FARG‘ONA JAMOAT SALOMATLIGI TIBBIYOT INSTITUTI

«TASDIQLAYMAN»
Sog‘liqni saqlash vazirligi
Ilmiy texnik kengashi raisi
_____Sh.K.Atadjanov
«____» _____ 2025 y

NOSIROV NODIRBEK VALIJONOVICH

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI
METODIK KOMPETENTLIGINI TAKOMILLASHTIRISH

(Monografiya)

Farg‘ona 2025

UO‘K: 371.13.37.091.3.378

N.V.Nosirov p.f.b.f.d. PhD //Bo‘lajak o‘qituvchilarni metodik kompetentligini takomillashtirish// Monografiya - Farg‘ona: 2025 yil. -147 bet.

Ushbu monografiyada bo‘lajak o‘qituvchilarni o‘qitish mazmunini takomillashtirishda shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalar va zamonaviy usullar, ta’lim jarayonida zamonaviy darslarni tashkil etish, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim orqali mutaxassislik fanlarining o‘qitishning pedagogik-psixologik asoslari va didaktik asoslari, tibbiyot oliy o‘quv yurtlarida metodik ta’minotini takomillashtirish, darsning pedagogik psixologik xarakteristikalarini, talabalarni individual qobiliyatlarini rivojlantirish, o‘qitish samaradorligini aniqlash bo‘yicha tajriba sinov ishlarini tashkil etish va taxlil etish bo‘yicha ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar haqida so‘z yuritilgan.

Mazkur monografiya uzluksiz ta’lim tizimining barcha bo‘g‘inlarida faoliyat ko‘rsatayotgan pedagoglar, ilmiy tadqiqotchilar foydalanishi uchun mo‘ljallangan.

Taqrizchilar

I.X.Iminaxunova - Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti “O‘zbek tili va xorijiy tillar” kafedrasini mudiri, pedagogika fanlari doktori (DSc)

Sh.K.Yakubova - Farg‘ona davlat universiteti “Fizika” kafedrasini dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi.

Monografiya Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti ekspertlar Kengashining «__» _____ 2025-yil № __ bayonnomasi bilan tasdiqlangan va nashrga tavsiya etilgan.

© Nosirov N.V – 2025 yil

ISBN

© «FJSTI» – 2025 yil

KIRISH

Jahonda malakali mutaxassislarni tayyorlash jarayonini samarali tashkil etishga hamda zamonaviy oliy ta'lim tizimi shakllantirishga alohida e'tibor qaratilib kelinmoqda. Ilg'or rivojlangan xorijiy mamlakatlar va yetakchi ilmiy-tadqiqot muassasalari tomonidan qabul qilingan 2030-yilgacha ta'limni rivojlantirish deklaratsiyasida (Incheon deklaratsiyasi) "Oliy ta'limda zamonaviy texnologiyalar, metodikalar va faoliyatga undovchi kurslardan foydalangan holda, kadrlar tayyorlash tizimini muvofiqlashtirish" ustuvor vazifa sifatida belgingan. Bu muhim maqsadga erishish ta'lim jarayonini tashkil etishda o'quv jarayonini zamonaviy raqamli texnologiyalaridan foydalangan holda amalga oshirish, oliy ta'lim bilan qamrovni kengaytirish, oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish hamda ta'lim berishning yangi metodlari va shakllarini joriy etish kabi innovatsion yondashuvni talab qiladi.

Dunyodagi yetakchi ilmiy tadqiqot institutlari, jumladan Rrinseton Universiteti (AQSh), The Oren Universiteti (Buyuk Britaniya) va Suber Universiteti (Janubiy Koreya), pedagogik oliy ta'lim muassasalari tomonidan bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda zamonaviy ta'lim texnologiyalarini yaratish va amaliyotga joriy etish masalalariga doir izlanishlar olib bormoqda va bu ishlarda samarali natijalarga erishilmoqda. Ushbu tadqiqotlar bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va tamoyillaridan foydalanish orqali o'qitish samaradorligini oshirishga qaratilgan bo'lib, muhim ahamiyatga ega.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida barcha sohalarni tubdan isloh qilish siyosati bormoqda. Hozirda dunyo shiddat bilan rivojlanib taraqqiy etar ekan, biz ham zamon bilan hamnafas bo'lmog'imiz zarur. Shu jumladan ta'lim sohasini tubdan isloh qilish bo'yicha ko'plab salmoqli ishlar olib borilmoqda. Mamlakatimizda samarali texnologik ta'lim tizimini joriy etish uchun amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar natijasida, bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash uchun tashkiliy-pedagogik sharoitlar va axborot-metodik imkoniyatlar rivojlanmoqda. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishga qaratilgan Harakatlar strategiyasida mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy

sohalarida barqaror o'sish, yangilanish va ilg'or g'oyalarni hayotga tatbiq etish maqsadlari yoritilgan. Jumladan, "Uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish"¹ ustuvor vazifasi belgilangan. Shu nuqtai nazardan bo'lajak o'qituvchilarning metodik kompetentligini rivojlantirishning amaldagi metodikasi va o'quv-uslubiy ta'minotini zamonaviy yondashuvlar asosida takomillashtirish hamda o'zlashtirish natijalarini ob'ektiv baholash mexanizmlarini ishlab chiqish dolzarb hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risidagi PF-158-sonli Farmoni, "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"ga oid PF-5847-sonli Farmonlari, 2017-yil 20-apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-sonli Qarori, 2017-yil 27-iyuldagi "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3151-sonli Qarori va 2018-yil 5-iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3775-sonli Qarorlar kabi normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot ishi muhim rol o'ynaydi.

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. // O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami. –T., 2017. – B.39.

I BOB. BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI METODIK KOMPETENTLIGINI TAKOMILLASHTIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI.

1.1-§. Bo‘lajak o‘qituvchilarni metodik kompetentligini takomillashtirish dolzarb muammo sifatida

Ta’limni rivojlantirish tendensiyalari orasida kompetentlikni shakllanishi bo‘lajak mutaxassislarni nafaqat bilim, ko‘nikma va malakalarini, balki qadriyatlarini, shaxsning intellektual, ijodiy, jismoniy rivojlanishini hamda ta’limga olishga bo‘lgan ehtiyojni qondirish maqsadida faoliyat ko‘rsatishga mo‘ljallangan.

O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni ta’lim tizimi faoliyatini tartibga soluvchi asosiy huquqiy hujjat sifatida o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi, malaka oshirish tizimi, metodik va texnologik bilimlarni takomillashtirish haqida umumiy qoidalarni, davlat tomonidan belgilangan talablarni yoritadi va pedagogik kadrlar sifatini oshirishda yordam beradi. Ushbu qonunda keltirilgan jihatlardan biri bu bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash, kasbiy faoliyada metodik ko‘nikmalarini rivojlantirish jarayonini tartibga soluvchi asosiy hujjat hisoblanadi.

Buning asosiy omil sifatida ta’lim beruvchining metodik kompetentligini kreativ yondashuv bilan rivojlantirish asosiy omillardan biri hisoblanadi. O‘qituvchining metodik kompetentlik darajasi uning zamonaviy jamiyat taraqqiyotiga, ijtimoiy tashabbuslar natijalariga va mamlakatning kelajakdagi rivojlanishiga qo‘shadigan hissasini belgilaydi. Bugungi kun o‘qituvchisi nafaqat bilim beruvchi, balki keng ilmiy va pedagogik dunyoqarashga ega bo‘lib, har bir o‘quvchining individual rivojlanishini qo‘llab-quvvatlovchi mas’uliyatli shaxs sifatida faoliyat yuritishi zarur.

Mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta’minlash maqsadida kadrlar tayyorlash tizimini asosli ravishda isloh qilish zarurati tug‘ilmoqda. Bu jarayon xalqaro miqyosda raqobatbardosh va mehnat bozori talablariga javob beradigan oliy ma’lumotli mutaxassislarni tayyorlashga qaratilgan bir qator muhim me’yoriy hujjatlarning qabul qilinishini taqozo etmoqda.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-son qarori hamda 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli farmoni bu jarayondagi muhim asoslarni belgilab beradi. Ushbu hujjatlar oliy ta’limni rivojlantirishga yo‘naltirilgan tashabbuslarni va strategiyalarni o‘z ichiga oladi.

Shu nuqtai nazardan o‘qituvchilarni metodik kompetentligini takomillashtirish jarayonida ilg‘or metodlar va pedagogik texnologiyalarni joriy etish, ularni malaka oshirish kurslari va tajriba almashish dasturlari orqali doimiy rivojlantirish zarur hisoblanadi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarni metodik kompetentlikni rivojlantirish jarayoni oliy ta’lim muassasalarida mutaxassislik ta’lim yo‘nalishlari faoliyatining ajralmas qismi hisoblanadi. Shuning uchun, mazkur ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalarda metodik kompetentlikni shakllantirish uchun zarur pedagogik sharoitlarni yaratish muhimdir.

Tadqiqot ishini muammosiga oid olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashni takomillashtirish muammolari bo‘yicha mamlakatimiz pedagog olimlaridan Sh.S.Sharipov, N.A.Muslimov, O‘Q.Tolipov, O.A.Qo‘ysinov, M.M.Qodirov, X.A.Umarov, M.M.Yusupov, Q.P.Husanboyeva, D.H.Mamatov va boshqalar ilmiy-tadqiqot ishlari olib borganlar.

A.A.Abduqodrov, N.N.Azizxo‘jaeva, O‘.Q.Tolipovlar mamlakatimizdagi oliy ta’lim muassasalarining o‘quv-tarbiya jarayonining umumiy tamoyillari va bo‘lajak o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligini takomillashtirishning samarali metod hamda vositalari bilan tadqiqotlar olib borgan. Uzluksiz ta’lim tizimida mustaqil ta’limni tashkil etish muammolari bo‘yicha V.I.Andriyanova, A.I.Ahmedov, E.I.Zakinov, S.Matchonov, N.A.Muslimov, Z.Nishonova, T.R.Niyazmetova, R.Saidova, J.O.Tolipova, O‘.Q.Tolipov, B.M.Turdibayeva, N.Xalilov, Sh.S.Sharipov, Sh.Yunusova, Q.P.Husanboevalar mehnat va kasb ta’limi o‘qituvchilarini tayyorlashni takomillashtirish muammolari, N.A.Muslimov,

U.N.Nishonaliev, N.Sayidahmedov, O'.Q.Tolipov, A.R.Xodjaboev, B.A.Nazarovalar tomonidan atroflicha o'rganilgan.

Mustaqil Davlatlar hamdo'stligi mamlakatlarida bo'lajak o'qituvchilarning metodik tayyorgarligini takomillashtirishning samarali metod hamda vositalari haqida V.N.Bespalko, F.R.Yuzlikayevlar, mehnat va kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlashni takomillashtirish muammolari bo'yicha A.I.Vorobyev, K.A.Duysenbaev, P.T.Magzumov, T.A.Malenkolar, shaxs faoliyatining motivatsion muhitini yaratish hamda takomillashtirishning nazariy masalalarini R.Z.Gaynutdinov, M.G.Davletshin, E.M.Ivanova, E.A.Klimov, S.L.Rubinshteyn, P.A.Rudik hamda N.F.Talzinalar salmoqli ilmiy izlanishlar olib borganlar.

Xorijiy olimlar G. Spenser, B. Blum, R. Mohan, H. Miyakava, Y. Xuqin, V. G. Gorb, G. K. Selevko va boshqalar ta'lim sohasida ijodiy faoliyatni rivojlantirish, pedagoglarning metodik kompetentsiyasini oshirish, pedagogik va metodik muammolarni hal qilish hamda pedagogik dasturiy ta'minotdan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish va takomillashtirish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borishgan.

Hozirgi zamonaviy sharoitlarda ta'lim tizimida yuzaga kelayotgan ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy muhitdagi globallashuv jarayonlari, yangi axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi va jahon miqyosida ta'lim sifatini oshirish bo'yicha talablardagi o'zgarishlar o'qituvchi tayyorlash tizimining muhim metodologik asoslarini takomillashtirish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. An'anaviy pedagogik yondashuvlardan chiqib, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va innovatsion metodologiyalarni joriy etish, shuningdek, o'qituvchilarning kasbiy kompetentliklarini shakllantirish va ularni amaliyotga tatbiq etish muhim vazifalarga aylandi. Bu jarayon ta'limning dinamik va interaktiv xarakterini ta'minlash uchun zamonaviy metodikalarni ishlab chiqish hamda ma'lumotlar bilan ishlashda yangi yondashuvlarni qabul qilishni talab etmoqda. Shu bilan birga, ta'lim jarayonining ilmiy asoslangan va amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan metodikalari ta'lim sifati va natijalari yaxshilanishida asosiy tayanch bo'lib xizmat qilmoqda [101].

Oliy ta'lim tizimida ta'lim yo'nalishlari bo'yicha o'qituvchilarni tayyorlash jarayonini takomillashtirish va samaradorlikni oshirishga bag'ishlangan tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ushbu muammo bo'yicha bir qator olimlar ilmiy izlanishlar olib borgan.

Mehnat va kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlashning nazariy va uslubiy asoslari R.X. Djurayevning fundamental tadqiqotlarida yoritilgan [81].

Professor N.A.Muslimovning tadqiqotlarida esa "Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarida kasbiy pedagogik sifatlarni shakllantirishning ilmiy-metodik asoslari" o'rganilgan. Shuningdek, mutaxassislarning yangi avlodini shakllantirish, ma'naviy-axloqiy jihatdan yetuk, mustaqil dunyoqarashga ega, ijodiy fikrlovchi va umuminsoniy hamda milliy qadriyatlarga sadoqatli barkamol shaxslarni tarbiyalash masalalariga alohida e'tibor qaratilgan [93].

Professor N.N.Azizxodjayeva ta'lim jarayonida pedagogik mahoratni takomillashtirish, pedagogik texnologiyalarni qo'llash va muammolari va ularni bartaraf etish imkoniyatlari yuzasidan izlanishlar olib borgan [90].

A.R.Xodjaboyev tomonidan mehnat ta'limi o'qituvchisining o'quv-metodik majmuasi ishlab chiqilgan va uni amaliyotga joriy etish usullari belgilangan. Shuningdek, mehnat ta'limi o'qituvchisi shaxsining rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar va sharoitlar aniqlanib, ularning mazmuni batafsil yoritilgan [80].

O'.Q. Tolipov "Oliy pedagogik ta'lim tizimida umummehnat va kasbiy ko'nikma hamda malakalarni rivojlantirishning pedagogik texnologiyalari" mavzusida olib borgan tadqiqotlarida, bo'lajak mehnat ta'limi o'qituvchilarida kasbiy ko'nikma va malakalarni rivojlantirishda ta'lim texnologiyalarining o'rni va ularni ta'lim jarayonida qo'llashning muhim jihatlarini o'rgangan [91].

Pedagog olimlardan biri Sh.S.Sharipov o'quvchilarda kasbiy ijodkorlikni uzviyligini ta'minlashning nazariy va amaliy asoslarini ishlab chiqqan hamda o'quvchilarning ixtirochilik va ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishning ilmiy-pedagogik fundamentlarini yaratgan [92].

O.A.Qo'ysinov bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik ijodkorligini rivojlantirish maqsadida, kompetentlik yondashuvga asoslangan

klasterli model va algoritmik xaritani joriy etish bo'yicha didaktik ta'minotni takomillashtirishga oid takliflarni ishlab chiqqan [111].

M.M.Qodirov bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarining kasbiy sifatlarini, jumladan, motivatsion, konstruktiv, tashkilotchilik, boshqaruvchilik, mehnatsevarlik, intizomlilik va ishlab chiqarish-texnologik qobiliyatlarini tavsiya etgan [112].


Bo'lajak o'qituvchilarning metodik kompetensiyasini takomillashtirish muammosini o'rganish jarayonida T.N.Gushchina metodik kompetentlikni pedagogning shaxsi va faoliyatining ajralmas ko'p darajali kasbiy ahamiyatga ega xususiyati sifatida ko'rib chiqadi. U samarali kasbiy tajribaga ega bo'lish, o'qituvchining ta'lim sohasidagi bilim, ko'nikma va malakalarini tizimli ravishda rivojlantirish hamda pedagogik faoliyat usullarining maqbul tizimini ta'kidlaydi.

Metodik kompetentlik - bu kasbiy kompetensiya o'qituvchi shaxsining integrativ xarakteristikasi bo'lib, o'quvchilarni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirish jarayonidagi pedagogik muammolarni hal qilish uchun zarur bo'lgan texnologiyalar, metodlar ishlab chiqish, tanlash va qo'llash bo'yicha bilim va ko'nikmalarni o'z ichiga oladi. Shuningdek, bu kompetensiya o'qituvchining qadriyat yo'nalishlarini anglash, refleksiya o'tkazish va o'z uslubiy faoliyatini takomillashtirish qobiliyatiga ega bo'lishini ham bildiradi.

Metodik kompetentlikni o'z faoliyatining maqsadlari va ularga erishish uchun foydalaniladigan vositalar nuqtai nazaridan baholaganda, uni shakl, metod, vosita va kompetensiyalar to'plami sifatida tashkil etilgan integral tizim sifatida ko'rib chiqish mumkin. Bu yondashuvda metodik kompetentlik o'quvchining amaliy faoliyatini maqsadga muvofiqlashtirish, uning professional rivojlanishini ta'minlash va pedagogik jarayonni samarali tashkil etishga qaratilgan bo'lib, uning har biri

o'zining spesifik funksiyalariga ega bo'lib, umumiy kasbiy kompetentlikning muhim elementlarini tashkil etadi. Shu tarzda, metodik kompetentlikni belgilash va rivojlantirish jarayoni pedagogik faoliyatning strategik va taktik bosqichlarini to'g'ri va samarali amalga oshirish bo'yicha keng qamrovli va tizimli yondashuvni ta'minlaydi. Tadqiqotimizda nazariy va milliy g'oyalar, shuningdek, psixologik va

pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish va ta'lim nazariyasi bilan amaliyoti sohasidagi tadqiqotlar asosida metodik kompetentlik tushunchasi va uning tarkibiy tuzilmasi haqida ma'lumot beramiz.. (1.1.1-rasm).



1.1.1-rasm. Metodik kompetentlikning tarkibiy tuzilmasi

Tayanch va kasbiy kompetensiya – bu ta'lim oluvchining oliy ta'lim muassasalari bosqichida ega bo'lgan malakalar majmui sanaladi. U quyidagi tayanch kompetentliklarni o'z ichiga oladi: axborotlar bilan ishlash, kommunikativ, mustaqil, ijodiy, ijtimoiy.

Axborot bilan ishlash kompetensiyasi - bu muammolarni hal qilish uchun ma'lumotlarni qidirish, tahlil qilish, o'zgartirish va qo'llash qobiliyati.

Kommunikativ kompetensiya - bu boshqa insonlar bilan samarali muloqot qila olish qobiliyati; mustaqil kompetensiya - bu o'rganishni mustaqil ravishda yondashish, maqsadlarni belgilash, natijalarni rejalashtirish qobiliyati. Ijodiy kompetensiya - bu ijod qila olish, mustaqil izlanish qobiliyatidir. Ijtimoiy kompetensiya - o'qituvchi kasbining ijtimoiy ahamiyatini anglash ko'rsatkich hisoblanadi. Bu axloqiy madaniyat, ideallar va ma'naviy qadriyatlarni ifodalaydi. Asosiy kasbiy kompetensiya, o'z navbatida, ta'lim oluvchi oliy ta'lim muassasasini tugatganda hosil bo'ladigan qobiliyatlarni, bilim va ko'nikmalarni o'z ichiga oladi. Bu kompetensiya, shuningdek, pedagogik faoliyat jarayonida dastlabki tajriba to'plagan holda, muhim rol o'ynaydi. U quyidagi asosiy (maxsus) kompetentliklarni o'z ichiga oladi: maqsadli, tarkibiy, tashkiliy, loyihalash, monitoring.

O'rganilayotgan kompetentlikni takomillashtirish mezonlari shaxsiy va kasbiy sifatlar asosida belgilanishi orqali metodik kompetentlikni baholash amalga oshiriladi. Bu borada tadqiqotchi olim Sh.N. Muslimovning "Bo'lajak texnologik

ta'lim o'qituvchilarining kasbiy grafik kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish" nomli ilmiy izlanishida, grafik kompetentlikni shakllantirish va oshirish uchun shaxsiy va kasbiy sifatlarning muhimligi ta'kidlangan. Tadqiqot davomida muallif, o'qituvchilarning professionallik darajasini belgilovchi asosiy xususiyatlarni aniqlagan hamda bu sifatlarning grafik kompetentlikni rivojlantirishdagi rolini yoritib bergan. Bu yondashuv kasbiy mahorat va shaxsiy xususiyatlarning o'zaro bog'liqligini ochib berish bilan birga, o'qituvchi tayyorlash jarayonida kompetentlikni rivojlantirish uchun yagona tizimli metodikalar ishlab chiqishga xizmat qilmoqda [110].

Zamonaviy fanda "kompetentlik" tushunchasiga aniq yondashuv mavjud emas. Tadqiqotchi V.G.Gorb kompetensiyani mutaxassis tayyorgarligining ijtimoiy belgilangan talablarga muvofiqligi darajasi sifatida ko'radi [11]. Ushbu paragrafning vazifasi nuqtai nazaridan biz kompetensiya va kompetentlik tushunchasini shakllantirishga shaxsiy yondashuvga rioya qilamiz. Bu borada G.K.Selevkoning fikrini ta'kidlab o'tamiz. U kompetentlikni o'rganish va ijtimoiylashtirish jarayonida olingan bilim va tajribaga asoslangan va faoliyatda mustaqil va muvaffaqiyatli ishtirok etishga yo'naltirilgan umumiy qobiliyati va faoliyati tayyorligida namoyon bo'ladigan insonning ajralmas sifatida o'rganadi [12].

Shaxsning tayyorligi, qobiliyati va boshqa fazilatlari orqali kompetensiya – bu harakatlarning mustaqilligi, faoliyatga kreativ yondashish, bilimlarni doimiy ravishda takomillashtirish, ongning moslashuvchanligi, tizimli va iqtisodiy fikrlashga tayyorlik, jamoada hamkorlik qilish, hamkasblar bilan muloqot qilish qobiliyatini o'z ichiga oladi.

Bir qator xorijiy manbalarda esa, kompetensiya nazariyasi "Chuqur bilim", "Vazifani ongli ravishda bajarish", "Dolzarb faoliyatni amalga oshirish qobiliyati", "O'rganilganlarni amalda qo'llash", shuningdek, "muayyan hayotiy vaziyatlarga moslashish" yoki "O'rganilgan malakalarni real muhitda qo'llash" kabi ma'no va mazmunlarni anglatadi. Bu tushunchalar, shuningdek, shaxsning professional hamda amaliy faoliyatdagi muvaffaqiyatini ta'minlovchi asosiy kompetentsiyalarni belgilashda keng qo'llaniladi. [13].

O'qituvchining faoliyatini tahlil qilganda, odatda, "Metodik kompetentlik" atamasi ishlatiladi. Ko'plab mualliflar metodik kompetentlikni insonning kasbiy bilim darajasi, tajribasi, individual qobiliyatlari, shuningdek, uning doimiy ravishda o'zini tarbiyalash va takomillashtirishga bo'lgan intilishi, faoliyatga ijodiy va mas'uliyatli yondashuvi bilan belgilanishini ta'kidlaydilar. Bizning tadqiqot ishimizda metodik kompetentlik asosiy tushuncha bo'lib, unga nisbatan "kasbiy kompetentlik" tushunchasi sinonim sifatida xizmat qiladi [14].

Bo'lajak o'qituvchilarning metodik kompetentligini takomillashtirish uchun mavjud bo'lgan to'rt asosiy tizimning biri didaktik vositalardir. Ular orasida munozaralar, dialoglar, pedagogik vaziyatlar va loyihaviy suhbatlar kabi pedagogik usullar kiradi. Bu vositalar o'qituvchining o'quv va ishlab chiqarish faoliyatida munosabatlarni o'rnatishga tayyorligini oshirishga, shuningdek, pedagogik faoliyatning ahamiyatini chuqur tushunishga yordam beradigan motivatsion komponentni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Ular yordamida o'qituvchilarning metodik kompetensiyasi mustahkamlanib, pedagogik jarayonni samarali tashkil etishga erishiladi.

innovatsion vositalar, jumladan, keys-metodi, proeksion faoliyat va testlar kabi yondashuvlar, operatsion-faoliyat komponentini takomillashtirishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, samarali o'quv va ta'lim texnologiyalarini ishlab chiqish va amalga oshirish imkoniyatlarini kengaytiradi. Ushbu vositalar o'quv jarayonining innovatsion shakllarini rivojlantirish orqali, o'qituvchilarning amaliy faoliyatini yanada samarali tashkil etish va studentlarning bilim donini kengaytirish imkonini beradi;

Taqlid qilish (imitatsion), jumladan, ishbilarmonlik o'yinlari va rolli o'yinlar kabi metodlar, bo'lajak o'qituvchilarning o'quv va ishlab chiqarish rollarini bajarishda, shuningdek, kommunikativ va refleksiv qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu usullar ta'lim jarayonida o'qituvchilarning o'z professional faoliyatidagi samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Ular o'quvchilarda innovatsion fikrlashni rivojlantirish, muammo echish ko'nikmalarini

shakllantirish va pedagogik situatsiyalarda moslashuvchanlikni ta'minlashda muhim vositadir;

Analitik vositalar, jumladan, pedagogik muammoli vaziyatlar va seminarlar, bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchisining metodik kompetentligini shakllantirishda kognitiv tarkibiy qismini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan texnologiyalar hisoblanadi. Bu vositalar mazmuni bo'yicha o'qituvchi va ta'lim oluvchilar o'rtasida o'quv va ishlab chiqarish faoliyatida o'zaro munosabatlarni tashkil etishga, ular orasida samarali hamkorlik muhitini yaratishga xizmat qiladi. Natijada, ular pedagogik jarayonni yanada muvofiqlashtirish va rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Bizning fikrimizcha, bo'lajak o'qituvchi o'quv jarayonining tashkilotchisi va boshqaruvchisi sifatida faoliyat yuritish bilan birga, mutaxassisning metodik kompetensiyasining funksiyalari texnologik ta'lim o'qituvchisining metodik kompetentligida to'liq aks ettirilmaydi. Bu xulosaga kelishimizning asosiy sababi – ta'limdagi metodik kompetentsiya keng qamrovli va murakkab bo'lib, uni to'liq va har tomonlama yoritish uchun faqatgina tashkilotchilik va boshqaruv funksiyalaridan tashqari, pedagogik intuitsiya, innovatsion yondashuvlar, texnologiyalarni qo'llash va shaxsiy motivatsiyalarni rivojlantirish kabi komponentlarning ham hisobga olinishi zarurligi bilan izohlanadi. Tahlil qilingan ishlarda qayd etilgan kommunikativ yondashuv funktsiya yuqorida ta'kidlangan texnologik ta'lim o'qituvchisining axborot-kommunikatsiya funksiyasini nomoyon ettiradi, bu uning turli faoliyat sohalari mutaxassislari uchun zarurligini ko'rsatadi.

Umuman olib qaraganda pedagogik jarayonni tashkil etish va loyihalashning asosiy bosqichlaridan biri bu uning ta'lim maqsadlarini belgilashdir. Maqsadni belgilash shaxsning shakllangan kasbiy va shaxsiy sifatlarining xususiyatlarini bilishni o'z ichiga oladi, bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchisining metodik kompetentligini rivojlantirishda duch kelinadigan muammolarni aniqlash va yechimi bo'yicha tavsiyalarni keltirishni maqsad qildik.

Bo'lajak o'qituvchilarning metodik kompetentligini takomillashtirish uchun mavjud bo'lgan to'rt quyi tizimdan biri didaktik vositalar hisoblanadi. Bu vositalar,

jumladan, munozaralar, dialoglar, pedagogik vaziyatlar va loyihaviy suhbatlar, o'qituvchining o'quv va ishlab chiqarish faoliyatida munosabatlarni o'rnatishga tayyorligini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, ular pedagogik faoliyatning ahamiyatini yaxshi tushunishga yordam beradigan motivatsion komponentni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, o'qituvchilarning tayyorgarlik darajasini oshirishga hamda pedagogik jarayonni samarali tashkil etishga yordam beradi.

Metodik kompetentligini rivojlantirish o'qituvchilarning faqat o'qitish usullarini emas, balki ularning darslarni rejalashtirish, o'quv materiallarini tanlash va moslashtirish, zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish qobiliyatini ham o'z ichiga oladi. Bunda o'qituvchilar nafaqat nazariy bilimlarga, balki amaliy tajribaga ham ega bo'lishi kerak.

Metodik kompetentlikni rivojlantirish dolzarb muammo sifatida qaralishining sabablari quyidagilardir:

Zamonaviy talablar: Texnologiyalarning tez rivojlanishi tufayli, o'qituvchilar zamonaviy texnologiyalarni va ularni ta'lim jarayonida qanday qo'llashni bilishlari zarur.

O'quvchilarning ehtiyojlari: Talabalar yanada interaktiv va individual yondashuvni talab qilmoqda, bu esa o'qituvchilarni yangicha metodlarni o'zlashtirishga majbur qiladi.

Raqobatbardoshlik: Bozor iqtisodiyoti davrida raqobatbardosh kadrlar tayyorlash uchun o'qituvchilar ham o'z kompetentligini doimiy ravishda oshirib borishlari lozim.

Bo'lajak o'qituvchilarning metodik kompetentligini takomillashtirish tamoyillari quyidagicha tashkil etilgan:

Integrativ tamoyil: metodik kompetentligini rivojlantirish jarayonining barcha bosqichlarini va komponentlarini birlashtirib, kompleks yondashuvni ta'minlash;

O'z-o'zini boshqarish tamoyili: elementar mexanizmlardan ongli ravishda boshqariladigan va o'z-o'zini boshqarish jarayoni o'rtasida uzviy bog'liqlikni shakllantirish;

Pedagogik baholash va refleksiv tamoyil: rivojlanish jarayonida pedagogik baholashdan tashqari, o'z-o'zini tahlil qilish va refleksiya qilish muhimligini ta'minlash;

Individual harakat prinsipi: har bir o'qituvchi uchun shaxsiy rivojlanish yo'nalishini belgilash va uni bosqichma-bosqich amalga oshirish;

Bosqichma-bosqich rivojlanish tamoyili: metodik kompetentligini shakllantirishda rivojlanishning aniq bosqichlarini belgilash va har bir bosqichda maqsadli faoliyat olib borish.

Shuningdek, bo'lajak o'qituvchilarning metodik kompetentligini rivojlantirishning 3 darajasi mavjud:

Boshlang'ich (asosiy) daraja: Bu bosqichda shakllanadigan kompetensiya rivojlanish pedagogik qo'llab-quvvatlashning individual rejimida amalga oshiriladigan uslubiy kompetensiya darajasidir.

Asosiy (natijaviy) daraja: Bu bosqichda ta'lim oluvchining o'quv jarayonidagi faol ishtiroki bilan bog'liq bo'lib, u o'z bilim va ko'nikmalarini amaliy tarzda qo'llab, rivojlantiradi.

Ushbu tamoyil va darajalar metodik kompetentsiyani bosqichma-bosqich shakllantirish va rivojlantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. uchunchisi kreativ (rivojlanish jarayoni o'z-o'zini anglash asosida mustaqil tarzda amalga oshiriladi, tadqiqot va ijodiy xarakterga ega) shu bilan birga, metodik kompetentlikni takomillashtirish jarayoni ko'p darajali deb qaraladi.

Shunday qilib, zamonaviy talablarni inobatga olgan holda, pedagogik fanlarni o'rganish jarayonida bo'lajak o'qituvchilarning metodik kompetentligini takomillashtirish uchun zarur shartlardan biri sifatida qaraladi.

Bo'lajak o'qituvchilarning metodik kompetentligining funksiyalari: metodologik yondashuv; kommunikativ yondashuv; individual talablar; malaka talablar; xususiy holati. Bo'lajak o'qituvchilarning metodik kompetentligining funksiyalari jamoada va undan tashqarida turli darajadagi munosabatlarni o'rnatish uchun metodik jarayonning muhimligini anglaydi: ta'lim oluvchi-ta'lim oluvchi, ta'lim oluvchi-o'qituvchi, ta'lim oluvchi-texnologik va boshqa o'zaro aloqalar.

Bo'lajak o'qituvchilarning faoliyatini o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda va uning metodik kompetentligining ta'rifiga asoslanib, bo'lajak o'qituvchiga ta'lim oluvchilarni boshqa shaxslar, hamkasblar, ota-onalar, ish beruvchilar, mehnat bozoridagi raqobatchilar bilan munosabatlarni o'rnatish bilan bog'liq kasbiy faoliyatda faol pozitsiyani samarali qabul qilishga imkon beradigan axborot-kommunikativ funksiyani belgilash maqsadga muvofiq. Yana shuni ta'kidlash joizki, o'qituvchi kasbiy faoliyatida yangi texnologik ma'lumotlarni erkin va samarali tarzda to'plash, ularni ta'lim oluvchilarga yetkazish hamda ta'lim jarayoniga muvaffaqiyatli kiritish uchun ularni qayta ishlash muhim ahamiyatga ega. Bu jarayon o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida ijtimoiy, axloqiy, gumanitar va texnik loyihalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishda samarali hamkorlikni ta'minlaydi.

Shuningdek, o'quv jarayonini tashkil etishda pedagogik, psixologik, texnik va texnologik adabiyotlar, axborot resurslari, o'qituvchining ijodiy izlanishlari natijalari, madaniyatning turli sohalariga oid ma'lumotlar hamda zamonaviy ilm-fan va texnologiyalar sohasidagi psixologik, pedagogik, badiiy, ijodiy va texnologik tajribalarni keng foydalanish yuqori samaradorlikka erishishni ta'minlaydi. Bu, o'z navbatida, ta'lim jarayonining innovatsion va sifatli bo'lishini, shuningdek, o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish va ularning zamonaviy muammolarni hal qilishda mustaqil fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi.

Bo'lajak o'qituvchilarning metodik kompetentlik rivojlantirishda, kasbiy kompetentlik tushunchasiga murojat qilishni talab qiladi. Ushbu shaxsiy xususiyatning taniqli ta'riflarining keng doirasi faqat yuqorida keltirilgan umumiy kompetentlikni tushunish bilan bog'liq bo'lgan talqinlarni tahlil qilishga qaratilgan. A.K.Markova ta'kidlaganidek, "Kasbiy kompetentlik insonning ma'lum mehnat funksiyalarini bajarish qobiliyati va mahoratiga ega bo'lishi bilan bog'liq bo'lib, bu holat insonni mustaqil va mas'uliyatli harakatlar qilishga imkon beradi, ya'ni u ma'lum bir ruhiy holat sifatida tavsiflanadi" [17].

Biz "N.V.Teltevskayaning metodik kompetentlikni mutaxassisning ishbilarmonlik va shaxsiy fazilatlarining ajralmas jihati sifatida ko'rishini to'g'ri deb

hisoblaymiz, chunki bu nafaqat kasbiy faoliyat maqsadlariga erishish uchun zarur bilim, ko'nikma va malaka darajasini, balki shaxsning ijtimoiy-axloqiy mavqeini ham aks ettiradi" [18].

Yuqoridagi ta'riflardan olingan ma'lumotlar bizning quyidagi mualliflik ta'rifimizni shakllantirishga yordam berdi: Ma'lumotlarni anglash: bo'lajak o'qituvchilarning yangi ma'lumotlarni to'g'ri tushunish va ezish qobiliyati.

Faoliyatga ijodkorona yondash: yangi pedagogik va texnologik yondashuvlarni innovatsion tarzda qo'llashga tayyorlik.

Ta'lim jarayonini loyihalash: ta'lim jarayonini rejalashtirish va tashkil etishda oliy darajadagi kreativlik va texnologik kompetentsiya.

Innovatsion ta'lim texnologiyalarini mukammal qo'llay olish: zamonaviy va samarali pedagogik texnologiyalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish qobiliyati.

Ushbu ta'rif metodik kompetentlikni faqat nazariy bilimlar bilan cheklanmay, balki uni amaliy qo'llash va innovatsion yondashuvlarni rivojlantirishga qaratilgan deb hisoblanadi. Shu bilan birga, u ta'lim jarayonida liderlik va ijodkorlikni rivojlantirish uchun asos sifatida xizmat qiladi.

Metodik kompetentlik tagida V.A.Adolf samarali pedagogik faoliyatga tayyorligini tushunadi va uni bir qator tarkibiy qismlar to'plami orqali belgilaydi: uslubiy, madaniy, ob'yektiv, psixologik, pedagogik va texnologik [19].

Berilgan ta'riflardagi barcha farqlarga qaramay, ular asosiy g'oyani yoritib beradi, mulohazalik vaziyatlarni keltirib chiqarmaydi, bir-biriga zid kelmaydi, aksincha ular o'qituvchiga nisbatan umumiy va kasbiy kompetentlikni tushunchasini anglashni yengillashtiradi. Biz bu hodisani kasbiy va pedagogik funksiyalarni samarali bajarishga qaratilgan pedagogik texnologiyalar sifatida tushunamiz. Bu jarayon loyihaviy, gnostik, konstruktiv, tashkiliy va kommunikativ ko'nikmalarga ega bo'lishni o'z ichiga olgan shaxsiy tarkibiy ta'limni anglatadi.

Bo'lajak o'qituvchining metodik kompetentligini va V.D. Simonenkoning fikrlarini inobatga olgan holda, ta'kidlash mumkinki, bo'lajak o'qituvchi bir vaqtning o'zida turli murakkab kasb guruhlariga – "inson-inson", "inson-texnika" va "inson-badiiy obraz" – kiradigan faoliyat sub'ekti hisoblanadi. Bu holatda, uning

faoliyati integratsiyalashgan metodik faoliyat sifatida shakllanadi va psixologik, pedagogik hamda texnologik tarkibiy qismlarni birgalikda o'z ichiga oladi.

Bu tarkibiy qismlar quyidagicha ifodalanadi:

Psixologik komponent – o'quvchilarning psixologik xususiyatlarini, motivatsiyalarini va qiziqishlarini tushunish, shaxslararo munosabatlarni rivojlantirish va ularni ta'lim jarayoniga muvofiqlashtirishni o'z ichiga oladi.

Pedagogik komponent – ta'limni samarali tashkil etish, metod va texnologiyalarni joriy qilish, o'quvchilarning individual rivojlanishini ta'minlash uchun pedagogik usullarni ishlab chiqish va qo'llash jarayonini anglatadi.

Texnologik komponent – zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish, innovatsion pedagogik metodlarni va vositalarni integratsiya qilish orqali ta'lim jarayonining sifat va samaradorligini oshirishga qaratilgan.

Shunday tarzda, bo'lajak o'qituvchining integrativ metodik faoliyati, uning psixologik, pedagogik va texnologik komponentlarning uzviy va muvofiqlashtirilgan tarzda amalga oshirilishini ta'minlab, pedagogik kompetentsiyaning rivojlanishiga asos bo'lib xizmat qiladi. Bu jarayon, shuningdek, mutaxassisning professional o'sishining fundamental mezonlari sifatida chiqadi va uni pedagogik, texnologik va shaxsiy rivojlanishning muhim bosqichlariga olib chiqadi [20].

Bu masalada biz R.A.Galustovning ta'limni an'anaviy intizomdan innovatsion va loyihaviy-ijodiy o'rganishga o'tishi haqidagi fikriga qo'shilamiz. Bunda, o'quv jarayonining shaxsiy faoliyat kompetentligi ustunligi bilan ajralib turadi. Bu holatda, bilimlarni egallash asosida kognitiv qiziqishlarning rivojlanishi va ta'lim oluvchining ijodiy salohiyati muhim ahamiyat kasb etadi [21].

N.V.Matyashning ta'kidlashicha ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarni bir kasbga tayyorlashni emas, o'qituvchilarni kasbni to'g'ri tanlashga, kasbiy funksiyalarning harakatchanligining ahamiyatini tushunishga tayyor bo'lgan shaxsni shakllantirishni kutishadi.

N.V. Matyashning fikriga muvofiq, “maktabning asosiy vazifalaridan biri jamiyat va tabiatga ta’sir qiladigan oqibatlarni hisobga olib, mavjud variantlardan transformatsion faoliyat uchun eng samarali usullarni ongli va ijodiy tarzda tanlay oladigan o‘quvchilarni tarbiyalashdir. Bu esa, o‘quvchilarning quyidagi muhim qobiliyatlarini rivojlantirishga intilishni taqozo etadi”:

“Axborot bilan ta’minlash ehtiyojlarini mustaqil aniqlash qobiliyati – o‘quvchi o‘z ehtiyojlarini va muhim axborotni aniqlash, shuningdek, shaxsiy rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan resurslarni topish va baholashga qodir bo‘lishi kerak”.

“Yangi bilimlarni egallash va uni faoliyat vositasi sifatida qo‘llash – o‘quvchi davomiy ravishda yangi bilimlarni o‘rganishga intilishi, ularni o‘z shaxsiy faoliyatida ijodiy tarzda qo‘llashga qodir bo‘lishi lozim”.

Shu bilan, ular dunyo uchun yangi imkoniyatlar ochadigan, muammolarni hal qilishda innovatsion yondashuvlar qo‘llashga tayyorlangan, ijodiy va mustaqil fikrlashga ega shaxslar sifatida tarbiyalanadi, va bu jarayon ta’lim muassasasining asosiy maqsadlaridan biridir [20].

Yuqoridagi fikrlarni hisobga olgan holda, bizning tadqiqotimizda o‘qituvchilarning metodik kompetentligi uning ushbu soha o‘qituvchisining asosiy funksiyalarini bajarish qobiliyati sifatida tushuniladi. Bu funksiyalar quyidagicha ta’riflanadi:

Ta’limiy funksiya: o‘qituvchining ta’lim jarayonini tashkil etish, o‘quvchilarga bilim, ko‘nikma va malakalarni yetkazish hamda ularning bilim darajasini nazorat qilish qobiliyati. Rivojlantiruvchi funksiya: ta’lim oluvchilarda zamonaviy ishlab chiqarish kasblariga asoslangan, universal mehnat (politexnik) harakatlarini shakllantirishni ta’minlash orqali, ularning ijodiy va texnik ko‘nikmalarini rivojlantirish.

Tarbiya funksiyasi: ta’lim oluvchilarning mehnat turmush tarziga e’tiborini rivojlantirish, maktab o‘quvchilarining mehnat tarbiyasini bosqichma-bosqich boshqarish, ularni zamonaviy bozor munosabatlarida faol va mas’uliyatli ishtirok etishga tayyorlash.

Bu funksiyalar o'qituvchining metodik kompetentligini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi va ularning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi orqali shaxslarning insoniy, ishlab chiqarish va tarbiyaviy salohiyatlarini rivojlantirish mumkin bo'ladi.

A.A. Glebov fikriga ko'ra, "Butun hodisaning mohiyatini ochib berishga qaratilgan uslubiy yondashuvlarning umumiy tahlili, shuningdek, yaxlit shaxsning shaxsiy sifat mohiyatini tushunishning mantigi quyidagicha xulosaga olib keladi": bu yondashuvlar hodisalarni kompleks va butun yaxlitlikda, shaxsning barcha individual xususiyatlari, qobiliyatlari va shaxsiyati bilan bog'liq tarzda, muayyan ilmiy va boshqaruv maqsadlari uchun tahlil qilishni ta'minlaydi. Bu, o'z navbatida, shaxsning rivojlanishi va xulq-atvorini yaxlitlashtirilgan va tizimli tarzda tushunishning muhim asosidir:

Sifatni aniqlash: Ma'lum bir predmet, jarayon yoki shaxsning kuzatiladigan va o'lchovga asoslangan muhim xususiyatlarini belgilash va tavsiflash.

Funksiyalar tizimini aniqlash: Sifatni ta'minlash uchun zarur bo'lgan asosiy funksiyalar, vazifalar va faoliyatlarni belgilash, ularning o'zaro bog'liqligi va ta'sir doirasini aniqlash.

Funksiyalar tizimiga mos keladigan statik tuzilmani qurish: Aniqlangan funksiyalarni bajarish uchun zarur bo'lgan strukturalar, resurslar va muhitni qaror qilish va ularni hisobga olgan holda, muvofiqlashtirilgan, statik (doimiy) tuzilmani shakllantirish.

Statik strukturaning tarkibiy qismlarini to'ldirishni o'rganish: Tuzilimdagi har bir bo'lak, element va jarayonlarning o'zaro ta'sirini, vazifalar bilan bog'liqligini va umumiy tizimdagi rolini tushunish va tashkil etish.

Sifatni shakllantirish belgilarini aniqlash: Sifatni rivojlantirish va uzviy ravishda saqlash uchun muhim bo'ladigan xususiyatlarni belgilash, ularning mezonlarini aniqlash va monitoring qilish uchun asoslarni yaratish [22].

V.S.Ilin, F.K.Savina, Yu.N.Yujakovlar shaxsni shakllantirishda bajaradigan funksiyalarni shaxs sifatining asosiy ajralmas xususiyati bilan bog'laydi [23].

Ta'limda faoliyatli yondashuvni amalga oshirish jarayonida yuqorida sanab o'tilgan faoliyat pedagogik hodisa sifatida e'tiborga olinishi kerak. Bunda faoliyat tushunchasini tor ma'noda obyektни o'zgartirish sifatida tushunmaslik kerak. Faoliyat tushunchasini inson ichki dunyosini o'zgartirish, uning salohiyatini namoyon etish sifatida tushunish kerak. Pedagogikada bunday faoliyat yetakchidir. Bundan tashqari, o'qituvchi o'z vazifasini yaxshi bilishi va o'quvchilarga ijobiy ta'sir o'tkazishi kerak. G.I.Shukina shunday shartlarga ishora qiladi [16]:

1.Faoliyatning obyektiv imkoniyatlaridan maksimal darajada foydalanish, shuningdek, uning subyektiv asosini har tomonlama qo'llab-quvvatlash muhimdir. Ushbu jihatlar ta'lim oluvchining barcha faoliyatlari hamda shaxsiy harakatlarini samarali rag'batlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi; shuningdek, faoliyatga undovchi motivatsion omillar va qo'llanilayotgan metodlar o'rtasidagi muvofiqlikni ta'minlash orqali ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi; bundan tashqari, amalga oshirilgan harakatlar bilan umumiy faoliyat natijalari orasidagi muvaffaqiyatlarni mustahkamlash orqali ta'lim jarayonining uzluksiz rivojlanishiga xizmat qiladi.

Faoliyat, uning mazmuni, vazifalari va sabablarini operativ jihatdan rivojlantirish. Faoliyatni kompleks ravishda rivojlantirish, o'quvchining mustaqil yondashuvini ta'minlash.

Faoliyatning umumiy asoslari nuqtai nazaridan uning alohida ko'rinishi va batafsil o'quv-bilish faoliyatini o'rganish kerak.O'qituvchining bilish faoliyati ta'lim mazmunini chuqur tushunishni, uni qanday shaklda tashkil etish zarurligini, shuningdek bolalarning bilim va ko'nikmalari qanday tartibda rivojlantirilishi lozimligini aniqlashni talab etadi. Bundan tashqari, barcha ta'lim oluvchilarga mo'ljallangan bilish asoslarini to'g'ri shakllantirishni ta'minlash uchun zarur shartlarni hisobga olish muhimdir. Ushbu jarayonda o'qitishda subyektiv omillar katta ahamiyatga ega bo'lib, ular o'quvchilarning individual xususiyatlarini, qiziqishlari va ehtiyojlarini inobatga olishni taqozo etadi. Psixologlar (D.B.Bogoyavlenskaya, L.B.Yermolayeva Tomina, Y.L.Ponomarev va boshqalar) ijodiy faoliyat jarayoni uchta asosiy bosqichdan iborat deb hisoblaydilar.

Ulardan birinchisi – tayyorgarlik bosqichi bo‘lib, unda mustaqil ravishda maqsadni aniqlash qobiliyati ijodkorlikning eng yuqori ko‘rsatkichidir. O‘quv jarayonida ushbu qobiliyat ana‘aviy ta‘lim metodikasi bilan shakllantirilishi mumkin. Shunday qilib, maqsadni aniqlash qobiliyati ma‘lum bir ta‘lim faoliyati shaklining zarurligini anglashdan boshlanadi. Shuning uchun maqsadni o‘rganish uning ehtiyojlari va talablarini aniqlash bilan boshlanadi. Barcha ta‘lim tizimida bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirish hamda ularni aniq bir ishlab chiqarish faoliyatida amaliyotda qo‘llash. zarurligini anglash qobiliyatini shakllantirishga asoslanishi kerak.

Ijodiy jarayonning ikkinchi bosqichi izlanish jarayoni bilan bog‘liq bo‘lib, kerakli natijaga erishish, izlanish faoliyati uchun ijodiy operatsiyalarni o‘zlashtirishni talab qiladi. Ushbu operatsiyalar yangi elementlarni o‘zgartirish, qayta ishlash va birlashtirilishini o‘z ichiga oladi.

O‘zgartirish operatsiyalari – bu odatda, o‘zgartirilgan ob‘yektdir. Biroq, konstruktiv elementlarni qo‘shish yoki olib tashlash hisobiga, ob‘yektning yangi shakli paydo bo‘ladi.

O‘zgartirish operatsiyasi ob‘yektning asosiy mazmun, mohiyatini saqlab qolishda ham amalga oshiriladi. Bu yerda uning funksiyasi o‘zgaradi. Masalan, detalning bir tasviri ob‘yektning haqiqiy shakli saqlanib qolgan holda boshqasiga o‘zgartiriladi. Chizmachilikdagi bu topshiriq obyekt tasvirini o‘zgartirish deb ataladi.

Birlashtirilish, qo‘shish yoki aralashtirish operatsiyalari amalda mavjud bo‘lgan elementlarga yangi shakl va funksional vazifa yuklaydi.

Uchinchi bosqich – bajarish bosqichidir. Bu shaxsdan maxsus ko‘nikma va aniq tadbirlarni talab qiladi. Bundan tashqari, ijodkorlikning har bir turida ular juda aniqdir.

Shunday qilib, texnologik ta‘lim o‘qituvchisining professional-pedagogik tayyorgarligining yuqori darajaga erishishi quyidagi omillarga bog‘liqdir: birinchidan, bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy va shaxsiy rivojlanish darajasi, bu jarayon esa pedagogik tizimning samaradorligi bilan bevosita bog‘liq. Ikkinchidan,

texnologik ta'lim sohasida bo'lajak o'qituvchining kasbiy shakllanishini ta'minlovchi jarayonlarning tashkiliy boshqaruvi doimiy ravishda takomillashtirilishi zarur. Uchinchidan, refleksiv boshqaruv mexanizmi bo'lajak o'qituvchining kasbiy rivojlanishiga erishish maqsadlarini kafolatlaydigan muhim omildir. Bo'lajak o'qituvchi faoliyatining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda va uning metodik kompetentligining ta'rifiga asoslanib, bo'lajak o'qituvchiga ta'lim oluvchilarni boshqa shaxslar, hamkasblar, ota - onalar, ish beruvchilar, mehnat bozoridagi raqobatchilar bilan munosabatlarni o'rnatish bilan bog'liq kasbiy faoliyatda faol pozisiyani samarali qabul qilishga imkon beradigan axborot-kommunikativ funksiyani belgilash maqsadga muvofiq. Shuningdek, o'zining kasbiy faoliyatida yangi texnologik ma'lumotlarni erkin va samarali ravishda to'plash va ta'lim oluvchilarga uzatish hamda uni maktabni ta'lim jarayoniga kiritish uchun qayta ishlash, o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida ijtimoiy, axloqiy, gumanitar va texnologik loyihalarni amalga oshirishda samarali hamkorlikni ta'minlaydigan muloqotni malakali ravishda olib borish; o'quv jarayonini tashkil etishda qo'shimcha pedagogik, psixologik, texnik va texnologik adabiyotlar hamda axborot resurslaridan o'zlarining ijodiy izlanishlari materiallaridan, madaniyatning turli sohalari, zamonaviy ilmiy va texnik sohalardagi o'z psixologik, pedagogik, badiiy, ijodiy va texnologik tajribasi va bilimlaridan foydalanish samarali va maqsadga muvofiqdir. Garchi texnologik ta'lim o'qituvchisi, albatta, ma'lum ma'noda, o'quv jarayonining rahbari bo'lsada, biz mutaxassisning kasbiy kompetensiyasining funksiyalari texnologik ta'lim o'qituvchisining metodik kompetentligida to'liq aks ettira olmaydi deb xulosa qildik. Tahlil qilingan ishlarda qayd qilingan kommunikativ funksiya yuqorida ta'kidlangan texnologik ta'lim o'qituvchisining axborot-kommunikasiya funksiyasini aks ettiradi, bu uning turli faoliyat sohalari mutaxassislari uchun muhimligini belgilaydi.

N.A.Banko va I.V.Volvenkoning tadqiqotlarini tahlili shuni ko'rsatadiki, asarlarda ko'pincha o'qituvchi, o'zining faoliyatini natijasini oldindan bilish, o'quvchilarning harakatlarini prognoz qilish, o'quvchilarning salbiy xatti-harakatlarining dini olish bilan to'ldiradigan profilaktik va tarbiyaviy funksiya

mavjud. Shuningdek, o'qituvchining vazifasi yosh avlodni mehnat tarbiyasi va profilaktik - tarbiya funksiyasi kiradi, mehnatni qadrlaydigan, mehnat faoliyatining jamiyat hayotidagi ahamiyatini tushunadigan va global miqyosda insonning ahamiyatini anglaydigan inson uchun ijtimoiy buyurtmani amalga oshiradi [24].

Bizning fikrimizcha, metodik kompetentlikning ushbu funksiyasini amalga oshirish texnologik ta'lim o'qituvchisiga o'z o'quvchilarini, ularning qadriyatlari va hayotiy rejalarini, shuningdek, kelajakda kasbiy va mehnat faoliyatini qamrab olish imkonini berib, ishning inson hayotidagi ahamiyatini o'rganishga yordam beradi.

Zamonaviy jamiyatda xohlagan yo'nalishni to'g'ri tanlash uchun zamonaviy texnologiyalarni yaxshi o'zlashtirish zarurligini tushunish. Yutuqlar, mas'uliyat, mustaqillik, ixtiyoriy nazoratlarga bo'lgan ehtiyojning ahamiyatini ko'rsatish, o'quvchilarni yosh me'yorlariga muvofiq mehnat operasiyalarini o'zlashtirishga o'rgatish.

N.A.Bankoning fikriga ko'ra, profilaktik-tarbiyalash funksiyasi ta'lim jarayonini tashkil etishga yordam beradi:

O'quvchilarda atrofdagilarga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirish, o'qishga va burchlarga mas'uliyat bilan yondashishga motivatsiya uyg'otish; ularni o'z faoliyatini samarali tashkil etishga, tizimli ravishda "o'z ustida ishlashga" va yengil mehnat hamda bo'sh vaqtni maqsadli boshqarishga undash; sinf va jamoada o'zaro qo'llab-quvvatlash muhitini shakllantirish hamda bolalar xulq-atvorining ijtimoiy-axloqiy yo'nalishini rivojlantirishga yordam beradi [24].

Tadqiqotimizning ahamiyati - bu o'qituvchining metodik kompetentligini chuqurlashtiradigan va kengaytiradigan motivasion-mobilizasiya funksiyasi. Xususan, uning yordami bilan, I.V.Volvenko o'z tadqiqotida ta'kidlaganidek, sinfda muvaffaqiyat va yutuqlar muhitini saqlab qolish, o'quvchilarning xatolarini o'z vaqtida aniqlash, oldini olish va tuzatish mumkin; har bir ta'lim oluvchining o'ziga bo'lgan ishonchini qo'llab-quvvatlash; o'qituvchi ta'lim muvaffaqiyatining omillari sifatida bolalarning har qanday qobiliyatlariga tayanishi kerak [25].

Integrativ funksiya, A.V.Gutorovanning fikriga ko'ra, bo'lajak o'qituvchining shaxsiy rivojlanish jarayonining yaxlitligini ta'minlaydi. Bu texnologik ta'lim

o'qituvchisining kasbiy faoliyatida samaradorligini baholashga imkon beradi, o'quvchilarni ta'limiy yutuqlarini muntazam ravishda oshirish, ularning texnik, texnologik va iqtisodiy manfaatlarini, mas'uliyatini, o'qituvchi bilan ishlash istagini, ishdan qoniqishini rivojlantirish, bolalar bilan hamkorlik qilish, ulardagi pedagogik jarayonning teng huquqli ishtirokchilarini ko'rish, ta'lim oluvchilarning zamonaviy texnologik jarayonga qiziqishini saqlab qolish, o'quv materialiga texnik innovasiyalarni joriy etish, texnik ta'limni amalga oshirish, kasbiy yo'nalishni shakllantirish.

Bizning fikrimizcha, zamonaviy o'qituvchi turli vazifalarni bajarish orqali yangi bilim manbai va vositachisi rolini birlashtiradi. U ta'lim boshqaruvchisi (menejeri), muallifning ijodiy mahsulotiga ega yaratuvchi, pedagogik jarayonning loyihachisi, shuningdek, maktab o'quvchilarining mehnatsevarlik qobiliyatini rivojlantirishda an'anaviy va innovatsion shakl va usullardan foydalanishga qodir kompetentli o'qituvchi va o'quvchilarda mehnatga ijobiy munosabatni shakllantiruvchi psixologdir. Bunda bo'lajak o'qituvchilarning metodik kompetentligining alohida funksiyalarini ajratib ko'rsatish maqsadga muvofiqdir.

Ushbu funksiyalar o'rganilayotgan hodisaning mazmunini to'liq aks ettiradi: ularning har biri bir qator pedagogik muammolarni hal qilish va pedagogik faoliyatning ko'p qirraliligi haqida ma'lumot berish uchun mo'ljallangan [26].

Shunday qilib, metodik kompetentlikni motivasion-mobilizasiya funksiyasi bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchisiga psixologik, pedagogik, texnologik va uslubiy bloklar to'g'risida kerakli bilim olishga imkon beradi, yangi pedagogik yondashuv va texnologik ta'lim muammolarini hal qilish, ta'lim oluvchilarni yangi innovasion g'oyalar bilan ta'minlash va ularni o'quv jarayoniga jalb qilish uchun ijodiy salohiyatini yo'naltirish kerak.

Bo'lajak o'qituvchlarning metodik kompetentligini profilaktik - tarbiyaviy funksiyasi ta'lim oluvchilar bilan o'zaro munosabatlar masalalarini hal qiladi, ta'lim va tarbiyaga qo'yiladigan psixologik va pedagogik talablarni hisobga olgan holda o'quvchilar va o'quvchilar jamoasining xususiyatlarini korreksiyalash (tuzatish) va rivojlantirish choralari bilan o'rganish kabi masalalarni amalga oshiradi. Bo'lajak

o'qituvchilarning metodik kompetentligi axborot-kommunikasiya funksiyalari o'qituvchining turli darajadagi kasbiy munosabatlarni (o'qituvchi-ta'lim oluvchi, o'qituvchi-ota-ona, o'qituvchi-ta'lim oluvchilar jamoasi, o'qituvchi-pedagogik jamoa va boshqa ishchilarga o'zaro aloqalarni o'rnatishga tayyorligini amalga oshiradi, shuningdek, ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilariga psixologik-pedagogik yordam ko'rsatadi, texnik va texnologik innovasion jarayonlar to'g'risidagi bilimlarni oshirish hamda turli darajadagi konferensiya va seminarlarda ilg'or pedagogik tajribalar taqdimotida ishtirok etish. Integrativ funksiya bo'lajak o'qituvchilarning o'z bilimlarini ob'yektiv baholashga imkon beradi, bo'shliqlarni o'z vaqtida aniqlashni va ularni to'ldirish imkoniyatlarini qidirishni ta'minlaydi, shuningdek bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchisi shaxsini rivojlantirishning yaxlitligini amalga oshiradi, ularning kasbiy faoliyati natijalarini bashoratlash, oldindan bilish qobiliyatini rivojlantiradi, o'z faoliyatini korreksiyalashga (o'zgartirishga) tayyorlik, pedagogik tizimini psixologik-pedagogik fan yangiliklari bilan tinimsiz ravishda to'ldira olish kabi vazifalarni bajaradi. O'z navbatida, maqsadni shakllantirish funksiyasi bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchisining metodik kompetentligini rivojlantirish, o'z faoliyatining mo'ljallangan natijasi sifatida maqsadlarni rejalashtirishga yordam beradi, faoliyatning umumiy maqsadlariga erishish mumkin bo'lgan vazifalar va yo'nalishlarini ajratishga tayyorlik hamda ijtimoiy-axloqiy va mehnat maqsadlarini belgilash qobiliyatini, rivojlantiradi, natijani bashoratlash, oldindan bilish qobiliyati va uni korreksiyalashga (o'zgartirishga) tayyorlik jarayonini amalga oshiradi.

Bizning fikrimizcha, belgilangan funksiyalarni amalga oshirish pedagogik ish jarayonida ularning iyerarxiyasini (kasbiy ahamiyatini) va o'qituvchining ilgari ta'kidlangan xususiyatlarini to'liq inobatga olish, vazifalarning samarali va to'liq bajarilishini ta'minlaydi [26].

Funksiyalar tizimi, A.A.Glebovning fikriga ko'ra, ularning qismining tarkibi, ularning iyerarxiyasi va ketma-ketligi bilan tavsiflanadi ya'ni, ba'zi funksiyalarni boshqalar uchun asosiy deb bilish holati. Funksiyalar tizimi, Glebovning fikriga

ko'ra, ularning bir qismining tarkibi, iyerarxiyasi va ketma-ketligi bilan tavsiflanadi ya'ni, ba'zi funksiyalarni boshqa funksiyalarga nisbatan ustunligini anglash [27].

Ushbu funksiya sub'yektning o'z ta'lim tizimini yaratish imkoniyatlarini yaratadi, mutaxassislik fanlarini o'rganish ahamiyatini belgilaydi, undan tashqari bu yutuqlarga bo'lgan ehtiyojni, mas'uliyatni, mustaqillikni, ixtiyoriy nazoratni va boshqalarni baholashga imkon beradi. Ta'lim oluvchining yosh me'yorlariga muvofiq, tizimni shakllantirish funksiyasi bilan yaqin aloqada profilaktik-tarbiyaviy funksiyasi turadi, ushbu funksiya motivasion-mobilizasiya funksiyasiga asoslanib, ta'lim oluvchilarni bilim olish qobiliyati, ta'lim olishga moyilligi, ular bilan muvaffaqiyatli ishlash uchun iqtidorning turli mezonlari bo'yicha differensiasiya (farqlash) qila olish qobiliyatiga ko'proq hissa qo'shadi, shuningdek o'quvchilarning qadriyatlarini va hayotiy rejalarini aniqlash, aniqlangan omillarni taqqoslash va har bir ta'lim oluvchining bo'lajak kasbiy va mehnat faoliyatiga va zamonaviy mehnat bozori ehtiyojlarini hisobga olgan holda inson va umuman jamiyat hayotidagi mehnatning ahamiyatiga muvofiq o'quv yo'nalishini aniqlashga imkoniyat yaratadi.

O'z navbatida, motivasion-mobilizasiya funksiyasi axborot-kommunikativ va integrativ funksiyalar uchun ham asos hisoblanadi, chunki ular texnologik fanlarni o'rganishga asoslanadi, pedagogik va texnologik voqyelikka hissa qo'shishga tayyorlikni shakllantiradi. Axborot-kommunikativ va integrativ funksiyalar o'quv mashg'ulotlari materialini loyihalash, darsga tayyorgarlik jarayonida turli xil ma'lumotlar manbalaridan foydalanish qobiliyatida namoyon bo'ladi, shuningdek, o'quv ma'lumotlar tarkibini ta'lim oluvchilarning faoliyatiga o'tkazish qobiliyati, shuningdek ta'lim oluvchilar jamoasi ichida va tashqarisida turli darajadagi munosabatlarni o'rnatish qobiliyatini shakllantiradi. Maqsadni shakllantirish funksiyasi uning pedagogik tizimining samaradorligini to'liq baholashga imkon beradi, uning asosiy g'oyasini ajratib ko'rsatish, nafaqat kerakli maqsadlarni belgilash, balki ularga erishish, keyinchalik o'z-o'zini hurmat qilish va o'z faoliyatini to'g'rilash qobiliyatini shakllantiradi, bu bilvosita ushbu funksiyaning motivasion-mobilizasiya funksiyasiga asoslanishini tasdiqlaydi, chunki bu

o'qituvchining metodik faoliyatini maqsadlarini belgilashga imkon beradi, natijani taxmin qiladi, mustaqillik, mas'uliyat va ixtiyoriy faoliyatni oshiradi. Ushbu funksiyalarning integrasiyasi bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchisini metodik tayyorlashning yangi imkoniyatlarini ochib beradi [26].

O'qituvchilarning metodik kompetentligini motivasion – qadriyatni tarkibiy qismini o'rganib chiqish uchun asos sifatida, birinchi navbatida, A.V.Gutorovning har qanday ishdagi xulq-atvor va faoliyat jihatlari shaxsning motivasion sohasi tomonidan rag'batlantirilishi va tartibga solinishi haqidagi taxminiga tayanamiz. Ikkinchidan, qonuniyat sifatida quyidagi ta'rifni qabul qilishimiz mumkin: shaxsiy rivojlanishning qadriyatli yo'nalishlari tarkibida qanchalik sezilarli darajada namoyon bo'lsa, metodik kompetentlikni rivojlantirish uchun asos sifatida o'zini o'zi anglashga ijobiy yo'nalish shunchalik tez shakllanadi [29].

D.A.Krilov tadqiqotida belgilangan motivasion-maqsadli komponent biz tanlagan komponentning mohiyatini boyitadi va to'ldiradi, ta'lim oluvchilar o'rtasida o'qituvchining loyihalash madaniyatining xususiyatlari, mohiyati, tuzilishi, o'qituvchining loyihaviy faoliyatni amalga oshirish usullari to'g'risida nazariy bilimlar tizimini shakllantirish uchun sharoit yaratishga, shuningdek ushbu faoliyat sohasidagi tipik va atipik vazifalarni hal qilishda tizimli yondashuvni ishlab chiqish, o'quv va kasbiy faoliyatda proyeksion ko'nikmalar to'plamini shakllantirish, pedagogik loyihalashga bo'lgan qiziqishni rivojlantirishga qaratilgan [30].

Mazmunning berilgan xususiyatlarini hisobga olgan holda, ko'rib chiqilayotgan komponent bo'lajak o'qituvchilarning metodik kompetentligini motivasion-mobilizasiya funksiyasini amalga oshiradi. V.N.Bankin, A.V.Gutorov va S.V.Sokolovning tadqiqotlarida kognitiv komponent kasbiy faoliyatning umumiy jarayoni va undagi kasbiy hamda metodik o'zaro ta'sirlarning roli haqida fikrlarning yig'indisi sifatida ta'riflangan [31]. Bo'lajak o'qituvchilarning o'z qadriyatlar tizimini (shaxsiy va kasbiy) anglashlarini ta'minlashga qaratilgan jarayon sifatida ko'rsatilgan [28].

Mazmun va mohiyat jihatdan kognitiv komponentga intellektual-mazmunli komponent yaqin bo'lib, u bilim miqdori (kengligi, chuqurligi, izchilligi), shaxsning fikrlash uslubi bilan tavsiflanadi, pedagogik izlanish jarayonini belgilaydi, murakkab metodik muammolarni hal qilishga imkon beradi va shu bilan bo'lajak texnologiya o'qituvchisining metodik pozitsiyasini rivojlantirishda indikativ rol o'ynaydi hamda uni loyihalash uchun asos bo'lib xizmat qiladi [29].

Kognitiv komponent maqsadni belgilash funksiyasini amalga oshiradi va muvaffaqiyatli pedagogik faoliyat uchun zarur bo'lgan psixologik, pedagogik va maxsus texnologik bilimlar to'plami orqali taqdim etiladi, bu bo'lajak o'qituvchilarning o'quv va o'z-o'zini tarbiyalash faoliyatining natijasidir.

Bo'lajak o'qituvchilarning metodik kompetentligini kognitiv tarkibiy qismini shakllantirish mezonlariga texnologik ta'limni amalga oshirish uchun texnologik, iqtisodiy, psixologik va pedagogik bloklar bo'yicha bilimlarni qo'llashga tayyorligi, o'quv faoliyatida o'z konseptual kasbiy g'oyalarining mavjudligi, ilmiy bilimlarning yaxlitligini yuqori darajada anglash, bilimi kamroqlarini muntazam ravishda to'ldirish, meta-fan aloqalarini o'rnatish, o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'lim mazmunini samarali tanlash kabilar kiradi.

Mutaxassisning kompetentligi faqatgina bilimlar to'plamidan iborat bo'lmay, balki pedagogik jarayonni ongli ravishda boshqarish, o'quv texnologiyalarini samarali va to'g'ri tanlash imkonini beruvchi maxsus fikrlash uslubini ham o'z ichiga oladi.

A.V.Gutorovanning so'zlariga ko'ra bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik ta'lim bloki tarkibiga quyidagilar kiradi:

- uslubiy bilimlar-pedagogik hodisalarni o'rganishning umumiy tamoyillari, ijtimoiylashuv, o'qitish va tarbiya qonuniyatlari;
- Nazariy pedagogik faoliyatning maqsadlarini, tamoyillarini, mazmunini, usullarini va shakllarini, shuningdek, shaxsni shakllantirish va rivojlantirish qonuniyatlarini bilish.
- Metodik o'qitish va tarbiyalash usullarining asoslarini bilish.

- Texnologik ta'lim va tarbiyani tashkil etishning metod va usullarini bilish [29].

Biroq, yuqori kompetentli o'qituvchidan pedagogik vazifalarni hal qilish jarayonida amalga oshiriladigan pedagogik faoliyatning butun tizimini tushunish talab etiladi va S.V.Sokolova mashg'ulotlar davomida olingan metodik bilimlar amalda o'zgartirilishini ta'kidlab, "Ular pedagogik vazifalarni amaliy hal qilish mantig'iga muvofiq qurilgan ba'zi bir aniq tizimga birlashtirilgan" degan fikrni beradi [28].

Bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda kasbiy faoliyatning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish zarurligini tushunish metodik kompetentlikni navbatdagi tarkibiy qismi operasion-faoliyatni ta'kidlashga asos bo'ldi.

Bo'lajak o'qituvchilarning metodik kompetentligini takomillashtirishda operasion-faoliyatlilik komponenti biz tomonidan sohasidagi pedagogik voqyelik muammolarini amaliy hal qilish ko'nikmalari va qobiliyatlari to'plami sifatida belgilanadi; pedagogik faoliyatni tuzilishi quyidagilardan iborat: operatsion-faoliyatlilik komponentining asosi bo'lgan motivatsion ehtiyojlar hamda operatsion-texnik va pedagogik qobiliyatlar, bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik faoliyatidagi maqsad va vazifalarga erishishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Profilaktik-tarbiyaviy funksiya operasion-faoliyat komponenti yordamida amalga oshiriladi [33].

Bizning fikrimizcha bo'lajak o'qituvchilarning metodik kompetentligi yuqoridagi tarkibiy qismini takomillashtirish mezonlari quyidagicha: o'zining pedagogik faoliyatini samaradorligini baholash qobiliyati, o'quvchilarning texnik va texnologik qiziqishlarini rivojlantirish, o'zini-o'zi pedagogik faoliyatini asosiy g'oyasini aniqlash, o'quvchilarni pedagogik jarayonning teng huquqli ishtirokchilari sifatida ko'rish, pedagogik tizimni uzluksiz takomillashtirish imkoniyati, uning ishonchliligi, texnologik jihatini va natijalarning barqarorligini ta'minlash, doimiy introspeksiya, o'quv jarayonida o'quvchilarning faoliyatini va uning holatini refleksiya qilish, maktab o'qituvchilarining ishini tahlil qilish umumiy tizimidagi

rolini baholash, dars va darsdan tashqari vaqtlarda texnologik ta'lim sharoitida ta'lim jarayonini tashkil etish qobiliyatidir.

Tadqiqotchilarning ishlarini tahlil qilib, biz o'rganilayotgan hodisa tarkibida tez-tez uchraydigan kommunikativ komponentni aniqladik. Shu sababli V.N.Bankinaning tadqiqot ishida texnologik ta'lim o'qituvchilarining metodik kompetentlikni bir qismi sifatida kommunikativ komponentni hamkorlik va jamoaviy faoliyatida namoyon bo'lgan qobiliyat sifatida qaraladi, odamlar o'rtasidagi munosabatlarni tushunish qobiliyatini, muloqot holatini adekvat qabul qilish, atrofdagilar tajribasidan foydalanish; suhbatdoshlarni tushunish qobiliyati, motiv va maqsadlar; hamkorlik qilish qobiliyati; o'zini-o'zi metodik faoliyat va aloqa sohasidagi o'z motivlari va imkoniyatlarini bilish va tushunish qobiliyati, o'z nuqtai nazarini himoya qilish qobiliyati; shaxslararo voqyealarni bashorat qilish qobiliyatini, muloqotning asosiy usullarini bilish; muloqotdagi nizolardan qochish qobiliyati [34].

Bo'lajak o'qituvchi faoliyatining o'ziga xos xususiyatlariga asoslanib va yuqorida keltirilgan kommunikativ komponentning asosini hisobga olgan holda, ushbu komponent texnologik ta'lim o'qituvchisining metodik kompetentligini axborot-kommunikativ funksiyasini amalga oshirishni ta'minlaydi deb belgilash mumkin.

Belgilangan komponentning takomillashtirishini baholash mezonlari quyidagilar: o'quvchilarning hayotiy rejalarini aniqlash, ularning metodik yo'nalishlari, ularda bo'lajak kasbiy va mehnat faoliyati hamda inson hayotidagi mehnatning ahamiyati haqida tushunchalarni yaratish, o'z-o'zini anglashning ahamiyatini tushunish, zamonaviy jamiyatda talab darajasida faoliyat olib borish uchun zamonaviy texnologiyalarda foydalana olishga ega bo'lish zarurligini anglash, mehnat yutuqlariga bo'lgan ehtiyojini tarbiyalash, mas'uliyat, mustaqillik, iroda, burch va boshqalar. Darsda muvaffaqiyatlilik holatini saqlab qolish, har bir ta'lim oluvchining o'z kuchiga bo'lgan ishonchini qo'llab-quvvatlash qobiliyati.

Bizning fikrimizcha, ushbu komponentni shakllantirish mezonlari - bu o'z-o'zini hurmat qilish, jamoada o'z ahamiyatini anglash darajasi, o'z-o'zini baholash

va o'z-o'zini tahlil qilish, o'z faoliyati natijalari uchun javobgarlik, kasbiy faoliyatda o'z-o'zini bilish va o'z-o'zini anglash; bu faoliyat natijalarini va o'zini rivojlantirish darajasini ongli ravishda nazorat qilish qobiliyatida namoyon bo'ladi, bu texnologik ta'lim o'qituvchisi uchun tashabbuskorlik, ijodiy yo'nalish, improvizasiya qilish, bashorat qilish, o'quv materialining mazmunini hayotiy va ahamiyatli mahsulotga aylantirish, proyeksion qobiliyati, o'zini-o'zi kuzatish va o'zini namoyon qilish tendensiyasi kabi muhim fazilatlarni rivojlantirishga yordam beradi[33].

Yuqorida keltirilgan metodik kompetentlikni tarkibiy qismlarining birlikda ifodalanishi iyerarxiya masalasini tahlil qilish ya'ni, metodik kompetentlikni tarkibiy qismlarini bir-biriga bo'ysinish masalasini namoyon qilish zarurligini belgilaydi.

Tizimning ushbu qismlarining ketma-ketligi va joylashishi ichki jihatdan ularning bo'ysunishi, subordinasiyasi va korrelyasiyasiga asoslanib, katta funksional imkoniyatlarga ega bo'lganlarni aniqlash orqali tashkil etiladi.

Fikrimizcha, biz belgilagan komponentlarning iyerarxiyasini motivasion-qiymat komponenti bilan boshlash maqsadga muvofiqdir, bu esa o'z navbatida bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchisining metodik kompetentligini tizimni tashkil etuvchi tarkibiy qismi sanaladi, biz tomondan aniqlangan sifatning qolgan komponentlari to'ldiruvchi va qo'shimcha hisoblanadi. Yuqorida biz motivasion-qiymatli komponentining tarkibiga metodik tayyorgarlikning motiv, maqsad va ehtiyojlarini takomillashtirish, o'zini-o'zi tarbiyalash, o'z-o'zini rivojlantirish kabi funksiyalar kirishi haqida gapirib o'tgan edik.

Shuningdek, u metodik faoliyatda shaxsning ijodiy namoyon bo'lishiga turtki beradi, metodik dunyoqarashni shakllantirish, kasbiy faoliyatning shaxsiy mazmunini shakllantirishga yordam beradi. Avvalroq, biz motivasion-qiymatli komponenti tomonidan namoyon etiladigan motivasion-mobilizasiya funksiyasi yetakchi ekanligini aniqladik, shuning uchun tanlangan komponent bo'lajak o'qituvchilarning metodik kompetentligini takomillashtirishning bir bosqichidan ikkinchi bosqichga o'tish davrida boshqaruvchi bo'ladi.

Bo'lajak o'qituvchilarning metodik kompetensiyasi iyerarxiyasining navbatdagi bosqichida kommunikativ komponent turadi, chunki uning asosida bo'lajak o'qituvchining kommunikativ qobiliyatlarini takomillashtirish va uni turli ko'rinishdagi aloqalarni o'rnatishga o'rgatish uchun ta'lim sohasidagi muxim bo'lgan muloqot qobiliyatlari turadi. Metodik kompetentlikning navbatdagi tarkibiy qismi refleksiya bo'lib, u o'z kasbiy faoliyati istiqbollarini baholashga ko'maklashadi, o'z-o'zini nazorat qilish, o'z-o'zini tartibga solish, o'z ishi natijalarini tuzatish kabi vazifalarni o'z ichiga kiritadi. Metodik kompetentlikni iyerarxiyasidagi yakuniy komponent politexnika, ilmiy-psixologik va pedagogik intellektni tashkil etuvchi operasion-faoliyatli komponenti bo'lib, ularning kasbiy g'oyalarini ijodiy tatbiq etishga, turli guruhlar o'quvchilari bilan faoliyatni tashkil etishning yetarli shakl va usullarini izlash orqali yordam beradi [26].

Bizning fikrimizcha, bo'lajak o'qituvchining metodik kompetensiyasi shaxsning yaxlit sifati, zaruriy innovatsion bilimlar, ko'nikmalar va qobiliyatlar tizimi bo'lib, kelajakdagi mutaxassisning ma'lum bir tarixiy lahzada jamiyatda qabul qilingan meyorlar va standartlarga muvofiq kasbiy funksiyalarni bajarishga tayyorligi va salohiyatini ta'minlaydi.

1.2-§. Bo'lajak o'qituvchilarni metodik kompetentligini takomillashtirish funksiyalari

Bo'lajak o'qituvchilarni metodik kompetentligini rivojlantirish bo'yicha mavjud ilmiy va pedagogik tadqiqotlar, maxsus adabiyotlarda qayd qilingan ma'lumotlarni o'rganib tahlil qilish natijasida, biz bo'lajak o'qituvchi uchun, psixologik-pedagogik va asosiy metodik kompetentliklarga ega bo'lish, kasbiy faoliyatni samarali tashkil etishda muhimdur degan xulosaga keldik.

Bo'lajak o'qituvchilarni metodik kompetentligini takomillashtirishda ayniqsa, akmeologik, faoliyatli va kompetentli yondashuvga asoslanishni talab etadigan innovatsion ta'lim texnologiyalarini qo'llash samarali hisoblanadi.

Bo'lajak o'qituvchining metodik kompetentligini rivojlantiruvchi vositalar tizimini izlab topish uchun avvalo "Vositalar" kategoriyasi tushunchasini aniqlash muhim ahamiyatga ega. E.A.Kryukova tushunchasida vosita - bu o'quv vazifalarini

hal qilishga, o'quvchilarning xulq-atvori va hayotiy ma'nolarida o'quv dasturlarini amalga oshirishga yordam beradigan ob'yekt, hodisa, harakat usulidir [40].

V.S.Ilyinning fikriga ko'ra, pedagogik vositalar - bu o'qituvchi tomonidan shaxsni shakllantirish jarayonida qo'llaniladigan metod va predmetlar shu jumladan pedagogik jarayonda o'qituvchi shaxsining holati sanaladi [41]. Bu, agar har bir vositaning mazmuni va yo'nalishi belgilangan maqsadlarga javob bersagina, amalga oshirishga imkon bo'ladi.

An'anaviy pedagogika pedagogik vositalarni har qanday chora-tadbirlar to'plami bilan bog'laydi, lekin shaxsiy jihatlarni chetlab o'tar ekan, ta'lim oluvchiga ma'lum tashqi ta'sir ko'rsatish orqali xulq-atvor modellari shakllantirishga intiladi. Ta'limning maqsad va mazmuni uchun shaxsiy elementning mavjudligi o'qituvchining pedagogik maqsadlarga erishadigan vositalar haqidagi munosabatini o'zgartiradi.

N.V.Teltevskaya oliy ta'lim muassasalari bosqichida nafaqat kasbiy ta'lim mazmuniga, balki o'quv jarayonini tashkil etishga, ta'lim oluvchilarning guruhda ishlash ko'nikmalarini shakllantirishga, turli vaziyatlarini tahlil qilishga va mavjud bilimlarga tayanish hamda qo'shimcha ma'lumotlarni jalb qilish orqali ularni hal qilishga alohida e'tibor berishni taklif qiladi [42]. Yuqorida berilgan fikrlarga asoslanib, tadqiqotchi D.A.Krilov guruhda, juftlikda, uchlikda ishlash intellektual faoliyatni shakllantirish uchun zarur bo'lgan fazilatlarni rivojlantirish jarayonida yengishga yordam beradi degan fikrni bildiradi [43].

Pedagogik vositalarga shaxsga ta'sir qila oladigan omil sifatida foydalanish mumkin bo'lgan barcha predmetlar kiradi, ya'ni, ta'limiy va tarbiyaviy jarayonlarining mazmuni, jamoada ular tomonidan boshqariladigan psixologik mikroiklimlar va boshqalar. Ammo har qanday vosita belgilangan maqsadga erishishni ta'minlay olmaydi, chunki maqsadga erishish uchun ma'lum bir vositalar mukammal bo'lmaydi yoki vosita sifatida ko'rilmaydi. Bu yerda biz N.V.Teltevskayaning pedagogik vositalarni aniqlashda muhim omil, shakl, usul va vositalarni maqbul variantini tanlash, buning natijasida o'quv faoliyatini ijodiy xarakterga ega bo'ladi, uning davomida ta'lim oluvchi nafaqat bilim va uni olish

usullarini o'rganadi, balki o'zi ham yangi bilimlarni yaratadi va yangi tajribaga ega bo'ladi, bu ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishning shaxsan muhim va samarali manbai degan fikriga qo'shilamiz [44].

Pedagogik vazifalarni hal etish bo'lajak o'qituvchilarga yangi pedagogik bilim olish, olingan bilimlarni boyitish, o'zlashtirish va mustahkamlash, mavjud bilim, ko'nikmalarni korreksiyalash imkonini beradi. Amaliy jihatdan pedagogik vazifalarni hal qilish, metodik kompetentlik takomillashtirishga. O'rganilayotgan xususiyatni shakllantirish uchun pedagogik muammolarni hal qilishning ahamiyati, shuningdek, vazifada mavjud bo'lgan vaziyatni tahlil qilish ta'lim oluvchilarga o'zlarini o'qituvchi sifatida sinab ko'rishga, pedagogik jihatdan mos yechimlarni topishda minimal tajribaga ega bo'lishga imkon beradi degan xulosaga keldik, bu esa o'z navbatida kelajakda real vaziyatlarda tezkor va oqilona harakat qilishda ko'maklashadi.

Turli pedagogik vaziyatlarni mustaqil modellashtirish ta'lim oluvchilarga o'rganilayotgan materialning metodik kompetentlik tizimidagi o'rnini anglashga imkon beradi. Pedagogik vaziyatlarni modellashtirish qobiliyati quyidagi jihatlarda ifodalanadi: ushbu o'quv faoliyatida talab qilinadigan materialni egallash; ko'rish va g'oyani shakllantirish yoki pedagogik vaziyatni modellashtirish qobiliyati; muammoning ko'p sonli yechimini ishlab chiqish qobiliyati[48].

Bo'lajak o'qituvchilarning metodik kompetentligini takomillashtirish uchun pedagogik vaziyatlarni hal qilishdan foydalanish orqali biz kasbiy fikrlashni rivojlantirish va turli pedagogik hodisalarni tahlil qilish mahoratini o'zlashtirishni, shuningdek, odatiy vaziyatlarni hal qilish algoritmini egallashni bir vaqtning o'zida ko'rib chiqamiz.

Keys-stadi usuli pedagogik vaziyatlarni hal qilish usuliga shakl jihatidan o'xshash, ammo mazmun jihat va texnologik ijrosi jihatidan bir-biridan farqlanadi. O'rganilayotgan muammo ustida ishlash tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi, mavjud pedagogik muammoni hal qilish maqsadida mavjud bilimlar bazasidan foydalanish uchun sharoit yaratadi. O.G.Smolyaninova ta'kidlaganidek agar keys-stadi muammolarini hal qilish bo'yicha faoliyat

texnologik jihatdan qurilgan bo'lsa, ta'lim oluvchi muayyan holatlarga "sho'ng'iydi", vaziyatni o'z tushunchasi, vaziyatni baholash, muammoni va uning mohiyatini aniqlash, ta'lim oluvchi muammoni hal qilishda o'z rolini belgilaydi va tegishli xulq-atvor tizimini ishlab chiqadi [50].

Kays-stadi usulidan foydalanish ta'lim oluvchilarning aniq sharoitlarni hisobga olgan holda muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi, bunda real ma'lumotlar, mustaqil fikrlash, tinglash va muqobil nuqtai nazarni hisobga olish va ularning shaxsiy nuqtai nazari foydasiga dalillar keltirish qobiliyati mavjud. Amaliy mashg'ulotlarda keys-stadi usuli yordamida, "ishlab chiqarish" vaziyatlarini o'yin simulyasiyasi shaklida, bo'lajak mutaxassislar o'z harakatlari strategiyasini tanlashda ham, o'qituvchi va ta'lim oluvchining o'zi tomonidan qo'yilgan o'quv va amaliy maqsadga erishish uchun aniq qadamlarni tanlashda ham ko'proq erkinlikka ega.

Ushbu ta'lim metodini o'rganishda ishtirok etgan olimlarning umumiy fikriga ko'ra, keys-stadi metodi haqiqiy hayotiy vaziyatlarning immitasiyasi bo'lib, uning tavsifi simulyasiyaga asoslangan ba'zi amaliy muammolarni aks ettiradi. Ideal holatda esa, muammo aniq yechimga ega bo'lmasligi kerak.

Bundan tashqari, vaziyatning vaqti aniq belgilanishi va vaziyatni tahlil qilish uchun barcha ma'lumotlar berilishi kerak. Bu holda muhim shartlardan biri ma'lum faoliyatda qaror qabul qilish uchun mas'ul bo'lgan "shaxs"ning mavjudligi. Keys – stadi usuli tadqiqot texnologiyasining o'ziga xos turi bo'lib, u tadqiqot jarayoni va analitik jarayonlarni birlashtiradi. Keys – stadi usuli kollektiv ta'lim texnologiyasi bo'lib, u rivojlanishni o'rganish texnologiyalarini, shu jumladan individual, guruhviy va jamoaviy rivojlanish, tinglovchilarning ayrim shaxsiy fazilatlarini shakllantirish tartiblarini birlashtiradi.

O'quv jarayonida pedagogik vazifalar, vaziyatlar va ish uslubidan foydalanish ta'lim oluvchilarning fikrlashini faollashtiradi va ularni ijodiy izlanishga undaydi va shu bilan bo'lajak o'qituvchilarning metodik kompetentligini refleksiv tarkibiy qismini shakllantiradi [51].

Bo'lajak o'qituvchilarning metodik kompetentligini rivojlantirishning navbatdagi vositasi, ishbilarmonlik, chunki oliy ta'im muassasalarida o'qitishning bunday usulidan foydalanish jarayonida nafaqat motivasion-qiyamat komponenti shakllanadi, balki bo'lajak o'qituvchilarning metodik kompetentligini boshqa tarkibiy elementlariga ta'sir qiladi.

A.A.Verbiskiy kasbiy ishbilarmonlik o'yinlarini rivojlantirish bilan shug'ullangan unda predmet ko'nikmalari bilan bir qatorda bo'lajak muhandislarning kommunikativ ko'nikmalari shakllanadi. Olim o'yinni bo'lajak kasbiy faoliyatni amalga oshirishning yaxlit tajribasi, aloqa va o'zaro ta'sir ko'nikmalarini shakllantirish, ijtimoiy munosabatlar tajribasi, kognitiv va kasbiy motivasiyani shakllantirish vositasi sifatida belgilaydi [52].

Kasbiy ishbilarmonlik o'yinlari bir qator pedagogik vazifalarni hal qilishi mumkin: rivojlantiruvchi, ta'limiy va kognitiv. Bunda ta'lim oluvchilar yangi material bilan tanishadilar, bilimlarini chuqurlashtiradilar, kasbiy faoliyatga tayyorlanadilar.

O'quv jarayonida ishbilarmonlik o'yinlaridan foydalanish ta'lim oluvchilarni kasbiy kompetentligini shakllantirishga imkon yaratadi:

- boshqalarning pozitsiyasidan harakat qilishga tayyorlik;
- savollar orqali kerakli ma'lumotlarni olish;
- muammoni hal qilishda hamda muloqotni tashkil qilishda tashabbus ko'rsatishga tayyorlik;
- ziddiyatli vaziyatni dialogga aylantirish, tahlil qilish va umumiy nuqtai nazarni rivojlantirish orqali yechimlarni topish qobiliyati;
- nisbiylikni tushunish istagi va qobiliyati, fikrlarning subyektivligi, boshqalarning nuqtai nazarini tinglash istagi va qobiliyati;
- o'yin ishtirokchilarida turli xil hissiy holatlarni aniqlash va muammoni hal qilishda aloqa jarayonida ulardan foydalanish;
- muloqotdagi kasbiy mahoratlarini, kasbiy qiziqishlari, pozitsiyalari, psixologik fazilatlarini aniqlash va ularni korreksiyalash.

Oliy ta'limdagi an'anaviy mashg'ulotlarda sof kasbiy bilimlarni o'zlashtirishdan tashqari, bugungi kunda ta'limning shaxsni shakllantirish, ijodiy fikrlashni rivojlantirish, faollik, tashabbuskorlik, qaror qabul qilishda mustaqillik kabi jihatlari muhimdir. Bularning barchasi bo'lajak o'qituvchilarni o'qitish jarayonida yangi usullarini qo'llash zarurligini taqozo etadi, bu nafaqat tayyor bilimlarni uzatish, balki o'quvchilarni ijodiy faoliyatga yo'naltiradi.

Ilmiy-uslubiy adabiyotlarni tahlil qilish asosida bo'lajak o'qituvchilarning metodik kompetentligini barcha tarkibiy qismlariga ta'sir ko'rsatadigan eng maqbul usullar: dialog, pedagogik vazifalar va vaziyatlar, keys-stadi va ishbilarmonlik o'yinlari hisoblanadi degan xulosaga kelamiz. Bo'lajak mutaxassislarining kerakli kompetentliklarini rivojlantirishga bag'ishlangan tadqiqotlarda ushbu vositalarning salohiyati eng muhim rol o'ynaydi.

A.A.Glebovning so'zlariga ko'ra, "shaxsni shakllantirish ta'lim va tarbiya mazmuni, usullari, vizual vositalari va boshqalarning umumlashtirilgan ta'siri bilan emas, balki ularning samarali va teng o'zaro ta'siri orqali amalga oshiriladi". Shu bilan birga, boshqa vositalar, omillar va jarayon sharoitlari bilan o'zaro aloqada bo'lish orqali har bir vosita tizimli fazilatlar bilan boyitiladi.

Oliy pedagogik ta'limda kompetensiyaga asoslangan yondashuvni amalga oshirish bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy fazilatlarini shakllantirish, ular o'rtasida funksional va mazmunli-obyektiv aloqalarni o'rnatish va ijtimoiy baholashni shakllantirishning eng to'liq vositalarini tasniflashni talab qiladi. Pedagogik vositalar tizimining yaxlitligining belgilari, A.A.Glebovning ta'kidlashicha, tizim qismlari, tarkibiy qismlari va aloqalarining o'zaro ta'siri natijasida mavjud bo'lgan xususiyatlardir. Ushbu xususiyatlarga, birinchi navbatda, funksiyalar, tuzilish, elementlarning birligi, tizimning o'zini rivojlantirish qobiliyati kiradi.

Shunga asoslanib, yaxlitlikni o'rganish butun tarkibiy qismni ajratishda ko'rinadi; muayyan jihatdan o'rganilayotgan ob'yektni bir butun sifatida ifodalovchi elementlarning kombinasiyasini tanlashda; bir butunning barcha asosiy elementlari va munosabatlarini saqlaydigan tarkibiy bo'linmalarni taqsimlashda; alohida

qismlarga xos bo'lmagan, lekin ularning muayyan bog'lanishlar tizimidagi o'zaro ta'siri natijasida paydo bo'ladigan sifatlarni ajratish [54] takliflarini ilgari suradi.

Vositalar tizimining qurilishi uning elementlari iyerarxiyasi masalasini tahlil qilish zarurligini belgilaydi, ularning o'ziga xos tashkil etilishi va o'zaro bog'liq ketma-ketligini hisobga olgan holda, shaxsning shakllangan tarkibiy qismining psixologik rivojlanish qonuniyatlarini hisobga olish kerak. N.K.Sergeyev e'tiborni yo'naltirish va tizimni tashkil etishda ustuvorliklarni aniqlash uchun unda yetakchi, tizimni shakllantiruvchi omillarni bilish muhimligini ta'kidlaydi. Yaxlit o'quv jarayoni nazariyasida N.K.Sergeyev, tizimni tashkil etuvchi element shaxsning faol holatini rag'batlantiradigan, individual vositalarni birlashtiradigan, ularni muvofiqlashtiradigan, o'zgartiradigan, ma'nosini chuqurlashtiradigan, ketma-ketligi yaratadigan tarkibiy qism bo'lishi kerak [55] deb ta'kidlaydi.

Keltirilgan fikr va mulohazalardan kelib chqib, bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarini metodik kompetentligini takomillashtirish asosiy funksiyalari sifatida: ta'limiy, tarbiyaviy rivojlantiruvchi, evristik, axborot, loyihalashtiruvchi kabi funksiyalarni belgilab oldindi.

Ushbu funksiyalarni har birini tariflarini alohida qarab chiqamiz:


Ta'limiy funksiya ta'lim oluvchilarni texnologik ta'lim yo'nalishiga oid fanlarni bilishning aniq usuli sifatida tanishtirish, sohaga oid innovatsion texnologiyalar va voqelikni dialektik o'zaro bog'liqligini tushunishini shakllantirish bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatida uchrashi mumkin bo'lgan muammolarga tayyorlash imkoniyatlarini tavsiflaydi.

Tarbiyaviy funksiya dunyoqarash va axloqni shakllantirish bilan aniqlanadi. Integratsiyada ta'limning shunday sohasi paydo bo'ldiki, unda ta'limga oid qonunlarni ochilishi orqali umumiy gumanistik qadriyatlarni mazmuni uyg'unlashtirdi. Ta'lim oluvchi voqelikni falsafiy tushunish maydoniga qancha erta kirsam, insonning shaxs sifatida rivojlanishdagi dunyoqarashga oid ko'plab axloqiy, estetik, psixologik va fiziologik muammolari samarali hal etiladi.

Rivojlantiruvchi funksiya fikrlashni, tasavvurni, bilishga bo'lgan qiziqishni ijodiy qobiliyatlarni, bilimlarni o'zlashtirishdagi onglikni rivojlantirishga

qaratilgan. Bundan tashqari, ular qatoriga fikrlash faoliyatining mantiqiy usullarini shakllantirish ham kiradi.

Evristik funksiya turli xil topog'onlik, topqirlik usullarini bilsih metodlarini o'zlashtirish va ularni turli aniq vaziyatlarda qo'llay olish ko'nikmasini egallashini ta'minlash kiradi.



1.2.1-rasm. Bo'lajak o'qituvchilarning metodik kompetentligini takomillashtirishning to'rtta quyi tizimi

Axborot funksiyasi. Ta'lim jarayonida ta'lim oluvchi amaldagi standartdagi materiallar bilan tanishibgina qolmay, media muhitdagi axborotlar bilan tanishish ularni farlay olish, ularda uchraydigan g'oyalarga konseptual qarashlarga ega bo'ladi.

Loyihalashtiruvchi funksiya ta'lim transformatsiyasi sharoitida bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchisiga qo'yilgan talablardan kelib chiqib ta'lim jarayonini loyihalashtirish kabi xususiyatlarni aks ettirishga xizmat qiladi.

Bo'lajak o'qituvchilarning metodik kompetentligini rivojlantirishida eng katta pedagogik salohiyatga ega bo'lgan, ta'lim texnologiyalarini ishlab chiqish va

amalga oshira oladigan, metodik kompetentlikni barcha tarkibiy qismlarni rivojlantirishga qaratilgan interfaol o'qitish usullaridan kompleks foydalanish shakli sifatida loyihalar usulini olishimiz mumkin.

R.A.Galustovning fikriga ko'ra, "Bo'lajak o'qituvchining proyeksion madaniyati quyidagi tarkibiy qismlar majmuasini o'z ichiga oladi: bilimdonlik, nuqtai nazar va qobiliyatlarga asoslangan proyeksion dunyoqarash; loyihalash mahorati-ko'nikmalar to'plami sifatida; proyeksion normalari, an'analari bilan oldindan belgilab qo'yilgan proyeksion hatti-harakatlari, ularning shakllanishi kasbiy va pedagogik faoliyatga tayyorligini tavsiflaydi" [56].

Shuningdek, biz D.A.Krilovning zamonaviy ta'lim tashkiloti o'qituvchisining proyeksion madaniyatini shakllantirish mehnat bozorida talab qilinadigan yuqori malakali va raqobatbardosh mutaxassislarni kasbiy tayyorlashning ajralmas qismidir degan fikriga qo'shilamiz [57].

Shuningdek, tadqiqotchi ta'lim oluvchilar o'rtasida proyeksion madaniyatni shakllantirish vazifalarini aniqladi:

- 1) mustaqillik va individuallik sari harakat; ushbu vektor umumiy rivojlanish jarayonida uning bosqichlari va ketma-ketligini aniqlaydi;
- 2) o'quv jarayonini tashkil etish loyihasi va dasturi rivojlanish faoliyatining maxsus (yetakchi) shakli sifatida;
- 3) umumiy rivojlanishning oraliq natijalari refleksiyasini ta'minlaydigan ishlab chiqilgan individual qobiliyat sifatida;
- 4) tegishli jarayonlar amalga oshiriladigan ta'lim muhitini ijtimoiy-pedagogik loyihalash [57].

Muallif tomonidan belgilangan vazifalar bo'lajak o'qituvchi uchun loyihalash variantlarini aniqlash uchun baza vazifasini bajardi.

Bo'lajak o'qituvchilarning metodik kompetentligining beshta tarkibiy qismini aniqlandi: motivasion, kognetiv, operasion-faoliyatli, kommunikati va refleksiv va shu munosabat bilan, yuqorida aytib o'tilgan vositalarning quyi tizimlarini ajratish maqsadga muvofiqdir.

Ushbu kichik tizimlar bo'lajak o'qituvchilarning metodik kompetentligini takomillashtirishning barcha bosqichlarida mavjud bo'lib, ularning maqsadlariga muvofiq u yoki bu bosqichda yetakchi rol o'ynaydi, o'zaro hamkorlik qiladi, to'ldiradi va kengaytiradi.

1.3-§. Bo'lajak o'qituvchilarning metodik kompetentligini takomillashtirishning metodik ta'minoti

Oliy ta'lim muassasalarining ta'lim oluvchilari, o'z kasbiy faoliyatini boshlaguncha, yuqori saviyaga erishish bilan birga, yangi pedagogik texnologiyalarni to'liq o'zlashtirgan, zamonaviy bilimlarni bera olish qobiliyati, kasbiy ko'nikmalar va malakalarni shakllantirish mahoratiga ega bo'lishlari lozim. Oliy ta'lim tizimida bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash jarayoni pedagogika oliy ta'lim muassasalarida o'ziga xos shart-sharoitni talab qilish bilan birgalikda, fanlararo aloqadorlik hamda uzluksizlik tamoyiligi tayangan holda o'quv-tarbiyaviy jarayonni tashkil etishni talab etadi.

Ular o'z kasbiy fanini mukammal bilishi, psixologiya, axborot texnologiyalari sohasidagi so'nggi yangiliklarga rioya qilish, tarmoq aloqasi, ta'lim oluvchilarning zamonaviy jamoaviy faoliyatini tashkil etish, innovatsion texnologiyalardan foydalanish, foydalanishi kerak bo'lgan resurslarni bilishi zarur. Bu esa o'qituvchidan yangi bilimlarni olish, mavjudlarini mustahkamlash va tuzatish uchun bulutli texnologiyalardan foydalangan holda, ushbu tarkibni o'z vaqtida va maqsadda qanday qo'llashni tushunishi, tayyor kontent va o'qituvchi tomonidan yaratilgan resurslardan foydalanish kompetentligiga ega bo'lish talab etiladi.

Bo'lajak o'qituvchilarning metodik kompetentligini rivojlantirish jamiyatdagi roli, pedagogika oliy ta'lim muassasasidagi ahamiyati va vazifalariga, shuningdek, o'qituvchining individual qobiliyatlariga bog'liqdir. O'qituvchining kreativ faoliyati uning shaxsiy xususiyatlari, masalan, ilmiy fikrlash, ijodiy yondashuv, va o'z imkoniyatlarini amalga oshirish istagining rivojlanish darajasi bilan belgilanadi. Bo'lajak o'qituvchilarning ijodiy individualligini rivojlantirish va takomillashtirish uchun zarur bo'lgan psixologik-pedagogik sharoitlarni hisobga olish va ularning

qarama-qarshiliklarini bartaraf etish, o'ziga xoslik va maqsadga muvofiqlik kabi kasbiy sifatlarning shakllanishida namoyon bo'ladi.

N.A.Muslimov quyidagi fikrlarni qayd etgan: "Insonning betakrorligi to'g'risidagi fikrlar individuallikning tashqi jihatlarini ifodalaydi. Inson ko'p qirrali mavjudot bo'lib, unda hayvoniy (tana) va ijtimoiy (shaxs) omillar mujassamlashganligidir. Individuallik bu insonning hayvonot va ijtimoiy olamdan farqlanishidir. Insonning individualligida uning hayot faoliyati manbai mujassamlashgan. Individualligi rivojlangan individ to'raligicha o'z kuchiga tayanadi va bu bilan u erkin va mustaqil shaxs sifatida namoyon bo'ladi" [110] deb takidlaydi.

Insoniy individuallik shaxsning ontogenezdagi rivojining yuksak darajasi hisoblanadi. Bunday individni K.Rodgers "To'laqonli faoliyat ko'rsatuvchi inson" deb nomlagan [94].

O'qituvchining metodik kompetentligi kreativlik, pedagogik texnologiyalarni samarali qo'llay olish, auditoriyani tezda jalb qilish va o'zini boshqara olish ko'nikmalaridan iborat. Pedagogik vazifalarni amalga oshirish esa, avvalo, o'qituvchining kasbiy ko'nikmalariga bog'liq. Ushbu ko'nikmalar rivojlanganida, insonning to'la shakllanishi, individ sifatida o'ziga xosligi va har tomonlama kamolotga erishishi yuzaga keladi. Bu ko'nikmalarning rivojlanish darajasi shaxsning ijtimoiy faolligi, hayot tarzi, baxti va jamiyatdagi o'rni bilan belgilanadi.

O'qituvchi tayyorlash va bu jarayonda ro'y beradigan hodisalarning ko'p o'lchamli hamda ko'p pog'onali xarakteri kasbiy shakllanish sharoitida inson faoliyatini imkon qadar to'laroq o'rganish uchun turli usullar qo'llashni talab etadi. Hozirgi paytda pedagogika fanida, shuningdek, unga yaqin bo'lgan boshqa sohalarda (muhandislik psixologiyasi, psixotexnika va h.k.) keng turdagi texnologiyalardan foydalanilmoqda.

Bu jarayonda shaxsga xos bo'lgan xususiyatlar: qadriyatli yo'nalishlar, qiziqishlar, ehtiyojlar, moyilliklar, qobiliyatlar, kasbiy maqsadlar, kasbiy yo'nalganlik, xarakter xususiyatlari, temperament, salomatlik holati o'rganiladi. Vaholanki, bilim, malaka va ko'nikmalarni shakllantirish jarayoni shaxsning

rivojlanishi, kasbiy sifatlar shakllanishi bilan parallel ravishda ro'y beradi. Shu sababli biz kasbiy tayyorgarlik jarayonida texnologik ta'lim o'qituvchisining maxsus bilimlari, ko'nikma va malakalari shakllanishini kuzatib borishga harakat qilib ko'rdik, chunki bu ikki jarayon bir-biri bilan o'zaro aloqada bog'liqdir.

Ta'lim oluvchilarning professional bilim ko'nikma va malakalarni puxta egallashi ularda metodik kompetentlikni rivojlanishi bilan bog'liq. Ishlab chiqarish ta'limining mazmuni va usullari texnologik ta'limi o'qituvchilari uchun tayyorlangan dastur va metodik yo'riqnomalarda aks etadi.

Kasbiy qobiliyatlar, shaxsning kasbiy ahamiyatga ega boshqa sifatlari kabi, bilim, ko'nikma va malakalarni egallash jarayonida rivojlanadi. Ularni shakllantirish va zaruriy darajaga erishish birinchi navbatda, qo'llanilayotgan o'quv-uslubiy vositalarning psixologik, pedagogik, didaktik va tashkiliy talablar bilan muvofiq.

Oliy ta'lim muassasalarida o'quvchilarni ta'lim jarayonida kutilayotgan natijalar umummadaniy, umumkasbiy va kasbiy kompetensiyalar orqali belgilangan asosiy ta'lim dasturlariga mos ravishda shakllantiriladi. Davlat ta'lim standartlarida kelajakdagi o'qituvchining kompetensiyasi aniqlanadi va bu o'qituvchining kasbiy kompetentligini ta'minlaydigan asosiy unsurlardan biridir. Hozirgi kunda bu masala qay darajada o'rganilganligi nisbatan kam e'tiborga olinmoqda. Shunday masalalardan biri bolalarning texnologik ta'lim o'qituvchilarida kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishga kompetentli yondoshuvni aniqlashdir. Bu jarayon Davlat ta'lim standartlaridagi asosiy qoidalarga muvofiq tuzilma modelini ishlab chiqishni talab etadi.

Bolalar o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini aniqlash uchun, ushbu terminni o'rganishga qaratilgan ba'zi tadqiqotlarga e'tibor beriladi. Kasbiy kompetensiya o'qituvchining xususiyatlari orqali tadqiqotlarda ko'tarilgan pedagogik muammodir.

V.I. Baydenko "Kasbiy kompetentlik" tushunchasini quyidagicha ta'riflaydi: bu, mutaxassislik sohasida samarali faoliyat yuritish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka va qobiliyatlarni o'z ichiga oladi. Shuningdek, muammolarni hal qilishda avtonomlik va moslashuvchanlikni, kasbiy shaxslararo muhitda hamkasblar

bilan samarali hamkorlikni rivojlantirishni hamda sifatini baholash va taqdim etilishi kerak bo'lgan bilimlar bo'yicha standartlarni loyihalash; ish beruvchilarning talablariga javob beradigan qobiliyatlarni samarali qo'llash; hozirgi zamon mehnat muhitida muvaffaqiyatli faoliyat uchun zarur bo'lgan bilim, xususiyat va ko'nikmalarning birlashuvi.

Mukammal ta'rif orqali, V.I. Baydenko kasbiy kompetentlikni faoliyat talablariga muvofiq harakat qilishga, muammolarni mustaqil hal etishga va o'z faoliyat natijalarini, ya'ni ko'nikmalar va amaliy usullarni baholay olish qobiliyatiga tayyor bo'lish sifatida tushunadi.

O.V. Xovovning fikricha, kasbiy kompetentlik nafaqat malaka, ya'ni faoliyat tajribasi, ko'nikma va bilimlar bilan bog'liq bo'lib, balki ijtimoiy-kommunikativ va individual qobiliyatlarni mustaqil kasbiy faoliyatni amalga oshirishda ta'minlaydigan tasavvurlarni ham o'z ichiga oladi. Yu.G. Tatur va V.Ye. Medvedevlar esa, kelajakdagi mutaxassisning kompetentligini kasbiy va ijtimoiy sohalarida muvaffaqiyatli ijodiy faoliyat yuritish uchun o'z imkoniyatlarini (bilim, ko'nikma, tajriba, shaxsiy sifatlar va boshqalar) amaliyotda qo'llashga intilish va qobiliyat sifatida belgilashadi. Ularning ta'kidlashicha, kompetensiya — bu mutaxassisning ma'lum bir sohada muvaffaqiyatli faoliyat yurita olish uchun o'z imkoniyatlarini (bilim, malaka, tajriba va shaxsiy sifatlar) ishlatishga tayyorligini va bu natijaga mas'uliyatni anglashni o'z ichiga oladi.

G.A. Larionovaga ko'ra, "tayyorgarlik tuzilmasi amaliy bilimlar to'plamini va shaxsning faoliyatga kirish imkoniyatlarini ta'minlaydigan xususiyatlarni o'z ichiga oladi. Mehnatga tayyorgarlik esa ikki asosiy komponentdan — operatsional (bilim va ko'nikmalar) va shaxsiy (mehnatga yo'naltirilish, kasbiy motiv, odat, munosabatlar, emotsional va irodaviy funksiyalar, shaxsning kasbiy sifatleri) — iborat murakkab tizim sifatida talqin etilishi mumkin."

Mutaxassisning kompetensiya darajasini aniqlash, ya'ni uning qaysi faoliyat usullarini o'zlashtirganini, nima bajarishi va nimalarga tayyorligini belgilash kompetentli yondashuv deb ataladi. Oliy ta'lim muassasalarida bitiruvchilarni tayyorlash sifatini boshqarishning asosiy usullaridan biri — kasbiy ta'lim

mazmunini modernizatsiya qilish jarayonida kompetentli yondashuvni amalga oshirishdir.

Bo'lajak o'qituvchilarning metodik kompetentligiga oid masala bir qator tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlarida turlicha yondashuvlar va fikrlar bilan yoritilgan. Hususan, O.V. Tumashevaning ta'kidlashicha, "o'qituvchining metodik kompetentsiyasi shaxsning integral xususiyati bo'lib, u metodik bilim va ko'nikmalarni egallash, kasbiy faoliyat va jamiyatdagi o'zaro munosabatlar uchun ularning ahamiyatini anglash, uslubiy muammolarni hal qilish tajribasiga ega bo'lish, shuningdek, o'z-o'zini tarbiyalash va o'zini takomillashtirishga tayyorlik va qobiliyatni o'z ichiga oladi" [88].

T.Gushchina metodik kompetentlikni o'qituvchining shaxsiyati va faoliyatining ko'p darajali professional ahamiyati sifatida, shuningdek, ishlab chiqarish tajribasini umumlashtirish orqali o'qituvchining metodologiya sohasidagi bilim, ko'nikma va malakalarini tizimli ravishda egallash va pedagogik faoliyat metodlarining maqbul kombinatsiyasi sifatida ta'riflaydi.

I.Kovaleva metodik kompetentlikni o'qituvchining ishbilarmonlik, shaxsiy va axloqiy fazilatlarining birlashishi deb hisoblaydi. Bu, o'z navbatida, metodik, uslubiy va tadqiqot bilimlari, ko'nikmalari, tajribasi, motivatsiyasi va qobiliyatini, shuningdek, ilmiy, uslubiy va pedagogik faoliyatda ijodiy o'zini namoyon etishga tayyorlik darajasini aks ettiradi. O'qituvchining metodik kompetentsiyasini rivojlantirishning muhim yo'nalishlaridan biri uning metodik fikrlash va metodik madaniyatini rivojlantirishdir. L.V.Shkerina tomonidan taklif etilgan kasbiy-pedagogik kompetensiya tuzilmasiga asoslanib, o'qituvchining metodik kompetentsiyasi uchta asosiy tarkibiy qismga bo'linadi: kognitiv, faollik va ijtimoiy-shaxsiy.

Kognitiv tarkibiy qism o'qituvchining metodik bilimlar tizimiga egaligini va bu bilimlarning professional faoliyat uchun muhimligini anglashni o'z ichiga oladi. Faollik tarkibiy qismi esa metodik faoliyatning asosiy turlarini amalga oshirish, ularning natijalarini tahlil qilish va baholashni o'z ichiga oladi, shuningdek, kutilayotgan natijalarga muvofiq o'zgarishlar qilish imkoniyatini ko'zda tutadi.

Ijtimoiy-shaxsiy kompetentsiya esa uslubiy faoliyatda jamiyat bilan samarali aloqalar o'rnatish uchun zarur bo'lgan shaxsiy fazilatlarni o'z ichiga oladi.

Tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlari metodik kompetentlikning bir necha vazifalarini ajratmoqda: akmeologik, innovatsion, bashoratlash, integral, rag'batlantiruvchi, boshqaruvchi va refleksiv. Akmeologik vazifa o'qituvchining kasbiy va shaxsiy kamolotini rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, o'qituvchining uslubiy kompetentsiyasini uning o'zini-o'zi rivojlantirish jarayoni sifatida ko'rish mumkin.

Innovatsion vazifa esa o'qituvchining yuqori darajadagi uslubiy malakasini shakllantirishda eskicha stereotiplarni yo'q qilish va o'quvchilarning ta'lim jarayoniga chuqur kirishga imkon beradigan ko'nikmalarni rivojlantirish bilan bog'liq. Zamonaviy ta'lim sharoitida o'qituvchining innovatsion texnologiyalarni bilishi va ularni ta'lim jarayonida qanday qo'llashni tushunishi juda muhimdir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, maktab tizimida innovatsion texnologiyalar, ayniqsa, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarda bilim olish uchun qo'shimcha motivatsiya tug'dirmoqda.

Bashoratlash vazifasi o'qituvchining kelajakdagi muammolarni oldindan anglebilishi va hal etish strategiyalarini ishlab chiqish imkoniyatini rivojlantirishga qaratilgan. Integral vazifasi esa pedagogik, psixologik va metodik bilimlar o'rtaidagi bog'liqlikni ta'minlaydi. Rag'batlantiruvchi vazifa o'qituvchining ishga bo'lgan motivatsiyasini kuchaytirish va samarali uslubiy faoliyatini amalga oshirishda ijobiy munosabatlar o'rnatishga xizmat qiladi.

Boshqaruv vazifasi o'qituvchining ta'lim jarayonidagi faoliyatini rejalashtirish, tashkil etish va boshqarishda, shuningdek, o'quvchilarning predmetli bilimlarni o'rganishi va har bir o'quvchining rivojlanishini boshqarishda muhim rol o'ynaydi. Mening tadqiqotim "Bo'lajak o'qituvchilarni metodik kompetentligini takomillashtirish" metodikasini ishlab chiqishga bag'ishlangan bo'lib, bu masalani b'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarining metodik kompetentligini takomillashtirish uchun zarur bo'lgan metodik ta'minot bir nechta asosiy komponentlardan iborat bo'lib, ular o'qituvchilarning o'quv jarayonini samarali

tashkil etish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirish, va ularni amaliyotga tatbiq etish imkoniyatlarini kengaytiradi. Bu komponentlar quyidagilardan iborat:

1. O'quv dasturlarini yangilash va boyitish:

- O'quv dasturlarini yangilash va boyitish jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish muhim ahamiyatga ega. Bunga interaktiv o'qitish usullari, muammoli yondashuv va loyiha asosida o'qitishni qo'shish kabi zamonaviy metodlarni dasturlarga kiritish kiradi. Bu yondashuvlar o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlaydi va ularning analitik fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi.

- Integratsiya: Fanlararo bog'liqlikni ta'minlash orqali texnologik ta'limni boshqa fanlar bilan uyg'unlashtirish.

2. O'quv-metodik materiallar tayyorlash va tarqatish:

- Darsliklar va qo'llanmalar: Yangi metodik yondashuvlarni aks ettiruvchi darsliklar, qo'llanmalar va o'quv materiallarini ishlab chiqish.

- Raqamli resurslar: Video darslar, interaktiv simulyatsiyalar va boshqa raqamli materiallarni yaratish va ulardan foydalanish.

3. Malaka oshirish kurslari va seminarlar:

- O'qitish mashg'ulotlar: O'qituvchilarni zamonaviy pedagogik texnologiyalar va usullar bilan tanishtirish uchun muntazam treninglar o'tkazish.

- Seminar va vebinarlar: Tajribali mutaxassislar ishtirokida seminar va vebinarlar tashkil etish.

4. Amaliy mashg'ulotlar va stajirovkalar:

- Maktabda amaliyot: Bo'lajak o'qituvchilarni maktablarda amaliyot o'tashiga yo'naltirish, ularni real o'qitish jarayoniga jalb etish.

- Laboratoriya mashg'ulotlari: Zamonaviy uskunalar va texnologiyalar bilan jihozlangan laboratoriyalarda mashg'ulotlar o'tkazish.

5. Mentorlik dasturlari:

- Tajriba almashish: Tajribali o'qituvchilar bilan hamkorlikda ishlash, ularning tajribalarini o'rganishdan iborat.

- Individual yondashuv: Har bir bo'lajak o'qituvchiga individual ravishda ko'mak berish, ularning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash va rivojlantirish.

6. Axborot-kommunikatsion texnologiyalar (AKT)dan samarali foydalanish:

- Onlayn platformalar: Ta'lim jarayonida Moodle, Google Classroom kabi platformadan foydalanish.

- Raqamli kompetentlik: O'qituvchilarni raqamli texnologiyalarni samarali qo'llashga o'rgatish.

7. Ilmiy-tadqiqot faoliyati:

- Loyiha ishlari: Bo'lajak o'qituvchilarni ilmiy loyihalarda ishtirok etishiga jalb etish.

- Konferensiyalar: Talabalarni ilmiy konferensiyalar va seminarlar ishtirokchisiga aylantirish.

8. Nazorat va baholash:

- Refleksiya: O'qituvchilarni o'z faoliyatini tahlil qilish va baholashga o'rgatish.

- Feedback mexanizmlari: Talabalar va hamkasblardan muntazam ravishda fikr-mulohazalar olish tizimini joriy etish.

Yuqoridagi komponentlar kompleks ravishda amalga oshirilsa, bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarining metodik kompetentligini samarali takomillashtirish mumkin. Bu nafaqat ularning professional o'sishiga, balki umuman ta'lim sifatining oshishiga ham xizmat qiladi.

Bo'lajak o'qituvchilarning metodik kompetentligini rivojlantirish ularning faoliyatida sodir bo'ladigan o'zgarishlar, motivlar va maqsadlar bilan chambarchas bog'liqdir. Bu jarayon yangi vositalar va usullardan foydalanish, shuningdek, metodlar va faoliyat dasturlari orqali amalga oshiriladi. Turli pedagogik o'zgarishlar natijasida o'qituvchining metodik qobiliyatlari shakllanadi. Pedagogik mahoratga ega bo'lgan o'qituvchi tarbiyadagi qiyinchiliklarni yengishga qodir bo'lib, o'sib kelayotgan yosh avlodning o'ziga xos xususiyatlarini tushunishi va ularning tuyg'ularini his qilishi zarur. U ichki dunyosi nozik va zaif bo'lgan bolalarning hayotidagi turli qiyinchiliklarni ko'ra olishi va ularga mohirlik bilan yondasha

bilishi, ilmiy fikrga ega bo'lishi, shuningdek, bilimlilik va ijodkorlikni o'zida mujassam etishi kerak. Ilmiy manbalarni o'rganish va tahlil qilish asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin: O'qituvchilarning pedagogik faoliyatida yuzaga keladigan metodik muammolarni aniqlash va hal qilish qobiliyati metodik kompetentlik, kasbiy kompetensiyaning asosiy tarkibiy qismidir. O'qituvchining metodik kompetentligi o'zaro bog'liq tarkibiy qismlardan iborat bo'lib, ular o'qituvchining butun faoliyati davomida o'z mahoratini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilari metodik kompetentlikning ma'lum vazifalarini o'rganish va amaliy tajribalarida qo'llash orqali o'z uslubiy bilimlarini rivojlantira oladilar.

Birinchi bob bo'yicha xulosa

Bo'lajak o'qituvchilarning metodik kompetentligini yaxlit yondashuv nuqtai nazaridan o'rganish, ushbu shaxsiy sifatni talabalarning texnologik ta'lim jarayonini tashkil etish va boshqarish qobiliyati sifatida baholash imkonini beradi. Bu yondashuv, o'qituvchilarni zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy tizimga jalb qilish uchun shaxsiy rivojlanishga hissa qo'shadigan vaziyatlarni samarali tashkil etish va hal qilish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan.

Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi tizimidagi metodik kompetentlik bir qator funksiyalarni bajaradi. Tizimni shakllantiruvchi motivatsion-mobilizatsiya funksiyasi, motivlar, maqsadlar, kasbiy tayyorgarlik, rejalashtirish, o'z-o'zini tarbiyalash, o'z-o'zini rivojlantirish va kasbiy faoliyat davomida qadriyatlarga asoslangan munosabatlarni o'z ichiga oluvchi motivatsion komponentning mazmunini belgilaydi. Bu funksiyaning natijasida shaxsning kasbiy va metodik faoliyatida ijodiy salohiyatini rag'batlantirishga yordam berilmoqda, shuningdek, kasbiy faoliyatning mavjudligi ta'minlanadi. Maqsadni shakllantirish funksiyasi bo'lajak o'qituvchilarning metodik kompetentlikni tarkibida kognitiv komponent mavjudligini taxmin qilishga imkoniyat yaratadi. Kognitiv komponent ushbu funksiyani amalga oshiradi va muvaffaqiyatli pedagogik faoliyati uchun zarur bo'lgan bilimlar to'plami orqali ifodalanadi, bu bo'lajak o'qituvchining ta'lim va

o'z-o'zini tarbiyalash faoliyatining natijasidir; kognitiv komponentning rivojlanish darajasi bilim miqdori, shaxsning fikrlash uslubi bilan tavsiflanadi.

ommunikativ komponent ta'lim o'qituvchilarning metodik kompetentligining axborot-kommunikatsiya funksiyasini amalga oshirishga yordam beradi. Bu ta'lim oluvchilarning kelajak rejalarini aniqlash, ularning bo'lajak kasbiy va mehnat faoliyatining ahamiyatini anglash, shuningdek, mehnatning inson hayotidagi rolini tushunish jarayonlarini o'z ichiga oladi. O'quvchilar o'z-o'zini anglashning ahamiyatini, zamonaviy jamiyatda talabga mos faoliyat yuritish uchun texnologiyalardan foydalanish zarurligini, muvaffaqiyat, mas'uliyat, mustaqillik va ixtiyoriy nazoratga bo'lgan ehtiyojni rivojlantiradi. Bunga qo'shimcha, ta'lim materialini o'quvchilarning faoliyatiga "O'tkazish" qobiliyati, sinfdagi muvaffaqiyat va yutuqlarni saqlab qolish, hamda har bir o'quvchining o'ziga bo'lgan ishonchini mustahkamlash ko'nikmalari mavjud.

Integrativ funksiyani amalga oshiradigan refleksiv komponent o'z-o'zini baholash darajasini belgilaydi, jamoadagi o'z mavqeini anglash, o'z-o'zini baholash va introspeksiya (o'z-o'zini tahlil qilish), o'z faoliyati natijalari uchun javobgarlik, kasbiy faoliyatda o'z-o'zini bilish va o'z-o'zini anglash; bu faoliyat natijalarini va o'z rivojlanish darajasini ongli ravishda nazorat qilish qobiliyatida namoyon bo'ladi, ta'lim o'qituvchisi uchun tashabbuskorlik, ijodkorlik, improvizasiya qobiliyati, bashorat qilish kabi muhim fazilatlarni rivojlantirishga yordam beradi, o'quv materialining mazmunini hayotiy va ahamiyatli mahsulotga aylantirish, proyeksion qobiliyatlari, o'z-o'zini kuzatish va o'z-o'zini anglashga moyillik.

Bo'lajak o'qituvchilarning metodik kompetentligi funksional va tarkibiy qismlarining mazmunini tahlil qilish loiy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan ta'lim oluvchilar o'rtasida uning shakllanish mezonlari va darajalarini asoslashga imkon berdi.

Metodik kompetentlikni takomillashganlik darajasini baholashning asosiy mezonlari quyidagilar: kasbiy texnologik va pedagogik faoliyatga ma'suliyatli munosabati (motivasion komponenti), politexnik, ilmiy, psixologik-pedagogik intellekt (operation-faoliyat komponenti), psixologik, pedagogik, texnologik va

ilmiy fikrlash madaniyatini bilish (refleksiv komponent), texnologik, iqtisodiy, psixologik va pedagogik blok (kognitiv komponent) bo'yicha bilimlarni qo'llash, ta'lim makonidagi dialogiklik (kommunikativ komponent).

Bo'lajak o'qituvchilarning metodik kompetentligini takomillashtirish to'rt darajaga egadir: kasbiy faoliyatda shakllanmagan ko'nikmalar, fanlar bo'yicha tuzilmagan bilimlar, bilish uchun motivasiya yo'qligi bilan ajralib turadigan past daraja, psixologik, pedagogik va texnologik bloklardagi o'rta tizimsiz bilimlar, uslubga oid bilimlarni qo'llashda o'z-o'zidan paydo bo'lish, bilishga tayyorlikning namoyon bo'lishi, ularning kasbiy kelajagini loyihalashda yetarli darajadagi mustaqillik, ta'lim oluvchilar bilan o'zaro ta'sir usullarini maqsadli qo'llash, o'z-o'zini tarbiyalash yo'llarini izlashga yo'naltirilgan – o'rta daraja; eng yuqori daraja - bu o'z-o'zini anglashning yuqori darajasi, ijodiy izlanish, o'z modeli asosida kasbiy faoliyatni qurish, o'z harakatlarini ilmiy asoslash.

Bir darajadan ikkinchisiga o'tish bo'lajak o'qituvchilarning metodik kompetentligi takomillashtirilgan sanaladi.

II BOB. BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING METODIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI.

2.1-§. Bo‘lajak o‘qituvchilarning metodik kompetentligini takomillashtirish jarayonining didaktik shart-sharoitlari

Ta'lim jarayoni natijasi bevosita turli shart-sharoitlarga bog'liq holatda, aniq bir maqsad sari ko'zlangan har bir qadam ta'lim taraqqiyotini tezlashtirishi yoki sekinlashtirishi shu bilan bir qatorda uni amalga oshirish uchun turli imkoniyatlar eshigini ochib berishi mumkin. Ushbu shart-sharoitlar ham o'z navbatida ta'lim faoliyatining xususiyatlarini o'zgartirib, jarayonning davomiyligi va samaradorligiga ta'sir qiluvchi hodisalar doirasini belgilaydi. Shuning uchun bo'lajak pedagoglar nafaqat o'zlari haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lishlari, balki transformasion (o'zgaruvchan) faoliyatga tayyorlikni ta'minlaydigan sharoitlarni yarata olishlari ham muhim ahamiyatni belgilaydi. Bunda pedagogik shart-sharoitlar batafsil ko'rib chiqilgan bo'lib, kasbiy kompetensiyalarning semantik tarkibiy qismlari asoslab berilgan hamda kasbiy tayyorgarlikka asoslangan fan tahlili ham amalga oshirilib, tashxis qo'yish bosqichlari hamda usullari ko'rsatib o'tiladi.

Iqtisodiy, siyosiy, madaniy munosabatlarning globallasuvi, hayotning barcha sohalarini har tomonlama axborotlashtirish, oliy ta'limda o'qitishning turli xil pedagogik texnologiyalar orqali amalga oshirilishi va boshqa omillar bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy vakolatlari ahamiyatini bir muncha pasaytiradi. Bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarini kasbga tayyorlashning asosiy yo'nalishlaridan biri ularning metodik kompetentligini rivojlantirishdir. Buning sababi, birinchi navbatda, zamonaviy maktablarga o'qitish texnologiyalariga ega bo'lgan o'qituvchilarning zarurligidir. Ikkinchi tomondan, oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan talabalar innovatsion va interfaol usullar hamda zamonaviy texnologiyalarni amalda qo'llash bo'yicha yetarli bilim, ko'nikma va malakalarga ega emasliklari muammosi mavjud.

O'qituvchining metodik kompetentligi – bu o'qitish texnologiyasi, o'qitishning innovasion usullari va metodlarini universitet amaliyotida qo'llab

borish tajribasi bilan bog'liq bo'lib, psixologik, pedagogik va uslubiy bilimlar, ko'nikmalar va qobiliyatlar to'plami hisoblanadi [62].

Bo'lajak o'qituvchilarning metodik kompetentligi talab darajasida emasligining sabablari orasida kasbiy kompetentlikni takomillashtirish texnologiyasining o'zini hamda ushbu kompetentlikni tarkibiy qismlarini shakllantirish tizimining yo'qligini ta'kidlash joizdir.

Ko'plab tadqiqotchilar pedagogik sharoitlarni o'quv jarayoniga hamohang bo'ladigan ob'yektiv imkoniyatlar, holatlar va tadbirlar majmui sifatida tushunadilar. Xususan V.I.Andreyev didaktik shart-sharoitlarni "O'quv jarayonining mazmuni sifatida tarkibiy element, usul (metod), shuningdek, aniq bir maqsadga erishish yo'lida o'qitishning tashkiliy shakllarini maqsadli tanlash, loyihalash va ulardan foydalanishning natijasi bo'luvchi holatlar" deb ta'riflaydi [58].

Aniq bir nazariyaga asoslangan tadqiqotlar "Oliy ta'lim muassasalarida o'qish davomida bo'lajak texnologik ta'limni ko'rsatadi", o'qituvchilarning metodik kompetentligini takomillashtirish jarayonini samaradorligini quyidagi pedagogik sharoitlarni yaratish orqali sezilarli darajada oshirishlari mumkin:

- ta'lim oluvchilar o'rtasida metodik kompetentlikni takomillashtirish jarayonining har uch yo'nalishi o'rtasidagi (nazariy, amaliy va shaxsiy) o'zaro bog'liqligini ta'minlash;
- metodik yo'nalishi mazmuni va texnika fanlari o'qitish metodikasi doirasida ko'rgazmali qurollar tayyorlashni amalga oshirish;
- oliy ta'lim muassasalarida ta'lim berishning barcha bosqichlarida bo'lajak o'qituvchilarning metodik kompetentligini takomillashtirish monitoringini tashkil qilish;
- mustaqil ishlaridan – kasbiy ko'nikmalarni takomillashtirish samaradorligini oshirishning asosiy vositasi sifatida foydalanish.

Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim oluvchisining metodik faoliyati qanchalik muvaffaqiyatli bo'lsa, uning hozirgi kundagi mehnat bozorida raqobatbardoshligi ham shunchalik yuqori bo'ladi. Bu shuni anglatadiki, ta'lim oluvchi ayni paytdagi intellektual mehnat bozorida raqobatbardosh bo'lishi mumkin bo'lgan fazilatlarni

o'zlashtirgan bo'lishi lozim. Buni amalga oshirish uchun ta'lim oluvchi metodik faoliyati jarayonida mutaxassislik fanlari bo'yicha olgan barcha bilimlari tizimidan foydalanish lozim. Oliy ta'lim muassasalari o'quv jarayonida ta'lim oluvchi uchun eng muhim hisoblangan ta'limning yakuniy bosqichi bu barcha olingan bilimlarni tizimlashtirishi kerak bo'ladi [63].

Bo'lajak o'qituvchi sifatida ta'lim oluvchining metodik kompetentligini asosi, tadqiqotchilarimiz fikriga ko'ra: faoliyat, aloqa va o'zini takomillashtira olish qobiliyatidan iborat. Keling, metodik faoliyatning tarkibiy qismlariga e'tiborimizni qaratamiz, ya'ni: bilim, mahorat, ko'nikma, kasbiy pozitsiya, individual psixologik xususiyatlar, o'z-o'zini rivojlantirish va o'zini takomillashtirish motivasiyalari.

Zamonaviy ilmiy-pedagogik adabiyotlarda asosan quyidagi jihatlarga katta e'tibor qaratiladi: pedagogik texnologiya yordamida kasbiy tayyorgarlik samaradorligini oshirish hamda metodik kompetentlikni takomillashtirish maqsadida o'qitish texnologiyalaridan unumli foydalanish.

Interfaol va modulli ta'limda, kasb-hunar ta'limi sharoitida axborot texnologiyalaridan, ta'lim oluvchilarning metodik salohiyatini takomillashtirish uchun turli usullardan samarali foydalanish bo'yicha uslubiy tavsiyalarni muntazam foydalanish taklif etiladi.

Ammo hozirgi kundagi bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilari "odam-texnika" va "odam-odam" sohasidagi o'qitish va faoliyatning o'ziga xos xususiyatlari bilan bevosita bog'liq bo'lgan texnologiya haqida yetarli ma'lumotlarga ega emaslar.

Fanni o'qitish jarayonida bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarining metodik kompetentligini takomillashtirish texnologiyasini shartli ravishda bir necha asosiy bosqichlarga: axborot-nazariy, amaliy, kasbiy-amaliy va izlanuvchilarga bo'lish mumkin.

Bo'lajak o'qituvchilarning metodik kompetentligini bosqichma-bosqich takomillashtirish auditoriyaga va mustaqil ishlarga kompleks yondashuvni ta'minlaydi.

Ta'lim oluvchilarning metodik kompetentligini takomillashtirish samaradorligi o'qish motivasiyasiga, ta'lim oluvchilarning shaxsiy faolligiga, nazariy tayyorgarlik darajasiga, o'qitish texnologiyasining maqsadi, mazmuni, shakl va usullarining birlashishiga bog'liq.

Har bir birinchi bosqich ta'lim oluvchisi shaxsiy uslubiga, o'rganish tezligiga ega bo'lishi bu esa o'z navbatida pedagogdan ta'lim oluvchilarning ta'lim olish jarayoniga moslashish davrida, ularning o'quv va bilim faoliyatida ham o'rganish, ham tanlagan kasbga yo'naltirish motivasiyasini takomillashtirish ko'nikmalarini oshirishi zarur bo'ladi. Ta'lim oluvchilar texnika fanlarni o'qitish metodikasining nazariy asoslarini asta-sekin o'zlashtiradilar hamda faoliyatlari jarayonida didaktik texnologiyalar majmuini qo'llashni o'ziga xos xususiyatlari bilan tanishadilar.

Bo'lajak o'qituvchilarning metodik kompetentligini takomillashtirishda amaliy bosqich alohida ahamiyatga ega. Amaliy hamda seminar mashg'ulotlarida ta'lim oluvchilar individual nazariy bilimlarini umumlashtiradilar, uslubiy ko'nikmalarini o'zaro almashadilar, darslarni o'tish usullari va texnologiyasini tanlashni o'rganadi. Shuningdek, ular o'quv vaziyatlariga asoslangan modellarni yaratish orqali, o'tkazilgan nazariy va ishlab chiqarish mashg'ulotlarini tahlil qilishni o'rganishga etishadi.

Ta'lim oluvchilarning tanlagan kasblariga kirib borishlari pedagogik amaliyot davomida to'liq amalga oshiriladi. Shuning uchun metodik bosqich ularning kasbiy tayyorgarligining asosiy bo'g'ini hisoblanib, ular auditoriyada o'rganilgan o'qitish texnologiyalarini tabiiy sharoitlarda foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Ta'lim oluvchilarning subyektiv kasbiy mahorati ob'yektiv pedagogik reallik bilan birlashadi. Bunday holda, ta'lim oluvchining bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchisi sifatidagi metodik kompetentligi o'zini o'zi identifikasiyalashning (aniqlash) yuqori darajasi bilan o'zaro bog'liq bo'ladi.

O'qitish sohasidagi ta'lim oluvchilarning pedagogik amaliyoti oliy ta'lim muassasalaridagi o'quv jarayonining ajralmas tarkibiy qismi bo'lib, bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchining kasbiy kompetentligi va qobiliyatlarini shakllantirishga qaratilgan. Pedagogik amaliyot jarayonida ta'lim oluvchilar

psixologiya, pedagogika va kasbiy tayyorgarlik usullari bo'yicha nazariy bilimlarini mustahkamlaydilar, chuqurlashtiradilar, shuningdek, ushbu mashg'ulotlarning pedagogik faoliyat bilan bevosita aloqadorligi mavjud bo'lib, u yerda ta'lim oluvchilar dasturda belgilangan pedagogik vazifalarni mustaqil ravishda hal qilish orqali kasbiy faoliyatga mustaqil tayyorlanib boradi. Amaliyotning mazmuni uning o'quv jarayonidagi o'rniga qarab belgilanadi va quyidagi maqsadlarni ifoda etadi:

- nazariy bilimlarni mutaxassislik fanlari yuzasidan mustahkamlash va amalda qo'llash;
- metodik kompetentlikni egallash va takomillashtirish, texnika fanlari o'qituvchilarining ilg'or pedagogik tajribalari bilan tanishtirish;
- maktab jamoasi bilan tashkiliy-tarbiyaviy ishlarda tajriba orttirib borish.

Barcha talablar esa asosiy o'quv-uslubiy amaliyot hujjati hisoblangan – ishchi dasturida aks ettirilgan. Dasturning asosiy mazmuni amaldagi qonun-hujjatlarga, Prezident Farmonlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Kengashi qarorlariga, shuningdek, ta'lim oluvchilarning mutaxassislik o'quv amaliyoti bilan bog'liq bo'lib, “bakalavr” darajasidagi har bir bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchisi uchun ta'lim va malaka talablariga to'liq mos keladi.

Ta'lim oluvchilarni ishlab chiqarish amaliyotining asosiy maqsadi ta'lim va tarbiya jarayonini tashkil etishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirishdir. Bu jarayon bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchisining o'quv faoliyati uchun zarur bo'lgan kasbiy ko'nikma va malakalarni shakllantirishni ta'minlaydi. Amaliyotchi ta'lim oluvchilar ham o'qituvchi, ham guruh rahbari vazifasini bajarib qolmasdan, xususan dars o'tish mobaynida amaliy ko'nikmalarni egallaydilar, o'quvchilar ustidan pedagogik kuzatuvlarni tashkillash davomida, amaliyot kundaligini ham to'ldirib boradilar. Ta'lim oluvchining shaxsiy ish rejasida barcha kasbiy va pedagogik vazifalarni rejalashtirish nazarda tutilishi kerak.

Mutaxassislarni tayyorlash o'quv rejalari ularning malaka tayyorgarligini zamonaviy darajasini ta'minlovchi dasturga muvofiq amalga oshiriladi. Ushbu dasturlar O'zbekistonda demokratik davlatni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari

sharoitida ta'lim va tarbiya vazifalarini ijodiy, professional ravishda hal qila oladigan shaxsni shakllantirishga qaratilgan.

Ta'lim oluvchilarning bilish faoliyatini malakali boshqarish uchun texnologik ta'lim o'qituvchisi pedagogika, psixologiya va ixtisoslik fanlarini o'qitish metodlari hamda ishlab chiqarish ta'limi bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lishlari kerak.

Mutaxassislar o'rtasida ilmiy-tadqiqot ko'nikmalarini rivojlantirish, texnik, maxsus, psixologik-pedagogik fanlar bo'yicha bilimlarni umumlashtirish, tizimlashtirish, chuqurlashtirish maqsadida, shuningdek texnologik fanlarni o'qitish metodikasi bo'yicha o'quv dasturida "mutaxassis" o'quv malaka darajasidagi har bir bitiruvchi tomonidan amalga oshiriladi, bitiruv malakaviy ishini yozish, himoya qilish maqsadida, texnik fanlarni o'qitish usullarini takomillashtirish va ishlab chiqarishni o'rgatish bilan bog'liq tezislar tayyorlash lozim bo'ladi. Shu bilan bir qatorda, ta'lim oluvchi pedagogik loyihalashning vazifalarini mustaqil ravishda hal qila olish qobiliyatini namoyon qilishi kerak.

Bitiruv malakaviy ishining mazmuni va shakli esa, bilimlarni tizimlashtirish darajasi, o'quv jarayonining umumiy shakllari, metodik holati, muammolari, muvaffaqiyatlari, texnika fanlarni o'qitish usullari to'g'risida xulosa qilishga asos bo'ladi. Ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar diqqatlarini asosan quyidagi metodik faoliyatga qaratadilar:

- ta'lim haqidagi umumiy g'oyalar shu jumladan ularning ishlash shartlari asosida tizimli tahlil qila olish shartlaridan foydalangan holda, ta'lim tizimlarining xususiyatlarini aniqlash;
- turli xil boshqaruv modellaridan foydalangan holda, ijtimoiy tizimni boshqarishning umumiy nazariyasiga asoslanib, ta'limning maqsadi, o'quv jarayonini loyihalashning o'ziga xos xususiyatlari haqidagi bilimlariga tayanib, ularning umumiy maqsadlariga qarab ijtimoiy, shu jumladan pedagogik maktab, jamoalar faoliyatini boshqarish xususiyatlari uslubini tanlash va aniqlay olish imkoniyatiga egaligi;

- shaxsiy, guruh va jamoaviy faoliyatni tashkil etish nazariyasini bilish asosida mashg'ulotlar davomidagi o'zaro vertikal va gorizontaal munosabatlarni tashkil qila olish;

- o'quv jarayonini faollashtirish, undagi sub'yektlarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish usullaridan foydalanish, ijodiy, o'quv hamda pedagogik faoliyatni rag'batlantirishning tashkiliy shaklini to'g'ri olish va ulardan foydalanish;

- boshqaruvning turli xil shakllari haqidagi bilimlarga asoslanib, faoliyat maqsadiga erishishni ta'minlovchi turli uslub va vositalarni tanlash hamda ulardan foydalana olish;

- turli xil muloqot shakllari metodologiyasini bilish asosida boshqaruv maqsadiga erishishga hissa qo'shadigan maktab o'quvchilari va o'qituvchilar o'rtasida o'zaro aloqa jarayonlarini o'rnatish;

- o'quvchilarning tarbiyaviy ishlarini tashkil etishi va olib bora olishi;

- o'quv va metodik faoliyatni boshqarish texnologiyasini tanlash hamda amalga oshirish;

- boshqarish natijalarini bashorat qilish, tahlil qilish va uni tuzatishni amalga oshirish.

Yuqoridagilarga asoslanib, shuni ta'kidlash mumkinki, ta'lim oluvchilarning metodik kompetentligining dolzarb xususiyatlaridan biri ta'lim oluvchilar uchun ilmiy-amaliy konferensiyalarda, ilmiy seminarlarda, ta'limning global muammolariga bag'ishlangan vebinarlarda ilmiy-tadqiqot ishlarini muhokama qila olishi, o'qitishning innovatsion shakllari, usullari va uslublaridan oqilona foydalanishlarini belgilanadi.

Ta'lim oluvchilarning ushbu ish usulida metodik kompetentlikni takomillashtirishning har bir bosqichining doimiy tarkibiy qismi bo'lishi kerak.

Tadqiqotimiz davomida biz bo'lajak o'qituvchilarning metodik tayyorgarligi imkoniyatlarini o'rganib chiqdik va biz amalga oshirgan tadqiqotlarimiz shuni anglatadiki "Texnologik ta'lim praktikumi" fani muhim ahamiyat kasb etibgina qolmasdan, uning asosiy vazifasi hisoblanmish texnologik ta'lim o'qituvchilarining bilim, ko'nikma, malakalarini shakllantirishdan iboratdir ya'ni:

- ta'lim mazmunini shakllantirish maqsadida mutaxassislarning metodik faoliyatini tahlil qilish;
- ta'lim muassasalarida o'quv jarayonining holatini tahlil qilib, tashxislash;
- o'quv materialining mazmunini loyihalash;
- didaktik texnologiyalarni ishlab chiqish;
- maktab o'quvchilari uchun o'quv faoliyatini tashkil etish;
- ilg'or texnologiyalar bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish;
- amaliyot davrida ta'lim oluvchilarda innovatsion texnologiyalardan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish va an'anaviy ta'lim texnologiyalarini o'rganish asosida o'zlarining uslubiy texnologiyalarini ishlab chiqish.

Ta'lim oluvchilarning o'quv va kognitiv faoliyati jarayonida reproduktiv axborot usullarigagina emas, balki ishonchli manba hamda tadqiqotlarga, innovatsion usullarga alohida e'tibor qaratish kerak. Birinchi kurs (bosqich) ta'lim oluvchilariga o'zlari foydalangan kasbiy adabiyotlar faylini saqlash, ilmiy-uslubiy konferensiyalarda faol qatnashish taklif qilinadi.

Shuningdek, ikkinchi kursdan to bitirgunlarigacha shaxsiy portfoliolarini yaratib, o'quv, ilmiy-uslubiy yutuqlarini, nazariy va ishlab chiqarish mashg'ulotlari modelini, ilmiy maqolalarini, tajribalarni aniqlash, shakllantirish natijalarini to'plab borish tavsiya etiladi.

O'qitishning interfaol usullarini sinovdan o'tkazish, texnologik ta'lim o'qituvchisining professional portfelini yaratish va pedagogik amaliyot davomida talabalarning ta'lim texnologiyalaridan foydalanishi, bo'lajak o'qituvchilarning metodik kompetentligini takomillashtirish jarayonining samaradorligini namoyish etadi.

Bo'lajak o'qituvchilarning metodik tayyorgarligi shuni ko'rsatadiki, ta'lim o'qituvchilarni tayyorlashning o'rnatilgan an'anaviy tizimi va ushbu jarayonni tizimli, fanlararo va shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlar asosida insonparvarlashtirish zarurati o'rtasida keskin farq mavjud. Ushbu muammoni hal etish pedagogik ta'lim, ayniqsa, bo'lajak o'qituvchilar uchun dolzarb masaladir. Bu muammo ularning metodik tayyorgarligiga, aniq fanlararo xususiyatlarga,

texnologiya o'qituvchilarining kasbiy faoliyatidagi yuqori darajadagi xavf-xatarlar, jismoniy va psixologik mas'uliyat darajasiga, kasbiy xavfsizlikka va ta'lim oluvchilarning salomatligiga bevosita ta'sir qiladi.

Tadqiqotimizning asosiy maqsadi ta'lim o'qituvchilarning metodik kompetentliklarini ijtimoiy tarkibiy qismini takomillashtirish bosqichlari va tarkibiy qismlarini aniqlashdan iboratdir.

Ma'naviy-axloqiy va mehnat tarbiyasining nazariy - metodologik asoslarini chuqur o'rganishga asoslangan texnologik tayyorgarlikni takomillashtirish, hozirgi kunda oliy ta'limni modernizatsiya qilish sharoitida ob'yektiv zaruratiga aylanadi. Ishlab chiqarish texnologiyalarining rivojlanishi har doim jamiyat holatiga va insonlarning munosabatlariga hamda davlat maqomiga ham ta'sir ko'rsatmay qolmaydi. Biroq, umumjamiyat tomonidan tan olingan, rivojlanishning juda yuqori darajasidagi ushbu maqsadga erishish yo'lidagi qiyinchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan texnologik omil asosiy ahamiyatga ega bo'ladi.

Albatta, asosiy texnologik omillardan biri bu jamiyatning texnologik darajasiga ta'sir qiluvchi asosiy vosita hisoblangan iqtisodiy hamda kasbiy ta'lim omilidir. Demak, davlatning asosiy vazifasi jamiyatni maqsadli ravishda kasbiy va ma'rifiy rivojlantirish strategiyasini amalga oshirish, Ta'lim oluvchilarning tizim orqali ishlashga bo'lgan ehtiyojlarini rivojlantirish va ta'limni modernizatsiya qilish sharoitida, bu jarayon ustuvor vazifaga aylanishi muhimdir..

Hozirgi kunda texnologik ta'lim uchun ajratilgan o'quv soatlarning qisqarishi kuzatilmoqda. Yuqoridagi barcha faktlar mamlakatimizda o'sib kelayotgan yosh avlodning texnologiya faniga nisbatan o'zgacha ko'z bilan qarashi mavjudligini ko'rsatadi degan xulosaga kelishimiz mumkin: masalan, Fransiya va Yaponiyada boshlang'ich maktabga mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun haftasiga besh soat dars beriladi. AQSH dagi boshlang'ich maktablarda esa o'quv fanlarini o'rganish uchun o'qish vaqtining taqsimlanishini tahlil qilib, matematika, qo'l mehnati, musiqa va tasviriy san'at kabi fanlar o'quv dasturida teng pozisiyalarni egallaganini guvohi bo'lishimiz mumkin [64].

Jamiyat hayotida bolalar uchun mehnat tarbiyasining roli qadrsizlanishi kuzatilmoqda. Odatda bu faoliyat asosan ta'lim oluvchilarning jismoniy mehnat ko'nikmalari va malakalarini rivojlantirish bilan bog'liq bo'ladi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarini ushbu fan uchun kerakli o'quv qurollari bilan yetarli darajada ta'minlanmagani kam tarkibli, zamonaviy bo'lmagan mehnat qurollarining ustunligi natijasida bolalarda jismoniy mehnatga nisbatan salbiy munosabatning shakllanishiga olib keldi. Yoshlarda mehnatning samaradorligiga nisbatan qiziqishning yo'qolishi, faqatgina xizmat ko'rsatish sohasida vositachilik bilan shug'ullanayotgan yoshlarning ortib borayotganligi kabi holatlar, umuman olganda mamlakat manfaatlariga hissa qo'shish va uning milliy boyligining oshishiga olib kelmasligi tabiiy hol.

Zamonaviy mehnat bozori sharoitida jamiyatning qadriyatlar tizimida ham tub o'zgarishlar yuz bermoqda. Ommaviy axborot vositalarining tashqi ta'siri ostida ko'pchilikning shaxsiy munosabati sun'iy ravishda biznes sohasiga yo'naltirilganligi: shaxsiy moliyaviy farovonlik, moddiy boyliklarga e'tibor qaratish, ma'naviy va madaniy qadriyatlarning namoyon bo'lishi, o'sib kelayotgan yosh avlod ongidan ilmiy bilimlarning roli, ahamiyati, vakolati, ish madaniyati, iqtisodiyot, ta'lim hamda fanni rivojlantirishga to'sqinlik qilishi mumkin emas. Hozirgi kun yoshlarida to'g'ridan - to'g'ri mehnat faoliyatiga tayyorgarlikning yetishmasligi bu ulardagi faol hayotiy pozitsiyasini tor pragmatik maqsadlar va iloji boricha ko'proq pul topish istaklari bilan almashtirishlariga olib keladi. Natijada yoshlarda dangasalik, nodonlik, ochko'zlik kabi salbiy shaxsiy xususiyatlar rivojlanadi, atrofdagi voqyelikka befarq munosabat paydo bo'ladi, intellektual rivojlanish, ma'naviyat, madaniyat pasayadi va hattoki umumiy dunyoqarashning torayishi kuzatiladi.

Ta'lim o'qituvchilarining umumiy texnologik tayyorgarligining yetarli emasligi hozirgi kunda oliy ta'lim muassasalarida muttasaddi tashkilotlar o'zaro hamkorlikning past darajadaligi, ushbu jarayon uchun mahoratli boshqaruv organining yetishmasligi, o'qitishda fanlararo yondashuvlarga yetarlicha e'tibor bermaslik bilan bog'liq bo'lib, bu o'qituvchilar malakasini oshirish uchun

fanlarining salohiyatini sezilarli borada pasaytiradi. Shuningdek, ta'lim - tarbiya jarayonida o'qituvchilar texnologik ta'limga o'quvchilarni tayyorlash bo'yicha amaliyotga yo'naltirilgan texnologiyalarni joriy etishga alohida e'tibor qaratilmasligi kuzatiladi.

Shu munosabat bilan texnologik ta'lim o'qituvchisiga alohida shaxsiy va kasbiy talablar qo'yiladi [65].

O'qituvchi faqat inson va uning atrofidagi voqea-hodisalar haqida ilmiy va kasbiy bilimlarga ega bo'lishi kifoya emas. U shuningdek, ijtimoiy bilimlarni talab qiladigan muhim ma'lumotlarga, zamonaviy pedagogik va gumanistik kompetensiyalarga ham chuqur ega bo'lishi zarur." Ushbu vazifani nafaqat ijtimoiy fanlar, balki aqliy, axloqiy fazilatlarini shakllantirish, rivojlantirish uchun ixtisoslashtirilgan, texnik-texnologik yo'nalishdagi fanlar ham bajarilishi darkor. Binobarin, bugungi kunda o'qituvchi shaxsi muammosi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Maktab va umuman ta'lim tizimining yangilanishi o'qituvchining qaysi pozitsiyani egallashiga, o'quv jarayoni sub'yektlari uchun qulay psixologik jihatdan xavfsiz sharoitlarni yaratishga, kasbga, ichki holatga hamda shaxsiy ko'rinishga ega bo'lgan munosabatlarga bog'liqdir [66].

Ta'lim oluvchilarning metodik kompetentlikni takomillashtirishning nazariy asoslarini belgilash orqali biz ushbu kompetentliklarni muntazam ravishda ishlab chiqilgan va takomillashtirilgan bosqichlarni bilishga harakat qilamiz. Ta'lim oluvchilarning metodik kompetentliklarini takomillashtirish va shakllantirishning muhim vositasi – bu pedagogik faoliyatni yagona semantik makonining mantiqiy aloqalarini maqsadli qurish va ta'lim oluvchilar tomonidan o'zlashtirilgan kompetentliklar to'plamidan foydalangan holda muammolarni hal qilishga hissa qo'shish orqali fanlararo integrasiyalash vositasi hisoblanadi. Birinchi bosqich – pedagogika kurslarini o'rganish. Ikkinchisi bosqich – ta'lim oluvchi shaxsining kasbiy yo'nalishlarini aniqlash, ya'ni pedagogik tushunchalarni tahlil qilish, ularning asoslaridan pedagogik talqinga o'tishi natijasida yuzaga keladigan o'quv ishlarida ta'lim oluvchilarning falsafiy bilimlarni qo'llashga tayyorligini o'rganadi. Vanihoyat, uchinchi qadam pedagogikaning o'qituvchilarni tayyorlashdagi asosiy

fanlar – psixologiya bilan fanlararo aloqalarni ta'minlashdir. Shuni ta'kidlash kerakki, pedagogika va psixologiyani o'qitishda loyihalash faoliyatini o'qitish texnologiyalaridan keng foydalanish kerak [67].

Xususan, psixologik xavfsiz ta'lim muhitini yaratish zarur. Qulay va psixologik jihatdan xavfsiz sharoitlar yaratish uchun texnologiyalardan foydalanishni biladigan o'qituvchi, o'quvchilarning mehnat tayyorgarligini samarali tashkil qilishga yordam beradi va ularning o'ziga xos texnologiyalari psixologik mahoratni oshirishga xizmat qilishi kerak.

Pedagogik ta'lim jarayonida ta'lim oluvchilarning metodik kompetentsiyalarini takomillashtirish muammosini yuqoridagi yondashuvlarni tahlil qilish orqali, ularning takomillashtirish jarayonida o'zlashtirilishi zarur aqliy fazilatlar, kasbiy fikrlashning o'ziga xos jihatlari to'plami va pedagogikaning konseptual apparati bilan ongli ravishda bog'liq bo'lgan aqliy operatsiyalardan iborat natija sifatida ko'rib chiqishga imkon beradi.

Konseptual pedagogik apparatni o'zlashtirishning yuqori darajasi konsepsiyaning mantiqiy xususiyatlarini rasmiy emas, balki ijodiy darajada tushunishni bildiradi. Ta'lim oluvchi tushunchalar iyerarxiyasida ishonchli harakat qilib, mazmunga yaqin tushunchalarni farqlay oladi; tushunchalarni kontekstda ham, alohida shaklda ham tahlil qila oladi; muhim xususiyatlarni aniqlay oladi va muhim bo'lmaganlarni ajrata oladi; ta'lim amaliyoti tomonidan kiritilgan o'zgarishlarni tushunadi an'anaviy tushunchalar mazmuniga, o'zining pozitsiyasi va tajribasiga qarab, ma'lum bir konsepsiyaning shaxsiy tushunchasini ifoda eta oladi.

Ta'lim oluvchilarning metodik fikrlash yo'nalishini shakllantirishning tarkibiy qismlaridan biri bu pedagogik muammolarni hal qilishning yuqori natijadorligi sanaladi. Psixologik va pedagogik adabiyotlarda vazifalarning ikki turiga ajratiladi: o'qituvchining amaliy faoliyati jarayonida yuzaga keladigan o'quv va kasbiy yoki haqiqiy vazifalar[69]. Pedagogik vazifa pedagogik mahoratni rivojlantirish vositalaridan biri bo'lib, pirovard natijada bo'lajak o'qituvchining metodik kompetentligini oshirish vositalaridan biri hisoblanadi. Agar haqiqiy vazifada o'qituvchi ba'zi bir dastlabki vaziyatni (o'z faoliyatining ob'yektlarini)

o'zgartirishga ahamiyat qaratgan bo'lsa, unda o'quv vazifasini hal qilish orqali ta'lim oluvchi o'z fikrini tahlil qilish, o'z pozitsiyalarini baholashga ko'proq ahamiyat beradi. Real muammoni hal qilish amaliy fikrlash kasbiy faoliyatning ajralmas qismiga aylanadi. Fikrlashning bajarilishdan ajralmasligi tafakkur jarayonini tubdan o'zgartiradi, muayyan sharoitlarda amalga oshiriladigan haqiqiy muammoni hal qilishning maqul vosita va usullarini izlash natijasida paydo bo'ladi. Kasbiy vazifalarning o'ziga xos xususiyatlariga quyidagilar ham kiradi: aloqa sharoitlarining murakkabligi va ularning mazmunan xilma-xilligi, qiyin ko'rinishi, ishonchlilik darajasining pastligi, nomuvofiqlik, o'zgaruvchanlik hamda shartlarning to'liq emasligi.

Shu sababli, o'quv-kasbiy vazifalarni xususiyatlarining bevosita bir-biriga qarama-qarshiligi: bir o'lchovlilik – ko'p o'lchovlilik, statik – dinamiklik, qaytariluvchanlik – qaytarilmaslik va boshqalar, ta'lim vazifalarini loyihalashda hamda ta'lim oluvchilarni ma'lum algoritmlar yordamida muammolarni hal qilishga o'rgatishda ushbu vazifalarni e'tibordan chetda qoldirib bo'lmaydi. Shu bilan birga, ushbu vazifani ma'lum sharoitlarda qo'yilgan maqsad sifatida tushunib ta'lim oluvchi tomonidan to'g'ri qabul qilinishi va jamiyat tomonidan ilgari surilgan ta'lim - tarbiya maqsadi, o'z pozitsiyalari va munosabatlarini hisobga olgan holda amalga oshirilishi darkor. Metodik vazifalarni hal qilish sifati to'g'ridan-to'g'ri quyidagi omillarga bog'liq bo'ladi: ko'rsatilgan barcha shartlar qay darajada hisobga olinadi; ushbu yechim qanchalik individual; yechim uzoq muddatli dastur maqsadlari bilan qanday bog'liq; ta'lim oluvchi yetishmayotgan ma'lumotlarni oqilona to'ldirishga va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan oqibatni bashorat qilishga qodir.

Bo'lajak o'qituvchilarning metodik kompetentligini takomillashtirish jarayonini tahlil qilish quyidagi tendensiyalarni aniqlashga imkon beradi.

Bo'lg'usi o'qituvchilarning o'zgaruvchan o'quv dasturlarini tizimli, fanlararo va shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlarga asoslangan texnologik bilimlar mazmuni bilan boyitish zarurati mavjud. Bu esa bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash usullari professional fikrlash hamda refleksiv, subyektiv pozitsiyani rivojlantirish maqsadida texnologiyalarini kengaytirishni tashkil etish.

Aniqlangan kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, texnologik ta'lim o'qituvchisining metodik kompetentligini takomillashtirish ko'p qirrali va ta'lim jarayonida tegishli rejalashtirilgan yo'nalishga ega bo'lishi mumkin. Shunday qilib, kelajakdagi texnologik ta'lim o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligining ijtimoiy komponenti nafaqat texnologik ta'lim sifatining ko'rsatkichi bo'lib, balki ma'naviy-axloqiy madaniyat, kasbiy-psixologik salohiyat va motivatsion va qadriyatlarga yo'naltirish vazifalarini ham bajaradi.

Muayyan sharoitlarda o'quv jarayonini ijodiy tashkil etishga qodir, axborot sohasida tezkor harakatlana oladigan, mustaqil ravishda takomillashib, rivojlanib boradigan kompetensiyali kadrlarga juda katta zarurat mavjud. Kasbga rasmiy mansublik emas, balki kasbiy mahorat, ya'ni mutaxassis shaxsning kasbiy faoliyat talablariga muvofiqligi birinchi o'ringa chiqadi.

Shu munosabat bilan, o'z kasbini ustasi bo'lgan o'qituvchilarni tayyorlashning keskin muammosi mavjud bo'lib, ularning shakllanishi asosan oliy ta'lim muassasalaridagi o'quv jarayonida amalga oshiriladi.

O'qituvchining metodik kompetentligi – bu mutaxassisning shaxsiy fazilatlarining integral xarakteristikasi bo'lib, nafaqat kasbiy faoliyat maqsadlariga erishish uchun yetarli bo'lgan bilim, ko'nikma, tajriba darajasini, balki shaxsning mavqeyini ham aks ettiradi [70].

V.A.Slastenin ilmiy maktabi tomonidan ishlab chiqilgan kasbiy kompetensiyani tushunchasiga berilgan, texnologik ta'lim o'qituvchisining metodik kompetensiyasi - bu fanni o'qitish va bo'lajak kasbiy faoliyatga tayyorlik, fanlarini o'rganish jarayonida uning loyiha faoliyati davomidagi shaxsni integral sifati degan ta'rifni ham keltirib o'tamiz [71].

Metodik kompetentlik asosan jamiyatda rivojlanadi va shakllanadi, o'z mazmuni bo'yicha ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lib, insonning boshqa insonlar bilan o'zaro munosabatlarida texnologik-kasbiy faoliyatida namoyon bo'ladi hamda ta'lim jarayonida shakllangan bilimlar, amaliy ko'nikmalar va tajribalarga tayanadi. Metodik rivojlanishning mazmuni o'ziga xos xususiyatlarga, kasbga turiga va kasbiy faoliyatga bog'liq. Kasbiy rivojlanish o'qituvchini shakllantirish uchun zarur

va uning ushbu faoliyati kelajakdagi muvaffaqiyatini belgilaydi. Metodik rivojlanishning yetarli darajada emasligi o'qituvchilik kasbiga moslashish jarayonini murakkablashtiradi va ba'zan pedagogik faoliyatni amalga oshira olmaslikka olib kelishi mumkin [72].

Bo'lajak o'qituvchilar o'rtasida metodik kompetentlikni takomillashtirish bo'yicha mavjud ilmiy, pedagogik, maxsus adabiyotlarda qayd qilingan ma'lumotlarni o'rganib tahlil qilish natijasida, biz texnologik ta'lim o'qituvchisi uchun dastlabki kompetensiya, psixologik-pedagogik va asosiy metodik kompetentliklarga ega bo'lish mumkin degan xulosaga keldik.

O'qituvchining maqsadli kompetentligi turli darajadagi va yo'nalishdagi ta'lim maqsadlarini belgilash va amalga oshirish qobiliyatini o'zida jamlaydi.

Shuningdek, texnologik ta'lim o'qituvchisining metodik kompetentligiga shaxsning kasbiy faoliyatga tayyorligi, ya'ni psixologik - pedagogik kompetentligi ta'sir qiladi.

Psixologik va pedagogik adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, o'qituvchining metodik kompetentligi murakkab, ko'p jihatli hodisa bo'lib va yagona, ajralmas tizimni ko'tsatadi.

Ta'lim sohasidagi psixologik-pedagogik kompetentlik, pedagogik diagnostika o'tkazish, ta'lim oluvchilar bilan pedagogik jihatdan do'stona aloqalar o'rnatish va diagnostika natijalariga asoslanib individual ishlarni amalga oshirish qobiliyatini o'z ichiga oladi. Bunga qo'shimcha ravishda, yosh psixologiyasi, shaxslararo va pedagogik muloqot psixologiyasi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'lim oluvchilarning barqaror rivojlanishini rag'batlantirish va rivojlantirish qobiliyati mutaxassislikka qiziqishni, shuningdek, o'qitilayotgan fanga bo'lgan motivatsiyalarni oshiradi [73].

Ushbu masalani o'rganish va tahlil qilish asosida biz bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchisining metodik kompetentlikni takomillashtirish modelini taklif qildik, u boshlang'ich, psixologik-pedagogik va asosiy metodik kompetentliklar kabi tuzilmaviy elementlarni o'z ichiga oladi. Bu komponentlar bir-biri bilan o'zaro

bog'liq, pedagogik shart-sharoitlar bilan o'zaro aloqador va bo'lajak o'qituvchiga xos shaxsiy kompetentlik texnologiyalariga ega.

Yuqoridagi tahlillar kelib chiqib metodik kompetentlikni rivojlantirishning quyidagi didaktik shart-sharoitlarini keltirib o'tamiz:

1. Ta'lim oluvchilarning bilimining darajasiga va tarifiga mos darsliklar, o'quv usullari va metodi, o'quv qurollar bilan ta'minlash;
2. Ta'lim oluvchilarning kasbiy yordamlarini oshirish uchun ixtisoslashgan asboblarga bilan ta'minlash;
3. Ta'lim oluvchi va ta'lim beruvchining hamkorlik qilishi orqali ishlab chiqarishda ijobiy ta'lim muhiti yaratish;
4. Har qanday bilim oluvchilarga o'qitish joyida tajriba, ustaxonada amaliyotlar uchun kerak bo'ladigan asbob-o'lchovlarni ta'minlash zarur;
5. O'quvchilarning mustaqil o'rganishga yo'llanishini ta'minlash, o'zining qiziqtirgan yo'nalishlari va mavqelarini o'rnatish.

Didaktik shart-sharoitlar o'quvchining o'zini rivojlantirish va o'rgangan bilimlarni amalga oshirish jarayoni o'quvchilar uchun samarador va maslahatli muhit uchun zarurdir.

Shunday qilib xulosa sifatida shuni aytib o'tish joizki, texnologik ta'lim o'qituvchisining metodik kompetentligi nafaqat insonning kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun tayyorligini shakllantirish, balki har qanday faoliyat, shu jumladan kasbiy (pedagogik) samaradorligining dastlabki sharti sifatida insonning tayyorgarligidandir. Biror bir inson kerakli bilimlarga, qobiliyat, ko'nikmalarga, ta'limiy va hayotiy tajribalarga, inson faoliyatiga bo'lgan qadriyatli munosabat, faoliyatni bajarish uchun motivasiyalar, ushbu vazifani amalga oshirish uchun professional-kasbiy fazilatlariga ega bo'lishi mumkin, ammo bu degani u pedagog sifatida faoliyatni psixologik tarzda amalga oshirish uchun tayyor bo'lmasa, agar unda hech qanday ichki qat'iyat mavjud bo'lmasa, o'zaro muloqotni amalga oshirish uchun mutaxassislik faoliyatini bajarishda qobiliyatsiz bo'lsa, u holda biz uni haqiqiy professional malakali o'qituvchisi deb tan ololmaymiz.

2.2-§. Bo‘lajak o‘qituvchilarning metodik kompetentligini takomillashtirish modeli

Ayni vaqtda shaxsni kasbiy jihatdan kamol topishiga aloqador psixologik-pedagogik adabiyotlarda u yoki bu kompetentlik turlarini pedagog shaxsining tayyorgarligini shakllantirish nuqtai nazaridan ko‘rib chiqishga katta e‘tibor berilmoqda, chunki faqat malakali mutaxassisgina ijtimoiylashuv va kasbiy faoliyatiga moslashish jarayonini potensial samaradorligini ta‘minlay oladi. Shu munosabat bilan bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash jarayoni asosan, maktab o‘quvchilarining qayta o‘zlashtirish faoliyatini boshqara olishga tayyorligini ta‘minlash, ularda dunyoning mavjud texnologik tasvirini shakllantirish, mehnat faoliyatiga bo‘lgan ijobiy munosabatni uyg‘otish, shuningdek ularni transformativ tarzda fikrlashga o‘rgatish va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan.

Hozirgi bosqichda, respublikamiz ta‘lim tizimida bunday mutaxassislarga bo‘lgan ehtiyojning ko‘pligiga qaramasdan, o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligi talab etadigan vositalarni tavsiflovchi metodik kompetentliklarini takomillashtirish talablariga yetarli darajada javob bermaydi shuningdek, kundalik hayotdagi muammolarni mustaqil ravishda hal qila olish, ijtimoiy muhitdagi transformatsiyalarga muvaffaqiyatli va hech qanday to‘siqlarsiz moslasha olish qobiliyati ham shular jumlasidandir.

V.A.Adolf, A.S.Belkina, M.V.Bolina, V.N.Vvedenskiy, L.N.Davydova, Ye.F. Zeyer, N.V.Kuzmina, A.K.Markova, V.A.Slastenin, A.V.Yefanova va boshqa tadqiqotchilarning izlanishlarida, kompetensiya va kasbiy mahoratning mohiyatini, o‘qituvchining metodik kompetentliklarni barcha turlari haqida izchil fikr yuritiladi [74].

P.R.Atutova, S.Ya.Batisheva, G.M.Gadjiyeva, R.A.Galustova, Ye.M.Muravyova, V.A.Polyakova, M.N.Skatkina, V.D.Simonenko, Yu.L.Xotunseva va boshqalarning ilmiy izlanishlari bo‘lajak texnologik ta‘lim o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonini yanada takomillashtirish hamda umumnazariy jihatdan ta‘minlash, texnologik ta‘lim va fan asoslari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni aniqlashga qaratilgan [76].

Pedagog - texnologning maktab o'quvchilarini metodik kompetentliklari asosida yuzaga keladigan transformasion faoliyati va unga jalb etishdagi tayyorgarligini aniqlashga qaratilgan tajribalar tahlili shuni ko'rsatadiki, uning mohiyati, tuzilishi haqida aniq tasavvurlar yo'q bo'lib, shu bilan birga pedagogik-kasbiy kompetentliklarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalarning mavjud emasligi, texnologik ko'nikmalarni o'zlashtirish nuqtai nazaridan texnologik ta'lim o'qituvchilariga qo'yiladigan talablar va metodik kompetentlikni takomillashtirishga yordam beradigan ta'lim modelining mavhumligi o'rtasidagi ziddiyatni hal qilish muammosini o'zida aks ettiradi [76].

Ushbu qarama-qarshiliklarni hal qilish zarurati hamda bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarining kompetensiyalarini takomillashtirishning ilmiy asoslangan modelining yo'qligi bizning tadqiqotimiz muammosini aniqlab beradi, uning mohiyati esa shaxsiy bilimlarini takomillashtirishning mazmuni, jarayonini ishlab chiqishdan iborat. Adabiyotlarning qiyosiy o'rganishlari shuni ko'rsatadiki, pedagogika fanida kompetentlik tushunchasiga – mehnat samaradorligini belgilovchi bilim va ko'nikmalar yig'indisi; funksional vazifalarni amalga oshirish; yuklatilgan topshiriqlarni bajarish uchun malakalar yig'indisi; shaxsiy fazilatlar va xususiyatlarning birgalikdagi kombinasiyasi; bilimlar va kasbiy ahamiyatga ega shaxsiy fazilatlar majmui; professionallashtirish vektori; mehnatga nazariy va amaliy tayyorgarlikning birligi; madaniy jihatdan mos keladigan murakkab turdagi harakatlarni amalga oshirish qobiliyatlari kabi majmuasi sifatida qaraladi. Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, faqat malakali mutaxassis kelajakka intiladi, o'zgarishlarni oldindan ko'ra biladi, o'z ustida mustaqil ravishda ishlashga katta e'tibor qaratadi, ushbu jarayonda istiqbolli va real sharoitlarda amalga oshirilishi uning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi [77].

fan, texnika va ijtimoiy sohadagi yutuqlarni hisobga olgan holda, o'quv reja va fan dasturlarini sifatli ishlab chiqish, samarali amalga oshirish va yangilash uchun javobgar bo'lgan oliy ta'lim muassasalarining professor-o'qituvchilari.

- Ta'lim yo'nalishi doirasida o'quv reja va fan dasturlarini muvaffaqiyatli o'zlashtirish jarayonini samarali olib borayotgan talabalar;

- Bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasini ta'minlash uchun o'z vazifalarini bajarishga mas'uliyatni oshirishga intilayotgan oliy ta'lim muassasalarining boshqaruv xodimlari (rektori, prorektorlar, o'quv bo'limi boshliqlari, dekanlar va kafedra mudirlari);

- Bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasini baholaydigan davlat attestatsiya va imtihon komissiyalari;

- Oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishni ta'minlaydigan tashkilotlar;
- Oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatni nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

- Kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilotlar.

Shunday qilib, bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilari metodik tayyorgarlik jarayonida kasbiy, uslubiy, axborot, kommunikativ, ijodiy, maqsad belgilovchi, konstruktiv, texnologik, loyiha tuzish, refleksiv va monitoring kompetensiyalarini rivojlantirishi zarur. Xususan, quyidagi kompetensiyalar: kommunikativ, loyihalash, texnologik va monitoring, bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchisi uchun metodik (o'z-o'zini anglash va lavozim ko'tarish), shaxsiy (hayotini tashkil etish, oilaviy munosabatlar, dam olish va shaxsiy dunyoqarashni rivojlantirish) va ommaviy (qarorlar qabul qilish, birdamlikni saqlash, ijtimoiy hayotda faol ishtirok etish) faoliyatga tayyorgarlikni ta'minlashda katta ahamiyatga ega.

Ushbu kasbiy ko'nikmalar va metodik kompetentliklar ta'lim jarayonini samarali amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalar to'plamini tashkil etadi va maktab o'quvchilarini tarbiyalash va rivojlantirish faoliyatini ta'minlaydi.

Pedagogik-psixologik va maxsus adabiyotlarni tahlil qilish orqali bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchisi uchun rivojlantirilishi kerak bo'lgan metodik kompetentlikning motivatsion jihatlari, metodik yetakchilik qobiliyati, tashkilotchilik va monitoring qobiliyatlari haqida fikr yuritish mumkin. Ushbu xususiyatlar bir-biri bilan o'zaro bog'lanadi va maktab o'quvchilarining ma'lum bir ketma-ketlikdagi harakatlari doirasida ta'lim, tarbiya va rivojlantirish jarayonlarida kasbiy kompetentlikning asosiy komponentlarini tashkil etadi. Buning natijasida

o'qituvchining professional qobiliyatlarini takomillashtirishga, shuningdek, ta'lim jarayonini samarali tashkil etishga yordam beradi [75].

Ilmiy izlanishlar natijasida olingan metodik kompetentlik tuzilmasi asosida biz bo'lajak o'qituvchilarning metodik kompetentliklarini takomillashtirish modelini yaratdik. Modellashtirish tadqiqot usulidan foydalanish maqsadga muvofiqligini, o'rganilayotgan ob'yekt yoki jarayonni izchil va chuqur o'rganishni ta'minlaydi, yaxshi natija bilan samarali ishlash variantlarini analiz qilishga yordam beradi. Yuqoridagilarni umumlashtirgan holda, kelajakdagi ta'lim o'qituvchisining metodik kompetentliklarini takomillashtirish modeli quyidagi tarkibiy qismlardan iborat: maqsadlar tizimi - shakllantiruvchi komponent sifatida, pedagogik jarayonning mazmuni, o'qitishning turi, usul va vositalari, shart-sharoitlari, darajalari va shakllanish mezonlari bilan birga, sub'yektlar o'rtasidagi o'zaro ta'sir mexanizmi (2.2.1-rasm).

Bo'lajak o'qituvchining metodik kompetentsiyasini takomillashtirish modeli quyidagi tarkibiy qismlardan iborat: maqsadlar, mazmun, o'qitish shakllari, metodlari va vositalari, shart-sharoitlar, darajalar va baholash mezonlari bo'lgan pedagogik jarayon sub'yektlarining o'zaro ta'sir mexanizmlari. Ushbu modelni ishlab chiqishning asosiy maqsadi bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarining metodik kompetentsiyasini rivojlantirishdir.

Maqsadi (bo'lajak bitiruvchisiga qo'yilgan malaka talablar, ish beruvchining bitiruvchilarga qo'ygan talablari asosida bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchisining metodik kompetentligini takomillashtirish), pedagogik jarayonni samarali amalga oshirish, natija esa (baholash mezonlari, darajalari, tajriba-sinov ishlarini tahlili) pedagogik amaliyotda namoyon bo'lishi keltirib o'tildi.

Shu sababli biz bo'lajak o'qituvchilarning metodik kompetentliklarini takomillashtirishning asosi sifatida ko'rib chiqilgan tarkibiy qismlarni ajratib ko'rsatdik, ular quyidagilardan iborat: motivasiya qobiliyatlar (kognitiv mohiyati, kasbiy tajribaga tayanish, muammoli vaziyatlar, texnologik vazifalarni ko'rish, turli xil musobaqalar, kelajakdagi musobaqa tarzi; Rag'batlantirish va bilimning muhimligi; Jazo tizimi; o'qituvchining shaxsiy namunalari, o'z-o'zini baholash


imkoniyatlari; Tashkiliy ko'nikmalar; baho va nazorat qobiliyatlari; o'qituvchining samaradorligini oshirishda muhimdir.

Bizning modelimizning maqsadli bloki bo'lajak o'qituvchilarda mutaxassislik fanlarini o'qitish orqali motivasion, tashkiliy va monitoring bilim va ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan yondashuvlarni, o'quv faoliyatini rejalashtirishni, pedagogik jarayon ishtirokchilarining o'zaro aloqa texnologiyalarini hamda reproduktiv ta'lim texnologiyalarini ishlab chiqishni o'z ichiga oladi.

Innovatsion ta'lim vositalaridan foydalanish va samarali ta'lim texnologiyalarini yaratish; o'quvchi shaxsining hissiyotlariga ta'sir qilish texnologiyalarini yaratish; ta'limiy texnologiyalarni ishlab chiqish; o'qituvchining nazorat funksiyasini bajarish; darsning bosqichlarini va butun pedagogik jarayonni takrorlash.

Bundan tashqari, ta'lim oluvchilarning zamonaviy axborot texnologiyalari bo'yicha bilimlari, shuningdek, o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda pedagogik jarayonni to'g'ri tashkil etish katta ahamiyat kasb etadi. Tashkiliy va pedagogik blok juda muhim, chunki o'rganilgan bilimlar asosida ko'nikmalarni o'zlashtirish amalga oshiriladi bu yerda o'qituvchi ta'lim oluvchiga nisbatan dominant sub'yekt sifatida bilim beruvchi vazifasini bajaradi.

Ta'limning malaka talablari o'quv jarayonining sifatini ta'minlash, amaliy va nazariy bilimlarni o'rgatish uchun zarur malakalarni belgilaydi.



2.2.1-rasm. Bo'lajak o'qituvchilarning metodik kompetentligini takomillashtirish modeli

Bo'lajak o'qituvchilarning metodik kompetentliklarini takomillashtirish bo'yicha guruhlariga birlashtirilishni talab etadigan ta'limni tashkil etishning quyidagi shakllarini qamrab olish orqali amalga oshiriladi, masalan: individual vazifalar, amaliyotga tayyorgarlik, amaliyotni o'tash, pedagogik-psixologik adabiyotlarni o'rganish; "Keys stadi" metodini qo'llash; ma'ruza, fakultativ, suhbat, bahs, ta'lim muassasalariga (maktablarga) ekskursiya, ta'limiy o'yin va boshqalar.

Metodik kompetentlikni takomillashtirishda pedagogik jarayon sub'yektlarining samarali o'zaro ta'sirini ta'minlash maqsadida fan va amaliyot arsenalidan turli xil ta'lim usullaridan foydalanish ko'zda tutilgan, bu modelga yaxlit pedagogik jarayonning umumiy usullari kiritilgan, shu jumladan: bilimlarni shakllantirish (hikoya, tushuntirish, suhbat, ma'ruza, bahs, debat, kitob bilan ishlash); ko'nikmalarni shakllantirish (mashqlar, mashg'ulotlar, pedagogik vaziyatlarni yaratish usuli, ko'rsatma, kuzatish, illyustratsiya va namoyish qilish, laboratoriya ishlari, reproduktiv usullari, induktiv va deduktiv usullar, musobaqa, rolli o'ynlar, rag'bat berish, jazolash, trening va boshqalar); monitoring (og'zaki va yozma so'rov, nazorat va laboratoriya ishlari, sinov, o'z-o'zini nazorat qilish).

Ta'lim natijasi har doim uni amalga oshirish shart-sharoitlariga bog'liq bo'lib, bu shaxsni maqsadga erishish jarayonini tezlashtirish yoki sekinlashtirishga sababchi bo'ladi, shaxsiy potensialni amalga oshirish uchun turli xildagi imkoniyatlarni ro'yobga chiqaradi. Xuddi shu darajada, bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchisining metodik kompetentligini takomillashtirish jarayonining muvaffaqiyatli faoliyatning xususiyatini o'zgartirishi, jarayonning davomiyligiga ta'sir qiluvchi hodisalar doirasini ajratish va boshqalar orqali belgilanadi. Ushbu nuqtai nazardan, nafaqat bilimlarni egallash, balki bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchisi metodik kompetentsiyasini takomillashtirish uchun zarur sharoitlarni yaratish ham muhim ahamiyatga ega.

Psixologik-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish va tadqiqot natijalarimizga asoslanib, bo'lajak o'qituvchining metodologik kompetentsiyasini takomillashtirish quyidagi usullar orqali samarali tarzda amalga oshirilishi mumkin:

- Ta'lim oluvchilarni kasbiy tayyorlashda kompetensiyaga asoslangan yondashuvni joriy etish;
- Talabalarda kasbiy jihatdan muhim bilim, ko'nikmalar, malakalar va fazilatlarni shakllantirish, shuningdek, maktab o'quvchilarining transformatsion faoliyatini boshqarishga tayyorligini oshirish;
- Transformatsion faoliyatda innovatsiyalarga qiziqish va ijodkorlikni rivojlantirish;
- Ta'lim oluvchilarning samarali o'quv faoliyatini tashkil etish va zamonaviy pedagogik hamda axborot texnologiyalaridan foydalanish;
- Ta'lim texnologiyalarini o'zlashtirishda intellektual, hissiy, motivatsion va faoliyat tarkibiy qismlariga ta'sir ko'rsatish.

Biz ishlab chiqqan modelda metodik kompetentlikni rivojlanganligini aniqlashning to'rtta darajaga ajratiladi: a'lo, yaxshi, qoniqarli va qoniqarsiz daraja. Bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchisining metodik kompetentligini rivojlanganligining qoniqarli darajasi kasbiy muammolarni hal qilish usullari cheklangan darajadasiga ega bo'lish bilan tavsiflanadi, vazifalar asosan odatiy usullar yordamida hamda ko'pincha jiddiy kamchiliklar va xatolar bilan hal qilinadi, qaror qabul qilish jarayonida ilmiy bilimlarning kichik doirasi qo'llaniladi, qaror va harakatlar o'rtasida qarama-qarshiliklar mavjud, aksariyat hollarda ular tushinarsiz va asossiz.

Ta'lim oluvchilarda metodik kompetentlikning yuqori darajasi motivatsion va umuminsoniy qadriyatlar bilan belgilangan harakatlar yo'nalishi orqali ifodalanadi. Harakatlarning indikativ asoslari, asosan, kasbiy rivojlangan ko'nikma va qobiliyatlarni ilmiy-uslubiy bilimlar sifatida namoyon etadi. Harakatlarning maqsadga muvofiqligi esa muammolarni hal etish uchun maqsad va vositalarni tanlash bilan, shuningdek, muammo yechishda o'z vaqtida, to'g'ri va samarali harakatlar qilishga asoslanadi, aniqligi esa harakatlarning samaradorligini belgilaydi.

Metodik kompetentlikning yuqori darajasi ilmiy va kasbiy ko'nikmalarning mavjudligi, ilmiy yondashuv, aniq va ongli fuqarolik pozitsiyasi hamda axloqiy

munosabatlarning rivojlanganligi bilan tavsiflanadi. Bu darajada bajariladigan harakatlar majmurasini tizimlashtirilgan bo'lib, ularning shakllari va mazmunini belgilashda o'ziga xoslik, ijodkorlik, aniqlik va samaradorlik talab etiladi. Shuningdek, harakatlarning o'z vaqtida bajarilishi uchun zarur bo'lgan ko'nikma va malakalar mavjud bo'lishi muhimdir.

Bo'lajak o'qituvchining metodik kompetentligini takomillashtirish darajalarini tasniflash, metodik faoliyatga tayyorgarlikni yaxlit tizimli taqdim etishda ham qo'llaniladi. Shuni ta'kidlash kerakki, ushbu model asosida ta'lim oluvchilar faqat o'qituvchilik kasbini egallash bilan cheklanmay, balki oliy ta'lim muassasalarining barcha imkoniyatlarini o'zlashtirishlari, shuningdek tayyorlash tizimida biz faqat motivasiya, tashkil etish va nazorat qilish bilan bog'liq ko'nikmalarni shakllantirish hamda rivojlantirish haqida gapirishimiz mumkin.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda, bo'lajak o'qituvchining metodik kompetentlikni rivojlantirish darajasi quyidagi mezonlar asosida baholanishi mumkin: darsning har bir bosqichida ta'lim oluvchilar faoliyatini tuzadigan va tashkil etadigan vazifa va maqsadlarni shakllantiradi; belgilangan vazifa va maqsadlarni hal qilishga qaratilgan ta'lim oluvchilarning individual, guruh, frontal va qo'shma faoliyatini tashkil etish usullariga ega; texnologik ta'limda ijodiy muhit yaratish usul va metodlarni qo'llash; ta'lim oluvchilarni mustaqil ravishda fikr yuritishga undaydigan faol va interfaol usullardan foydalanadi; talim oluvchilarni olindan o'zlashtirilgan bilimlari tizimiga yangi materialni kiritish ko'nikmalariga ega; ta'limiy muammolarni hal qilishda zarur bo'lgan qo'shimcha ma'lumotlarni topish uchun ta'lim oluvchilarni tashkil qilishni biladi; ta'lim oluvchilarning yutuqlarini baholash mezonlarini shakllantirishga qodir; o'qituvchilar tomonidan o'z-o'zini baholash ko'nikmalarini shakllantirish usullaridan foydalanishga qodir; ta'lim oluvchilar shaxsini hamda natijalarini pedagogik baholash, o'zaro baholash va o'zini o'zi baholash usullaridan qanday foydalanishni bilib oladi.

Ushbu model bo'lajak o'qituvchilarning metodik kompetentsiyasini rivojlantirish uchun asos sifatida xizmat qiladi. Modelning har bir tarkibiy qismi

bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash jarayonida o'z vazifalarini bajaradi, ammo faqat birgalikda harakat qilganda ular ushbu jarayonni samarali amalga oshirishi mumkin.

Yuqoridagilarni umumlashtirganda, bo'lajak o'qituvchilarning metodik kompetentligini rivojlantirishning tarkibiy va funksional modeli pedagogik kompetensiyalarni takomillashtirish darajalarida samarali ko'rinadi. Ushbu jarayon har bir darajada ekspert reytinglari asosida aniqlanadigan o'ziga xos faoliyatlarni o'z ichiga oladi.

Xulosa qilib aytganda, biz bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash tizimini maqsadli va chuqur o'rganish zarurati bilan bog'liq bo'lgan metodik kompetentlikni takomillashtirish jarayonini modellashtirish zarurligini belgilaymiz. Shu bilan birga, ishlab chiqilgan modelni amalga oshirish samaradorligi bo'lajak o'qituvchilarning metodik kompetentliklarini rivojlantirishda adaptiv innovatsion texnologiyalarni qo'llash muhim ahamiyatga ega.

2.3-§. Bo'lajak o'qituvchilarining metodik kompetentligini rivojlantirishda innovatsion ta'lim texnologiyalari

O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimida ta'lim olish jarayonining 2030-yilgacha rivojlantirib mehnat bozorida yuz berayotgan tub o'zgarishlarga javob beradigan mutaxassisni sifatli tayyorlashga harakat qilib kelinmoqda. Hozirgi kunda oliy ta'limning asosiy vazifalaridan biri, tez o'zgarayotgan muhitda kasbiy vazifalarni mustaqil va ijodiy ravishda hal eta oladigan, maktabda ishlashga moslashgan va raqobatbardosh o'qituvchini tayyorlashdir. Bo'lajak o'qituvchilarning tayyorgarlik darajasi ko'p jihatdan o'qituvchining metodik kompetentligiga bog'liq bo'lib, ushbu kompetentlik turi oliy ta'lim muassasalari bosqichida shakllanishi va rivojlanishini yuqorida aytib o'tdik.

Zamonaviy o'qituvchilarning faoliyati tobora ko'proq muhandislik hamda texnik bilimlar, ko'nikma va qobiliyatlarning elementlarini o'quvchilarga berishga, ularni jamiyat ehtiyojlariga javob beradigan yangi politexnik bilimlarni olish va amalda ishlatish qobiliyatiga tayyorlashga qaratilishi lozim.

Hozirgi kunga kelib bo'lajak o'qituvchilarning metodik kompetentligini takomillashtirish muammosi tobora dolzarbligi oshib bormoqda. Bu esa o'z

navbatida texnologik ta'lim yo'nalishida ta'lim oluvchilarining metodik mahoratini shakllantirish, modellashtirish va texnologik ko'nikmalarni takomillashtirish uchun zarur bo'lgan bilimlar doirasini kengaytirishni talab etadi.

Ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan tadqiqotimizning dolzarbligi ta'limni modernizatsiya qilish uchun asosan ko'p madaniyatli muhit ehtiyojlari va tendensiyalariga javob beradigan malakali mutaxassisni tayyorlashga qaratilgan kompetentliklarga asoslangan yondashuv mavjudligi bilan bog'liq. Binobarin, bo'lajak o'qituvchi oliy ta'lim muassasalarida o'qish davomida rivojlangan metodik kompetentliklariga ega bo'lishi kerak, lekin ularni qay tarzda shakllantirish yo'llari hali aniqlanganicha yo'q.

Ilmiy-metodik jihatdan tadqiqot ishimizning dolzarbligi texnologik ta'lim yo'nalishi ta'lim oluvchilarining metodik kompetentligini takomillashtirish uchun nazariy asoslarni (nazariy va amaliy pedagogik tajribani umumlashtirish) yaratish zarurati bilan bog'liq.

Oliy ta'lim muassasalarida texnologik ta'lim o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligi nazariyasi va amaliyotini tahlil qilish va ularning metodik kompetentliklarini takomillashtirish jarayoni quyidagi ziddiyatlarni aniqlashga imkon berdi:

- ta'limni amalga oshirishga qodir bo'lgan ta'lim sohasidagi yuqori malakali mutaxassislarga jamiyatning ehtiyoji va davlat ta'lim standartlarining metodik kompetentlikni rivojlantirish jarayoniga yo'naltirilmaganligi, bitiruvchilar o'rtasida ushbu kompetentlikni rivojlantirish jarayonining ilmiy asosiligi yetarli emasligi hamda texnologik ta'lim yo'nalishlari;

- jamiyatda ta'limni amalga oshirishga qodir bo'lgan ta'lim sohasidagi malakali mutaxassislarga bo'lgan ehtiyoj va davlat ta'lim standartlarini metodik kompetentligini rivojlantirish jarayoniga yo'naltirilmaganligi, texnologik ta'lim yo'nalishi bitiruvchilari o'rtasida uni shakllantirish jarayonining ilmiy asoslanganligini yetarli darajada emasligi;

- bo'lajak o'qituvchilarni kasbga tayyorlashning zarur va muhim tarkibiy qismi sifatida metodik kompetentlikni takomillashtirishning ahamiyati va ushbu muammoni nazariy va amaliy jihatdan tugallanmaganligi.

Bu ziddiyatlardan kelib chiqqan yangi o'quv vazifalari bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarlik jarayonida metodik kompetentligini takomillashtirish muammosining nazariy jihatlarini shakllantirishni taqozo etadi.

Tadqiqot ishimiz bo'yicha amalga oshirilgan tajriba ishlari uch bosqichda amalga oshirildi. Ular 2019-yildan 2023-yilgacha bo'lgan davrda TDPU, NamDU, JDPU, FarDU texnologik ta'lim yo'nalishlari negizida olib borildi.

Tadqiqotning maqsadi texnologik ta'lim yo'nalishi ta'lim oluvchilarining metodik kompetentligini rivojlantirish modelini amalga oshirishni ta'minlaydigan bir qator pedagogik sharoitlar samaradorligini sinab ko'rishdan iborat.

Ko'p tadqiqotchilar pedagogik sharoitlarni o'quv jarayoniga hamohang bo'ladigan ob'yektiv imkoniyatlar, holatlar va chora-tadbirlar majmui deb tushunadi. V.I. Andreyev didaktik shart-sharoitlarni "ma'lum didaktik maqsadlarga erishish uchun maqsadni belgilash, tarkibiy qismlarini, usullarini (metodlarini) loyihalash va qo'llash jarayonidagi sharoitlar" deb ta'riflaydi [58].

Tadqiqotimizni mazmuni bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarlik jarayonida metodik kompetentligini takomillashtirish jarayonining "samaradorligini quyidagi pedagogik sharoitlarni yaratish orqali sezilarli darajada oshirish mumkin degan nazariyaga asoslanadi:

- ta'lim yo'nalishi, ta'lim oluvchilar o'rtasida metodik kompetentlikni takomillashtirish jarayonining shaxsiy, nazariy va amaliy uchta yo'nalishi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ta'minlashga qaratilgan;

- ta'lim praktikumi fanlarini o'qitish mazmuni va metodikasining metodik yo'naltirilganligini amalga oshirib borish;

- oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonining barcha bosqichlarida zamonaviy texnologik ta'limning o'рни o'qituvchilarining metodik kompetentligini takomillashtirish monitoringini tashkil etish;

- Metodik kompetentlikni takomillashtirish samaradorligini oshirish maqsadida mustaqil ishlardan faol foydalanish;

- “Metodik kompetentlik asoslari” maxsus kursini texnologik ta’lim yo’nalishi o’quv jarayoniga qo’shish.

O’qituvchilarning texnologik kompetentligini takomillashtirishning natijaliligiga ta’sir qiladigan nuqtai nazaridan ko’rib chiqamiz.

Birinchi didaktik shart shuki, metodik kompetentlikni rivojlantirish jarayonining har uch yo’nalishi (nazariy, amaliy va shaxsiy) o’zaro bog’liqligi amalga oshadi.

O’qituvchisining metodik kompetentligini tuzilishi quyidagi tarkibiy qismlardan iborat: qadriyat-semantik, kognitiv, operasion-faoliyat, ijodiy-shaxsiy.

Ta’lim oluvchilarning metodik kompetentligini takomillashtirish bo’ljak kasbiy faoliyatning shaxsiy mazmunini belgilaydigan motivasiyadan boshlanadi. Motivasiya, I.A.Zimnaya fikriga ko’ra, “bu inson oldida turgan, u erishmoqchi bo’lgan maqsadlarning o’zaro bog’liqligi va shaxsning ichki faoliyati, ya’ni uning istaklari, ehtiyojlari va imkoniyatlari” [59].

Ta’lim o’qituvchisining metodik kompetentligini qadriyat-semantik komponenti o’z ichiga quyidagilarni oladi: qadriyatga asoslangan munosabatlar, kasbiy qadriyatlar yo’nalishlari, ta’lim va kasbiy faoliyat motivlari, shaxsiy fazilatlar hamda o’z-o’zini tarbiyalashga tayyorlik. Bu tarkibiy qismlar o’qituvchining metodik faoliyatida muvaffaqiyatli ishlashi uchun zarur bo’lgan qadriyat va munosabatlarni shakllantiradi.

Ta’lim o’qituvchisining metodik kompetentligini kognitiv komponenti bilimlar tizimini ma’lum bir yaxlit ta’limni ifodalovchi o’zaro bog’liq elementlar to’plami sifatida belgilaydi.

Metodik kompetentlikning operasion-faoliyat komponenti transformasion faoliyatga tayyorlikda namoyon bo’ladi va metodik kompetentliklarni rivojlantirish, ularni aniq transformasion amalda qo’llash bo’yicha tajriba, o’qituvchining malakasi hamda qobiliyatlarida ifodalangan ijodiy vazifalarni mustaqil ravishda hal qilish qobiliyati bilan tavsiflanadi.

Shaxsiy-ijodiy komponent o'ziga mos bir qator shaxsiy fazilatlarni rivojlantirish zarurligini belgilab beradi:

- ta'lim oluvchilarning o'zini-o'zi erkin va ijodiy rivojlantirishga munosabatini shakllantirish;
- ta'lim oluvchilar faolligini oshirish, ularning kasbiy faoliyatga to'g'ri yo'naltirish;
- ta'lim oluvchilarda o'z-o'zini tahlil qila olish qobiliyatini rivojlantirish;
- mustaqillik va javobgarlik hissini shakllantirish;
- texnik tafakkur hamda politexnik dunyoqarashni shakllantirish kabilar.

Ikkinchi didaktik shart – fanlarni o'qitishda ko'rgazmali o'qitishning mazmuni va metodikasining metodik yo'nalishini amalga oshirish. Oliy ta'limning davlat ta'lim standartlari tahliliga ko'ra, texnologik ta'limning mohiyatini o'rganish, mutaxassisligi doirasida o'qituvchining metodik kompetentligini oshirish uchun muhim shartlardan biri ushbu mutaxassislikka kiritilgan fanlarni chuqur o'rganishdir: “Texnologik ta'lim metodikasi”, “Texnik mexanika”, “Metrologiya, standartlashtirish va sertifikatlashtirish”, “Texnologik ta'lim praktikumi”, “Materialshunoslik va konstruksion materiallar”, “Chizma geometriya va muhandislik grafikasi”, “Elektrotexnika, elektronika va elektr o'tkazgichlar”, “Kasb-hunarga yo'naltirish”, “Robototexnika” va boshqa mavzular ta'lim jarayonining asosiy tarkibiy qismlarini tashkil etadi. Bu fanlar texnologik ta'limni rivojlantirish, o'quvchilarga zarur bilim va ko'nikmalarni berishga, shuningdek, kasb-hunar sohasida malakali mutaxassislarni tayyorlashga qaratilgan.

Oliy ta'lim muassasalarida mutaxassislik fanlarini o'qitish, maktablardagi “Texnologiya” faniga doir zarur bilimlarni berish uchun umumiy nazariy va amaliy tayyorgarlikni ta'minlashi lozim. Fanlarni o'qitish usullari, shakllari va metodlari nazariy bilimlarni texnologiya o'qituvchisining kelajakdagi metodik faoliyati bilan bog'lab, o'qituvchining amaliy ishidan keltirilgan misollar bilan amalga oshirilishi kerak. Shuningdek, mutaxassislik fanlarini maxsus kurslar, seminarlar va fakultativ mashg'ulotlar orqali o'rganish, bo'lajak o'qituvchining kasbiy va pedagogik tayyorgarligini rivojlantirishga yordam beradi.

Uchinchi didaktik shart – Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarning metodik kompetentligini monitoringini tashkil etish muhim ahamiyatga ega, va bu jarayon ta'limning barcha bosqichlarida amalga oshirilishi lozim.

Kasbiy rivojlanishni monitoring qilish bo'yicha Ye.F. Zeyer, A.M. Pavlova va Ye.E.Simanyuk ta'lim oluvchining kasbiy rivojlanishini belgilovchi muhim kasbiy va shaxsiy xususiyatlarni, shuningdek, kasbiy rivojlanish va shakllanish darajasini baholashga imkon beradigan parametrlarni aniqlaydilar. Bu jarayon, shuningdek, faoliyat yo'nalishidan chetga chiqishni kuzatish uchun uzluksiz ilmiy asoslangan kuzatish jarayoniga tayanadi [60].

O'qituvchining metodik tayyorgarligini amalga oshirish samaradorligini tashxislashning ustuvor usullari quyidagilardan iborat: ekspert bahosi, monitoring qilish, ta'lim oluvchilar faoliyati natijalarini o'rganish (tezislar, loyiha faoliyati), yozma va og'zaki so'rovlar (anketalar, testlar, so'rovnomalar), individual hamda guruhliy suhbatlardir.

To'rtinchi didaktik shart – mustaqil ta'lim bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchisining metodik kompetentligini takomillashtirish vositasi sifatida qo'llanilishi.

Pedagogik faoliyatning o'ziga xos xususiyatlari texnologik ta'lim o'qituvchilarini loyihalash, modellashtirish, turli xil material va ma'lumotlarni qayta ishlash texnologiyalari, mavzuni o'qitish nazariyasi va usullari sohasidagi bilimlarini doimiy ravishda to'ldirishga, mustaqil ijodkorlik va o'z-o'zini tarbiyalash orqali o'z malakalarini oshirishni talab qiladi.

Ta'lim yo'nalishi ta'lim oluvchilarining mustaqil ishlarini to'g'ri tashkil etish va boshqarish orqali metodik bilim, ko'nikmalarni shakllantirishga doir masalalar majmuasini muvaffaqiyatli hal etish mumkin.

Tadqiqot ishimizda biz mustaqil ishlarni tashkil etishga ko'p komponentli tuzilma sifatida, xususan texnologik ta'lim yo'nalishi ta'lim oluvchilarini kasbiy tayyorlashning mazmuni, metodikasi, shakllari, vositalari va boshqaruv jihati deb hisoblaymiz.

E.L. Belkin fikriga qo'shilib, mustaqil ishning umumiy didaktik maqsadlarini to'rt guruhga ajratamiz [61].

- texnologik bilimlarni o'zlashtirish va ko'nikma hamda malakalarni rivojlantirish;
- kasbiy va pedagogik bilimlarni mustahkamlash, shuningdek, shakllangan ko'nikma va qobiliyatlarni rivojlantirish;
- olingan metodik bilimlar, ko'nikma va malakalarni amalda qo'llash;
- bilim, ko'nikma va malakalar darajasini aniqlash.

Eng samarali bilim faoliyatini tashkil etishda sharoitlarni yaratish maqsadida vazifalarni belgilash muhimdir. Bunga samarali tarzda metodik bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish kiradi, va bu mustaqil ish faoliyatining asosiy maqsadlaridan biridir.

Shunday qilib, bizning tadqiqotimizda mustaqil ishning vazifasi tanlangan, bilish bosqichlariga muvofiq metodik bilim, ko'nikma va qobiliyatlarni samarali shakllantirish va rivojlantirish uchun sharoit yaratishdan iborat.

Bizning fikrimizcha, mustaqil ishlarni faollashtirish va ta'lim oluvchilarning metodik kompetentligini, bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish samaradorligini oshirishning eng yaxshi usullari quyidagilardan iborat:

- mashg'ulotlarga tayyorgarlik (ma'ruza, amaliy, seminar, laboratoriya ishlari va boshqalar) va tegishli vazifalarni bajarish;
- o'quv va tematik rejalariga muvofiq o'quv fanlarining alohida mavzulari bo'yicha mustaqil ishlarni bajarish;
- amaliyotga tayyorgarlik ko'rish va ular tomonidan ko'rsatib o'tilgan vazifalarni bajarish;
- yozma nazoratlar, bitiruv malakaviy ishlarni bajarish;
- barcha turdagi nazorat sinovlariga, shu jumladan oraliq va murakkab nazorat sinovlarga tayyorgarlik ko'rish;
- yakuniy davlat attestasiyasiga tayyorgarlik ko'rish, shu jumladan bitiruv malakaviy (diplom) ishini yakunlash;

- ta'lim oluvchilar ilmiy jamoalarda, to'garaklarda, seminarlarda va boshqa loylarda ishlash;

- tanlovlarda, maxsus seminarlarda va hokazolarda ishtirok etish;
- ilmiy va ilmiy-amaliy konferensiyalarda, seminarlarda va boshqalarda ishtirok etish.

Shu tarzda o'qituvchilar tomonidan mustaqil ishlarni tizimli boshqarish o'quvchilarning metodik kompetentligi, bilim, ko'nikma, malakalarini samarali shakllantirish va rivojlantirish uchun sharoit yaratib beradi.

Tadqiqotimizda ta'lim oluvchilarning hakmorlikda amalga oshiriladigan mustaqil ishi orqali ularning bilimlarini va eng muhimi, metodik mahorat ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim natijalar berishini guvohi bo'ldik, demak shuni anglatadiki metodik kompetentliklarni takomillashtirishning samarali vositalaridan biri bu mustaqil ishlar hisoblanadi.

O'qituvchilarni tayyorlashda kasbiy kompetentlikning pedagogik tarkibiy qismini aniqlash va uni sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish imkonini yaratadi.

Ushbu fanning asosiy maqsadi: ta'lim jarayonida bo'lajak o'qituvchining metodik kompetentligini takomillashtirish sanaladi.

Maxsus fanning vazifalari:

- 1) bo'lajak kasbiy faoliyatda metodik kompetentlikning mazmunini ochib berish;
- 2) fanni o'qitish va o'rgatishda ilmiy, pedagogik, metodik dunyoqarashini oshirish, olingan bilimlarni umumlashtirish;
- 3) bo'lajak o'qituvchilarning metodik kompetentligini rivojlantirish uchun ijodiy loyihalar va mustaqil ishlarning rolini oshirishni ta'minlash;
- 4) umumta'lim sohasi doirasida bo'lajak "Texnologik ta'lim" ixtisosligi o'qituvchilarini dars jarayonini loyihalashtirishga tayyorlash;
- 5) kasbiy va pedagogik mahorat darajasini oshirish uchun fanlararo aloqalarni o'shish.

Maxsus fanlarni o'rganish davomida bo'lajak kasbiy faoliyatda metodik kompetentlikning mazmuni ochib beriladi. Ta'lim oluvchilarning ilmiy, pedagogik, uslubiy dunyoqarashini oshirish bilan birgalikda, o'quv fanlarini o'rganishda

olingan bilimlar umumlashtiriladi; fanlararo aloqalar o'rnatiladi; natijada esa bo'lajak o'qituvchilarning metodik mahorati yuksaltiradi.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanishga qiziqish ortib bormoqda. Avvalgi yondashuvlarda ta'lim oluvchilar asosan tayyor bilimlarni o'zlashtirishga o'rgatilgan bo'lsa, interfaol metodlar esa ularning bilimlarni mustaqil izlab topishi, o'rganishi, tahlil qilishi va xulosalar chiqarishga intilishini rag'batlantiradi.

Ushbu jarayonda o'qituvchi o'quvchining shaxsiy rivojlanishi, bilim olish va tarbiyalanishi uchun kerakli sharoitlarni yaratadi va boshqaruvchi hamda yo'naltiruvchi sifatida faol roli bilan ishtirok etadi.

Innovatsion ta'lim texnologiyalari, o'quv jarayoniga yangi yondashuvlarni kiritadigan, jamoaviy fikrlashga asoslangan va pedagogik ta'sir ko'rsatish usullari sifatida ta'lim mazmunining ajralmas qismi hisoblanadi. Ushbu metodlarning o'ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va ta'lim oluvchining hamkorligi orqali amalga oshiriladi. Texnologik ta'lim o'qituvchisidan ham zamonaviy texnologiyalarni bilish va ulardan o'zining kasbiy faoliyatida o'rinli foydalana olish malakalariga ega bo'lishlik talab etiladi.

E.M.Fazlulin, V.A.Ryabov va O.A.Yakovuklar, oliy ta'lim muassasalaridagi pedagoglar uchun o'quv mashg'ulotlarini tashkil etishda ta'lim metodlarini to'g'ri tanlashning muhimligini alohida ta'kidlaydilar. Shunday qilib, texnologik ta'limga oid fanlarni o'qitishda ta'lim metodlarini to'g'ri tanlash, maqsad va natija o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ta'minlaydi. Shu sababli, oliy ta'lim muassasalarining pedagoglari ushbu metodlarni to'g'ri tanlashga maxsus e'tibor berishlari zarur.

Fanlarni o'qitish jarayonida ta'lim metodlarini to'g'ri va samarali tanlash bir qator muhim omillarni hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Avvalo, o'qitishning umumiy maqsadlari va strategik yo'nalishlari aniqlab olinadi. Shuningdek, har bir alohida o'quv fanining mazmuniy xususiyatlari, mavzuga oid o'ziga xosliklari va fan doirasida qo'yilgan ta'limiy vazifalar muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta'lim metodlarini belgilashda o'quv materialining mazmuni, u berilishi kerak bo'lgan darslar soni va ajratilgan vaqt miqdori, hamda ushbu materialning

murakkablik darajasi alohida e'tiborga olinadi. Shu bilan birga, ta'lim oluvchilarning bilim saviyasi, tayyorgarlik darajasi, psixologik holati va fiziologik xususiyatlari ham metod tanlashda muhim mezon bo'lib xizmat qiladi.

O'quv jarayonining texnik va moddiy jihatdan ta'minlanishi, ya'ni darslarning o'quv qurollari, ko'rgazmali vositalar, texnologik hamda kompyuterlashtirilgan uskunalar bilan ta'minlanganligi darajasi ham metod tanlashda bevosita rol o'ynaydi. Shuningdek, pedagogning kasbiy tayyorgarligi, metodik mahorati, shaxsiy fazilatlar va innovatsion yondoshuvlarga ochiqqligi ham ta'lim jarayonining samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi [87].

Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarning metodik kompetentsiyasini rivojlantirishda o'quv mashg'ulotlarini, ayniqsa, amaliy darslarni tashkil etishda ta'lim metodlarini tanlashga alohida e'tibor berish juda muhimdir. Ta'lim metodlarini to'g'ri tanlash quyidagi natijalarga erishishni kafolatlaydi: ta'lim oluvchilarda umumkasbiy fanlarni chuqur o'zlashtirishga qiziqish va motivatsiyani shakllantirish; ularning o'quv-bilish faoliyatini oshirish; bilim oluvchilarni mustaqil, tanqidiy va ijodiy fikrlashga tayyorlash.

POPS-formulasi. POPS-formulasi professori D. Makkoyd - Meyson yuridik texnologiyasining Rossiyacha variantidir (P – pozitsiya (nuqtai nazar), O – obosnovaniy (asos), P – primer (misol), S – sledstviye (oqibat) so'zlaridan olingan). Bu texnologiyadan bahs-munozaralarni tashkil qilishda foydalaniladi. Uning mohiyati quyidagilardan iborat. Ta'lim oluvchi:

P – pozitsiyasi (nuqtai nazari nimadan iboratligini tushuntiradi, aytaylik, mashg'ulotda "Duradgorlik buyumlari muhim..." degan mavzuda nutq so'zlaydi);

O – asosini (shunchaki o'z nuqtai nazarini tushuntirmaydi, balki isbotlaydi. "Ish quroling soz bo'lsa ..." kabi jumladan boshlaydi);

P – misol (o'z nuqtai nazari mohiyatini aniq misollarga asoslanib nutqida "Keyingi yillarda kasbga o'qitish jadallashmoqda..");

S – oqibat (muayyan muammo muhokamasi natijasida xulosa qiladi).

Shunday qilib, ta'lim oluvchining chiqishi taxminan 1-2 daqiqa davom etadi va ikki-to'rt gapdan iborat bo'lishi mumkin. Mazkur texnologiyani qo'llash nima beradi?

Eng asosiysi, ta'lim oluvchi o'z nuqtai nazari, taklif qilingan muammoga munosabatini bildiradi.

POPS - formulasi o'tilgan mavzuni so'rash, o'rganilgan materiallarni mustahkamlash, uyga vazifani tekshirishda qo'llanishi mumkin.

Fanni o'qitish texnologiyalari

Mavzu:	o'qitishda interfaol usullardan foydalanish
Vaqt: 2 soat	Ta'lim oluvchilar hajmi: 20-25
Mashg'ulot shakli:	Amaliy mashg'ulot
Mashg'ulot rejasi:	1. Mashg'ulot mazmuniga kirish. 2. Ta'lim oluvchilar bilimini baholashda KAYZING, POPS formulasi, Mixed texnologiyalarini qo'llash. 3. Muammoni aniq ifoda etish. 4. Muhokama etilayotgan muammoni POPS formulasida asoslash. 5. Yakuniy xulosa.
O'quv mashg'ulotining maqsadi: Ta'lim oluvchilarda yog'ochga texnik ishlov berish bo'yicha ko'nikmalari rivojlantiriladi.	
Pedagogning vazifasi:	O'quv faoliyat natijalari
- ta'lim oluvchilarni bilimini baholaydi; - mavzu bo'yicha ma'lumot keliradi; - muammoli vazifalarni yechishga yordam beradi; - xulosa chiqarib oladi.	- o'qitilayotgan mavzu yuzasidan tushunchalar oladilar; - amaliy mashg'ulotlarni bajaradilar.
O'qitish usullari:	STEAM dasturi, SMART texnologiy, KAYZING, POPS formulasi, Mixed metodlari

O'qitish shakllari:	Individual va guruhlarda
O'qitish sharoitlari:	Texnik vositalar bilan ta'minlangan
Baholash:	Yozma, og'zaki, ijodiy
	Topshiriqlarni oladi.

KAYZING texnologiyalari o'quv jarayonida. Ijod – insonning ta'limdan o'zini-o'zi rivojlantirish va o'zini-o'zi realizatsiyalashga o'tishida samarali vosita. Kayzing texnologiyasi (yaponcha: kay – o'zgartirish va zen – yaxshi) har bir ish joyida takomillashtirishga doimiy intilishni nazarda tutadi. Kayzing texnologiyasiga ko'ra, to'siqlar aynan ularni yengib o'tish uchun ham mavjud. Yaponiyada “kayzing” – ishlab chiqarish jarayonini doimiy takomillashtirish texnologiyasi hisoblanib bo'lajak o'qituvchilarni metodik kompetentligini rivojlantirishda ham muhim omil sifatida qaraladi.

Oxirgi yillarda zamonaviy poligrafiya korxonalarining ko'pchiligida mikroratsionallashtirish metodlaridan biri, ijodiy-konstruktorlik faoliyatini shakllantirishga tizimli yondashuvning samarali vositasi bo'lgan kayzing-texnologiyalari muvaffaqiyatli joriy qilinmoqda.

Insoniyat yosh avlodni madaniyatning ijodiy va konstruktiv asoslarini rivojlantirish uchun muhim maqsadlar va vazifalarga ehtiyoj sezdi va yagona maqsadga intiladi. Har bir inson natijalarni baholash va o'z faoliyat usullarini tanlashda kompleks yondashishga qodir bo'lishi zarur. Kasbiy-texnik ta'lim tizimida qator kasblar borki, ularga o'rgatishda ijodiy-konstruktorlik faoliyati tajribasini shakllantirish zarur. Bo'lajak o'qituvchi, raqobatbardosh mutaxassisni o'qitishda ijodiy-konstruktorlik faoliyat kasbiy tayyorgarlikning muhim tarkibiy qismi sanaladi.

Hozirgi kunda texnologik ta'lim asosida o'quvchilarni ta'lim berish jarayonida ijodiy-konstruktorlik faoliyati uchta vazifani mustahkamlashga xizmat qiladi:

- fan-texnika yutuqlarini o'zlashtirish, balki ijodiy qo'llashga qodir bo'lajak mutaxassislarning intellektual salohiyati, ta'lim va kasbiy darajasini oshirish;

- ta'lim oluvchilarning bilish imkoniyatlari va qobiliyatlarini hisobga olgan holda ta'lim tizimini shakllantirishga ijodiy yondashuvni ta'minlash;

- ta'lim oluvchini professional faoliyatda muvaffaqiyat qozonishga qodir shaxs sifatida shakllantirish.

Ijodiy-konstruktorlik faoliyat ijodkor, izchil va mantiqiy fikrlaydigan, rivojlangan, o'z g'oyasidan o'z ijodi va modellashtirishining pirovard – foydali, qiziqarli, yangi mahsulotini yaratishga qodir shaxsni shakllantirishga qaratilgan. Ijodiy-konstruktorlik faoliyati vazifalari qatoriga, shubhasiz, ajralmas tarzda: texnologiyalar va ekologik madaniyatning tobora keng tarqalgan va istiqbolli asoslari haqida politexnik bilimlarni takomillashtirish; ijodiy fikrlaydigan, faol harakat qiladigan va yengil moslashuvchan shaxsni rivojlantirish, raqobat sharoitida bu zarur; o'z mahsulot va xizmatlarini sotishda iqtisodiyot, menejment, marketingga oid bilimlardan foydalanish kabilar kiradi.

Zamonaviy hayot to'g'ri kasb tanlash, kasbiy funksiyalar mobilligining ahamiyatini anglay oladigan shaxsni shakllantirishdan iborat talabni ilgari surmoqda. Ijodiy-konstruktorlik faoliyati shaxsni aynan shu yo'nalishda rivojlantirishga yordam beradi. Ijodiy-konstruktorlik faoliyatini o'quvchilar manfaati, global miqyosda esa, jamiyat manfaatlaridan kelib chiqib qaralsa, uning asosiy maqsadi shaxsning o'zini o'zi realizatsiyalashi va uning individual ijodiy sifatlarini rivojlantirish deb qaraladi. Demak, ijodiy-konstruktorlik ta'limda yangi avlodga qarab borish va faoliyat usulini tanlash uchun ko'proq imkoniyatlar taqdim qilish, darslarda amaliy ishlarning yanada keng spektrini taklif qilish, tashabbusni rag'batlantirish kerak. Ijodiy-konstruktorlik faoliyati – aqliy va qo'l mehnatining birikmasi ekanini hisobga olib ham ta'lim muassasasida ham uyda qo'l mehnati faoliyati ko'nikmalariga ko'proq e'tibor qaratishimiz zarur.

“Kayzing” tizimi va sifat harakati yetakchisi Cambrudge Corporation raisi Masaaki Imaining ta'kidlashicha, bushungi kunda ishchilarni, ular qanchalik mukofotlanmasin, odatiy, hamma vaqt bir xil mehnat, qoniqtirmaydi. Insonlar ijodiy elementlarni o'z ichiga oladigan ishlarni xohlaydi.

Insonning intellektual va hissiy-irodaviy sohalariga talablarning tobora ortib borishi ijodkorlik ahamiyatini tobora oshirmoqda. Ishlab chiqarish ta'limini amalga oshirishda ta'lim muassasamiz ustalari "kayzing" sari yuz burdi.

"MIXED" metodi. "Mixed" metodi. (inglizcha – "Ta'limni integrativ tashkil etish maqsadida qo'llanladi") Mazkur metodni bajarish bo'lajak o'qituvchilarni izlanuvchanlikka undovchi faoliyatini tashkil etadi.

Mixed – Ta'lim transformatsiyasi sharoitida ta'lim jarayonni loyihalashtirish, auditoriya va auditoriyadan tashqarida bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarini metodik kompetentligini rivojlantirishning innovatsion va axborot texnologiyalaridan foydalanishning samarali texnologik - metodik to'ldiruvchisi hisoblanadi.

1-bosqich. Ta'lim oluvchi o'ziga qiziqarli bo'lgan bitiruv malakaviy ishi mavzunsini tanlaydi va soha mutaxassisiga biriktiriladi.

2-bosqich. Bitiruv malakaviy ishi doirasida rahbari bilan hamkorlikda reja tuzadi va amalga oshiriladigan vazifalarni kelishib oladi.

3-bosqich. Ta'lim oluvchi mavzu bo'yicha izlanadi: axborot yig'adi, ma'lumotlarni umumlashtirishadi, tahlil qilinadi, aniq xulosaga kelinadi, o'zaro fikr almashishadi, fikrlar umumlashtiriladi.

4-bosqich. Har bir ta'lim oluvchi izlanishlari natijasi bo'yicha hisobot tayyorlaydi.

5-bosqich. Ma'lumotlari bo'yicha taqdimot tayyorlaydi.

6-bosqich. Tinglovchining erishilgan natijalari baholanadi.

Qo'llanilishi: Metoddan foydalanish jarayonida tinglovchi yakka tartibda ilmiy rahbar qo'l ostida bitiruv malakaviy ishi mavzusiga taqdimotlar tayyorlaydi:

1. Bitiruv malakaviy ishining dolzarbligi.
2. Bitiruv malakaviy ishining maqsadi.
3. Bitiruv malakaviy ishining vazifalari.
4. Xulosa va takliflar.

Ta'lim oluvchining bitiruv malakaviy ishini shakllantirish mobaynida u zamonaviy raqamli texnologiyalarga asoslangan texnologiyalardan, internet resurslaridan, bulut texnologiyalardan foydalanadi.

- Insoniyat yosh avlodni madaniyatning ijodiy-konstruktorlik asoslarini shakllantirish uchun muhim maqsadlar va vazifalarga muhtoj bo'lgan yagona fazaga qadam qo'ydi. Har bir inson natijalarni baholash va o'z faoliyat usullarini tanlashda kompleks yondashishga qodir bo'lishi zarur.

- Metodik kompetentlik – pedagogik jarayonni ilmiy va maqsadga muvofiq ravishda rejalashtirish, ta'lim va tarbiyaviy faoliyatning turli shakllarini to'g'ri tanlash, kerakli metod va vositalarni maqsadga muvofiq aniqlab olish, metodlarni samarali qo'llash va vositalarni muvaffaqiyatli implementatsiya qilish qobiliyatidir.

Ushbu metod orqali ta'lim oluvchilarda metodik kompetentlikni rivojlantirish imkonini beradi. Bu orqali ta'lim oluvchilar pedagogik mobillilikga erishadilar.

O'qituvchi:	N.Nosirov	
Ta'lim oluvchilar: 1321 guruh	Hudud: Farg'ona	
Sana: 5.10.2024	Mavzu: Tibbiy elektronika fanini o'qitishda interfaol usullardan foydalanish	
Dars turi: Nazariy	Tinglovchilar soni: 25	Vaqt: 80 min. (maksimum)
Dars maqsadi: Ta'lim sohasidagi ustuvor maqsadi va yangicha yondashuvi bilan ishtirokchilarni tanishtirish. Ta'lim tizimining maqsad va qadriyatlarini asoslanishni tushuntirib berish innovatsion ta'lim texnologiyalari	Dars natijasi: qoniqarli Dars so'ngida ta'lim oluvchilar: Ta'lim sohasidagi ustuvor maqsadlar va yangicha yondashuvni angelaydi. Ta'limga oid qadriyatlarni angelaydilar. Innovatsion ta'lim texnologiyalarini va ularni faoliyatda qo'llashni o'rganadilar.	

Tayanch terminlar: Ta'lim, innovatsion texnologiyalar, metodik kompetentlik, huquq, qadriyatlar	Materiallar: Qo'shimcha resurslar, flipchart, marker.
Dars shakli: Ommaviy, guruhlarda ishlash.	Baholash turi: Ommativ baholash
Kirish qismi (muzyorar) Davomiyligi: 15 min	Maqsadi: Sohada qo'llaniladigan innovatsion texnologiyalarni o'rganib amaliyotga tadbiq etish. Ishtirokchilar ro'yxatdan o'tish jarayonida ularga raqamlar tarqatiladi va guruhlariga ajralish uchun bir xil turdagi raqamlarga ega ishtirokchilar o'zaro birlashib guruh hosil qilishadi. Ma'ruzachi uchun ko'rsatmalar: Ishtirokchilarga raqamlar kesimida guruhlariga bo'linishni ayting. Har bir guruhda ishtirokchilar guruh a'zolaridan o'zlari uchun qiziqarli bo'lgan uchta fakt so'rab olishlari kerakligi ayting; Bir nechta ishtirokchidan guruhdagi boshqa ishtirokchilar haqida uchta faktni aytishlarini so'rang.
Asosiy qism davomiyligi 20 min	Ishtirokchilar: Innovatsion texnologiyalar, multimediali va infografika texnologiyalari va ularning didaktik imkoniyatlari haqidagi bilimlarga ega bo'ladilar. Ma'ruzachi uchun ko'rsatmalar: Taqdimotlar vositasida ta'lim sohasidagi islohotlar bilan tanishib o'tadi.
1-topshiriq Davomiyligi: 20 min	Maqsad: Ta'lim transformatsiyaning tizimga ta'sir darajasini aniqlash bilan ishtirokchilarni yaqindan tanishtirish. Ishtirokchilarga kartochkalar taqdim etiladi. Ularga ta'limni transformatsiya qilishning bugungi kundagi ahamiyatini, dolzarbligini ma'lum belgilar bilan ifodalash ifodalash so'raladi. Kartochkalar yozib bo'lingach piramida ko'rinishida joylab chiqish so'raladi. Dars avvalida ishtirokchilar uzlariga berilgan raqamlar asosida guruhlariga bo'linadi. Xar bir guruh o'zining piramidasini shakllantiradi.

2-topshiriq Refleksiya Davomiyligi: 20 min	Maqsad: Ta'lim transformatsiyasining bugunni kunda ananaviy ta'limga berayotgan salbiy va ijobiy ta'sirini qiyosiy tahlil etish. Ishtirokchilarga Mixed, Kayzen, POPS formulasi texnologiyalarni qo'llanilishi SWOT tahlil metodi asosida tahlil qilinadi. Ularning yordamida transformatsiyaning salbiy va ijobiy tomonlarini qiyosiy tahlil etib beradilar. (5 minut) Bu jarayon ham guruhlarda olib boriladi. Har bir guruh o'zining loyihasini himoya qiladi (3minut).
Yakuniy qism Davomiyligi: 5 min	Maqsad: Fikrlarni umumlashtirish. Nima uchun sizning javobingiz bilan rasm chizgan ishtirokchining fikrlari mos tushmadi? Qanday xulosa chiqardingiz? Fikrlar bildiradi. Xulosalar va takliflar muhokama qilinadi.

Kayzeng texnologiyasi bilan ishlash muddati qisqa va uzoq muddatli bo'lib, metodlar turiga qaramasdan, ma'lum bir tuzilishga ega hisoblanadi.

Kirish. Ushbu bosqichda ta'lim oluvchilar keysni bajarish jarayonida nimalarni o'rganishlari va qanday faoliyatlarni amalga oshirishlari kerakligini anglashlari muhimdir. Ta'lim beruvchilar esa ta'lim oluvchilarning metodik bilim va ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan vazifalarni belgilaydilar.

Vazifa. Bu barcha izlanishlarning muhim bosqichi hisoblanadi. Ta'lim beruvchi mavzu bo'yicha ishlash uchun oldindan tayyorlangan va modulini taklif qiladi, savollar va so'rovlarni o'z ichiga oladi. Vazifa aniq, amaliy bo'lishi va asosiy o'quv mavzusini oshkor etishga yordam berishi lozim.

Jarayon. Ta'lim oluvchi topshiriqni bajarish bo'yicha ko'rsatmalar olishadi va tavsiya etilgan bosqichlarda bajaradilar.

Manbalar. Ta'lim oluvchining metodik kompetentligini rivojlantirishga yo'naltirilgan manbalardan ma'lumot oladi (fanga doir o'quv va uslubiy) qo'llanmalar, internetdagi saytlarning manzillarini oladilar, ular keys topshiriqni bajarish maqsadida tavsiya etiladi.

Faoliyatni baholash. Ushbu bosqichda ta'lim oluvchilar o'zlarining ish natijalarini baholash imkoniyatiga ega. Bunda keys topshiriqlari haqida o'z fikrlarini bildiradi.

Xulosa. Ushbu bosqich ta'lim oluvchilarning keys natijalarini ish boshida belgilangan maqsad bilan solishtirishlari uchun zarurdir. Bundan tashqari, ushbu bosqichda ta'lim oluvchilar olingan bilim va ko'nikmalardan boshqa faoliyat sohalarida foydalanish imkoniyatlarini o'zlashtirishlari muhim.

Ikkinchi bob bo'yicha xulosa

Bo'lajak o'qituvchilarning metodik kompetentligini takomillashtirishni o'rganish mutaxassisning ushbu shaxsiy sifatini rivojlantirishni ta'minlaydigan didaktik vositalar tizimini aniqlashni nazarda tutadi. Bo'lajak o'qituvchilarning metodik kompetentligini har bir komponenti uchun o'zining rivojlanish vositalari tizimli ishlab chiqilgan:

1. Tizimni tashkil etuvchi motivasion komponent uchun munozarali vositalar metodik kompetentlikni rivojlantirishning yetakchi vositasi bo'lib xizmat qildi (suhbatlar, bahslar, muloqot, munozaralar).
2. Operasion-faoliyat komponentini rivojlantirish uchun loyihalash vositalari - loyihalar, keys-stadi, kommunikativ vazifalar tizimi ishlab chiqildi.
3. Bo'lajak o'qituvchilarning metodik kompetentligini kommunikativ komponenti simulyasiya vositalari – rolli, ishbilarmon, simulyasion o'yinlari, mashqlar, vazifalar yordamida takomillashtirildi.
4. Biz refleksiv komponentning rivojlantirish trening va loyihalash o'qitish usullari yordamida maqsadga muvofiq deb hisobladik.
5. Kognitiv komponent loyiha va muhokama usullari yordamida rivojlantirildi.
6. Bo'lajak o'qituvchilarning metodik kompetentligini rivojlantirishda asosiy vosita loyihalash faoliyati (loyiha usuli) bo'lib, buning qo'shimchalari sifatida munozara, simulyatsiya va mashg'ulotlar kiritiladi.
7. Bo'lajak o'qituvchilarning metodik kompetentligini rivojlantirishda asosiy vosita loyihalashtirish faoliyati (loyiha usuli)dir, bu faoliyat munozara, taqlid va trening usullari bilan to'ldiriladi.

Bo'lajak o'qituvchilarning metodik kompetentligini rivojlantirish mazmuni ta'lim oluvchilar o'rtasida ta'lim sifatini bosqichma-bosqich rivojlantirishni nazarda tutadi.

Birinchi bosqichda (motivatsion tayyorgarlik) ta'lim oluvchilar bilimlarining metodik ahamiyati to'g'risida xabardor bo'lishlarini ta'minlash, kasbiy bilimlarni qidirishga rag'batlantirish va bilimlarni amaliyotda qo'llashga tayyorligini shakllantirish zarur. Ushbu bosqichning natijalari pedagogik bilimlarga bo'lgan qiziqishning o'sishi, mavjud bilimlarni kengaytirish ko'nikmalarini o'zlashtirish, pedagogik kasbga bo'lgan munosabatlarning o'zgarishi va pedagogik faoliyatga mas'uliyatli yondashuvning shakllanishi (motivatsion komponent) bilan izohlanadi.

Ikkinchi bosqichda (aktuallashtirish) biz bo'lajak o'qituvchilarning metodik kompetentligining operasion-faoliyat va kommunikativ tarkibiy qismlarini rivojlantirdik. Ushbu bosqichning vazifalari quyidagilardan iborat: ta'lim oluvchilarning bilimlarini yangilash, bilimlarni mustaqil ravishda birlashtirishga tayyorligini rivojlantirish va kasbda o'zini o'zi anglash zarurligini faollashtirish. Natijada, pedagogika, psixologiya va texnologiya fanlari metodologiyasi bo'yicha bilimlarni tizimlashtirish, ta'lim oluvchilarning o'z fikrlarini asoslash, fanlar o'rtasidagi integral aloqalarni nazorat qilish va mustaqil faoliyatni rivojlantirishga erishildi.

Tadqiqotimizning uchinchi bosqichida - refleksiv-faoliyat, bo'lajak o'qituvchilarning metodik kompetentligining kognitiv va refleksiv tarkibiy qismlarini rivojlantirish uchun sharoitlar yaratildi, bu uslubiy savodxonlikni shakllantirish, tashabbuskorlik va o'z - o'zini tarbiyalashga yo'naltirishni o'z ichiga kiritadi. Natijada pedagogik vaziyatlarning nostandart yechimlarini izlashga doimiy qiziqish, amaliy pedagogik faoliyatga ishonch, muloqot qobiliyatlari darajasi va refleksiv qobiliyatlari oshadi.

III BOB. PEDAGOGIK TAJRIBA-SINOV ISHLARINING NATIJALARI VA ULARNING STATISTIK TAHLILI

Tadqiqot ishining tajriba-sinov ishlari natijalarini o'zida jamlagan mazkur bobida bo'lajak o'qituvchilarning metodik kompetentligini takomillashtirish jarayonini ilmiy-nazariy jihatdan asoslangan. Bo'lajak pedagoglarni tadqiqot mazmuni doirasida sinov jarayonlariga jalb qilish, dissertatsiyaning amaliy ahamiyatini oshirishi bilan izohlanadi. Shu bilan birga, zamonaviy ta'lim jarayonida pedagogik faoliyat samaradorligini oshirishga xizmat qiladigan metod va vositalar ham bobning birinchi paragrafida yetarlicha tavsiflangan.

Tadqiqot mazmunini boyitish maqsadida bo'lajak o'qituvchilarning amaliy kompetentligini takomillashtirishga yo'naltirilgan zamonaviy vositalar, VR texnologiyalar va amaliyotga qaratilgan ta'lim yondashuvlari tanlab olindi, tahliliy o'rganildi va tajriba sinov ishlarining mazmun-mohiyatiga singdirildi. Natijalar bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarini tarbiyalashda samarali strategiyalarni ishlab chiqish imkonini beradi.

3.1-§. Pedagogik tajriba-sinov ishlarining maqsadi va vazifalari

Olib borilgan pedagogik tadqiqot natijalarini o'quv jarayoniga tatbiq etish va ularning qay darajada samaradorligini aniqlashda tajriba-sinov ishlarini olib borish katta ahamiyatga ega bo'lib, bajarilgan tadqiqot ishining samaradorligini ko'rsatib beradi.

Pedagogik tajriba-sinov ishlarini bajarishning mantiqiy ketma-ketligi quyidagilardan iborat:

Tajriba-sinov ishlarini o'tkazuvchining tayyorgarligi;

Tajriba-sinov ishlarining maqsadini aniqlash;

Tadqiqot gipotezalarini ilgari surish;

Bosqichma-bosqich tajriba-sinov ishlarini o'tkazish;

Tadqiqotning usul va shakllariga zaruriy tuzatishlar kiritish;

Tajriba-sinov ishlarini bosqichma-bosqich o'tkazish yo'llarini aniqlash;

Tajriba-sinov ishlarining natijalarini bayon qilish;

Tajriba-sinov ishlari natijalarini miqdoriy jihatdan tavsiflash;

Tajriba-sinov natijalarini sifat jihatdan tahlil va talqin qilish.

Pedagogik tajriba-sinov ishlarining asosiy maqsadi olingan natijalar asosida ob'yekt, jarayon yoki hodisaning dolzarblik darajasini aniqlashdir. Boshqacha aytganda, ob'yekt, jarayon yoki hodisaning o'zgarish dinamikasini o'rganish hisoblanadi.

Mashhur psixolog olim R.Gottsdanker "Har qanday eksperimental tadqiqotning maqsadi cheklangan miqdordagi ma'lumotlarga asoslangan natijalarning eksperimentdan tashqarida qolishiga ishonch hosil qilishdir " deb fikr bildirgan edi.

Yana bir olim B.Ananyev ta'kidlaganidek, tadqiqot xususiyatlariga tayanib, quyidagi usullarni qo'lladik:

1. Tashkiliy (solishtirish, umumlashtirish).
2. Emperik:
 - a) kuzatishga oid metodlar (kuzatish va o'z-o'zini kuzatish);
 - b) o'qitish eksperimenti metodi;
 - v) Psixoanaliz metodlari (standartlashtirilgan va loyihalashtirilgan testlar, anketalar, intervyular va suhbatlar);
 - g) Amaliyotga oid metodlar (ta'riflash, ishlarni baholash);
 - d) Modellash tirish metodi (matematik modellar va boshqa);
 - e) Biografik metodlar (pedagogik jarayon va dalillarni tahlil qilish).
3. Miqdor (matematik-statistik) va sifat jihatdan tahlil metodi.
4. Olingan natijalarni izohlash metodi.

Bunda bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda texnologik ta'limdan yetarlicha bilim egallay olish zaruriyati tug'iladi, albatta. Mashg'ulotlarda bo'lajak o'qituvchilarni tomonidan ta'limning barcha bo'limlarining puxta egallanishiga erishish, hayotiy hamda kasbiy faoliyatni amalga oshirish jarayonida nazariy bilimlarni amalda qo'llay olish, ko'nikma va malakalarining rivojlanishiga alohida e'tibor qaratishni talab etadi.

Bo'lajak o'qituvchilar tomonidan texnologik ta'limga oid bilimlarning puxta egallanishi, davlat ta'lim standartlari darajasida bilimlarni o'zlashtirishlari hamda

ularning asosida zamonaviy o'qituvchiga davlat ta'lim standartlari asosida qo'yilayotgan talablarga javob bera olishi muhim ahamiyatga ega.

Darhaqiqat, oliy ta'lim muassasalari ta'lim jarayonida berilayotgan texnologik ta'limga oid bilimlar, qonunlar va qonuniyatlar bo'lajak o'qituvchilarni metodik kompetentligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Biroq, ta'lim jarayoni hamma vaqt ham kutilgan natijalarni bera olmaydi. Oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilariga texnologik ta'limning o'qitilish samaradorligini takomillashtirishga yo'naltirilgan tajriba-sinov ishlarining bosh maqsadi - oliy ta'lim muassasasi bitiruvchilariga bilimlarni to'laqonli yetkazib berish, ularda texnologik ta'lim fanlariga oid bilimlarni to'laqonli shakllanishida kam vaqt sarf etib, yuqori ko'rsatkichlarga erishish yo'llarini aniqlashdan iborat. Tajriba-sinov ishlariga Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Jizzax davlat pedagogika universiteti, Farg'ona davlat universiteti hamda Namangan davlat universitetining bitiruvchi ta'lim oluvchilari orasidan tajriba hamda nazorat guruhlari tanlab olindi.

Yuqoridagi maqsadning ijobiy yechimini ta'minlash, bugungi kun talablaridan kelib chiqqan holda bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash uchun ta'lim jarayonini takomillashtirishga nisbatan yangicha yondashuvning qaror topishini taqozo etadi.

- Tajriba-sinov ishlarini o'tkazish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:
 - universitetlar va institutlarda faoliyat yuritayotgan texnologik ta'lim o'qituvchilarining asosiy muammolarini aniqlash;
 - o'rganilayotgan texnologik ta'limni tahlil qilish asosida o'quv va nazorat topshiriqlari, shuningdek, test savollarini tayyorlash.
 - universitetlar va institutlarning bo'lajak o'qituvchilarda ta'limga oid bilimlarning takomillashganlik darajasini aniqlash maqsadida ishlab chiqilgan topshiriqlar tizimini sinab ko'rish;
 - dastlabki natijalarni tahlil qilish;
- topshiriqlar tizimini aniqlashtirish va to'ldirish, ularni o'quv jarayoniga tatbiq etish uchun zaruriy metodik ko'rsatmalarni ishlab chiqish;

erishilgan ta'lim samaradorligining mavjud darajasini tahlil etish;
tahlil natijalariga ko'ra taklif va tavsiyalar tayyorlash.

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Jizzax davlat pedagogika universiteti, Farg'ona davlat universiteti hamda Namangan davlat universitetining bitiruvchi kurs ta'lim oluvchilarida texnologik ta'limni o'qitishning samaradorligini oshirish quyidagilar yordamida ta'minlanadi:

Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilari o'z kasbiy faoliyatlarini sifat jihatidan yaxshilash va ilmiy-metodik hamda ijodiy faoliyatni samarali tashkillashtirish ko'nikmalariga ega bo'lishlari zarur.

Oliy ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan texnologik ta'lim o'qituvchilarini mutaxassislik fanlari hamda pedagogik bilimlar asoslarini puxta o'zlashtirganliklari.

Egallagan texnologik va pedagogik bilimlarni amaliyotda qo'llay olish malakasiga egaliklari.

Bo'lajak o'qituvchilarga ta'limni o'zlashtirishga nisbatan qiziqish, ehtiyoj va rag'batni qaror toptira olishlari.

Bo'lajak o'qituvchilarning tashabbuskorlik va tashkilotchilik layoqatlariga egaliklari.

Ularning yangi pedagogik texnologiyalarni o'rganishi va ta'lim jarayonida ushbu texnologiyalardan samarali foydalanish qobiliyati o'quv muassasasida ta'lim samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynaydi.

Tajriba-sinov ishlarining olib borilishi va ularning mohiyati texnologik ta'lim o'qituvchilarida ta'lim jarayonining samarali kechishiga yordam beruvchi quyidagi ko'nikma va malakalarning hosil bo'lishiga e'tibor qaratildi:

mashg'ulot maqsadini aniqlab olish;

maqsad doirasida amalga oshiriladigan vazifalarni belgilash;

mashg'ulot mazmunini ishlab chiqish;

mashg'ulot mazmunini to'laqonli yoritishga xizmat qiladigan shakl, metod va vositalarni aniqlash;

ta'lim oluvchilar tomonidan mavzu yoki o'quv material mohiyatining o'zlashtirilish darajasini belgilovchi nazoratni yo'lga qo'yish.

O'qitish samaradorligini oshirishda o'qituvchilarning yangi pedagogik texnologiyalardan foydalana olishi va malakasini doimiy ravishda oshirib borishi muhimdir.

Shu boisdan bitiruvchilarda ta'lim to'g'risidagi bilim, tasavvur va ko'nikmalarning shakllanganlik darajasining dastlabki holatini aniqlashga alohida ahamiyat berildi. Bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilari bilan topshiriqlar asosida savol-javob o'tkazildi (topshiriqlar 2-ilovada batafsil keltirilgan). Javob natijalarining tahliliga ko'ra, tinglovchilarda o'rganiladigan texnologik tushunchalarga tegishli bilim va tasavvurlar yetarli darajada emasligi aniqlandi.

Mashg'ulotlarni nazorat qilish jarayonida bitiruvchilar tomonidan texnologik ta'limga oid bilimlar va mavjud qonunlarning sohada tutgan o'rni to'g'risida tasavvurlarining shakllanganlik darajasiga asosiy e'tibor qaratildi. Jumladan, muammo bo'yicha quyidagi savollar ishlab chiqildi va dastlabki ma'lumotlarni olish uchun ta'lim oluvchilarga taklif qilindi. Masalan:

1. Metodika deganda nimani tushunasiz?
2. Kompetentlik tushunchasini ta'riflang?
3. Kompetensiyalar to'g'risida nimalarni bilasiz?
4. Bo'lajak o'qituvchilarning metodik kompetentligini rivojlantirishdagi maqsad va vazifalar nimalardan iborat?
5. "Kompetentli" inson degandi nimani tushunish mumkin?
6. Bo'lajak o'qituvchilarga ta'lim va tarbiya berishda qanday kompetentlik turlarini kiritishimiz mumkin?
7. Bo'lajak o'qituvchilarning metodik kompetentligini shakllantirish qanday usullar orqali amalga oshiriladi?
8. Metodik kompetentlikni shakllantirishning psixo-fiziologik masalalari qaysi?
9. Qobiliyatlar qanday namoyon bo'ladi?
10. Temperament nima?
11. Xarakter nima?
12. Qobiliyatlardagi tug'ma va orttirilgan sifatlar qanday aniqlanadi?
13. Bo'lajak o'qituvchilarning metodik kompetentligini shakllantirish omillari?

14. “Taksonomiya” atamasi nima?
15. Kognitiv soha deganda nimani tushunasiz?
16. Affektiv sohani tushuntirib bering?
17. Psixomotorli soha qanday bo‘ladi?
18. Hamkorlikda kasbiy-metodik faoliyat yurita olish kompetentligini tashkil etuvchilari qaysilar?
19. Individual tarzda kasbiy-metodik faoliyatni olib borish uchun zarur bo‘lgan kompetentliklarni shakllantiruvchi omillar qaysilar?
20. Maxsus kasbiy funksiyalar qaysilar?

Tanlab olingan obyektlarda texnologik ta’limning mutaxassislikka bog‘lagan holda o‘qitish nazorat guruhlarida an’anaviy usulda, tajriba guruhlarida esa eksperimental materiallar va metodika asosida olib borildi. Olib borilgan tajriba-sinov ishlarining yakuniy natijalarini matematik-statistik metodlar yordamida tahlil qilish, tadqiqot ishining mazmuni va ularda ilgari surilgan g‘oyalarning samaradorligi va asoslilikini tasdiqlashda asosiy vazifa sifatida qaraladi.

Tajriba-sinov ishlari uchta bosqichda, ya’ni ta’kidlovchi (tadqiqot ishi boshlangandan 2020-2021 o‘quv yillari boshida), shakllantiruvchi (2020-2021 dan 2022-2023 o‘quv yillari) hamda yakunlovchi (2022-2023 o‘quv yili so‘ngida) bosqichlardan iborat bo‘lib, yuqorida keltirilgan OTMlarining 3 va 4-bosqich bitiruvchi kurs talabalari orasida o‘tkazildi.

Tajriba-sinov ishining birinchi bosqichining (tadqiqot ishining boshlangan davridan 2020-2021 o‘quv yilining avgust, sentyabr oylarini o‘z ichiga oladi) asosiy maqsadi sifatida tadqiqot sohasiga oid adabiyotlar, dissertasiyalar, avtoreferatlar, ilmiy, ilmiy-uslubiy jurnallardagi hamda ilmiy to‘plamlardagi tadqiqot muammosiga oid maqolalar o‘rganildi. Bu sohadagi xorij adabiyotlari, soha bo‘yicha xalqaro anjumanlar, konferensiyalar, simpoziumlar materiallari o‘rganildi va respublikamizdagi soha holati bilan qiyosiy solishtirildi. Bu izlanishlar natijasida fan mazmuni, uni samarali o‘zlashtirishga qaratilgan metodik taklif-tavsiyalar, o‘qitish metodikasi shakllantirildi. Tanlangan muammo sifatida texnologik ta’lim yo‘nalishining holatini o‘rganish, bitiruvchilarda ta’lim to‘g‘risidagi bilim va

tasavvurlarning shakllanganlik darajasini aniqlash mezonini ishlab chiqishdan iborat bo'ldi. Buning uchun bitiruvlarning ta'lim doirasida nazariy va amaliy mashg'ulotlardagi faoliyatlari o'rganildi. Fanlarni umumiy o'rta ta'lim maktabi, kasb-hunar kollejlari, turdosh oliy ta'lim muassasalari va tanlab Olinga obyektlar fan va ishchi dasturlari tahlil qilindi, oliy ta'lim muassasasidagi fanning o'qitilish jarayoni doimiy kuzatib borildi. Bitiruvchi ta'lim oluvchilarning fan bo'yicha dastlabki va yakuniy bilim va tasavvurlarining rivojlanganlik darajasi tekshirib ko'rildi.

Ma'lumki, har bir ishda tashxisning to'g'ri qo'yilishi keyingi ishlarning samaradorligini belgilaydi. Shu sababli, bitiruvchilarda texnologik ta'lim bo'yicha bilim, tasavvur va ko'nikmalar shakllanganlik darajasining dastlabki holatini aniqlashga alohida e'tibor qaratildi. Bitiruvchilar bilan anketa so'rovnomalari o'tkazildi.

Tajriba-sinov ishlarining ikkinchi bosqichida (2020-2021 o'quy yilidan 2022-2023 o'quy yillar davomida) ta'limning yangi mazmuni asosida o'qitilishi yuzasidan metodik tavsiyalar ishlab chiqildi. Ular asosida dastlabki pedagogik tajriba-sinov ishlari o'tkazildi va fan mazmuni hamda uni o'qitish metodikasi boyitib borildi. Bitiruvchilarda texnologik ta'lim to'g'risidagi bilim va tasavvurlarining dastlabki holati aniqlandi va ularni takomillashtirish imkoniyatlari izlandi. Shu maqsadda ilg'or pedagogik-tajribalar o'rganildi va umumlashtirildi. Tajribaning boshlanishida o'zlashtirish darajalari bir-biriga yaqin bo'lgan bitiruvchi ta'lim oluvchilar guruhlari ishtirok etishdi.

Bitiruvchi bosqich talabalarilarning bilimlarini aniqlashda 5 baholi baholash mezonini qo'llash ko'zda tutildi, ya'ni:

A'lo (5 baho): texnologik ta'limga oid qonuniyatlarning mohiyatini tushunib yetadi va aytib bera oladi, mustaqil mushohada yuritib, ijodiy fikrlab, xulosa qabul qila oladi, masalalar hamda mustaqil ishlarni bajara oladi.

Yaxshi (4 baho): texnologik ta'limga oid qonuniyatlarning mohiyatini tushunib yetadi va aytib bera oladi, xulosa qabul qila oladi, masalalar hamda mustaqil ishlarni bajara oladi, mustaqil mushohada yurita olmaydi.

Qoniqarli (3 baho): texnologik ta'limga oid qonuniyatlarning mohiyatini tushunib yetadi va aytib bera oladi, xulosa qabul qila oladi, masalalar hamda mustaqil ishlarni bajara olmaydi, mustaqil mushohada yurita olmaydi.

Texnologik tushunchalarning takomillashganligini aniqlash uchun a'lo, yaxshi, qoniqarli, qoniqarsiz darajalaridan foydalanildi. Pedagogik tajriba-sinov ishlariga 364 nafar bitiruvchi ta'lim oluvchilardan 184 nafari tajriba guruhiga, 180 nafari nazorat guruhiga jalb qilindi.

Tajriba-sinov ishlari natijasida olingan ko'rsatkichlarning o'zaro mosligi va farqlarining ishonchliligini tekshirish maqsadida Styudentning matematik-statistik usuli qo'llanildi. Dastlabki so'rov natijalari asosida bitiruvchilarning texnologik ta'lim to'g'risidagi bilim va tasavvurlarining shakllanganlik darajasini oshirish lozim degan xulosaga kelindi.

Uchinchi, shakllantiruvchi bosqichi (2022-2023 o'quv yili yakunida) ning asosiy maqsadi pedagogik tajriba-sinov ishlarini tajriba va nazorat guruhlarida ishlab chiqilgan metodologik va didaktik talablar asosida o'tkazish, natijalarni tahlil qilish va umumlashtirishdir.

Tadqiqot ishining bu bosqichida tanlab olingan tajriba va nazorat guruhlardagi bitiruvchi bosqich talabalarida texnologik ta'lim tushunchalarining takomillashganlik darajasini aniqlash uchun har bir tinglovchiga test topshiriqlari (ishlab chiqilgan test topshiriqlar 3.2-ilovada batafsil keltirilgan) berildi va ularning javoblari tahlil qilindi.

Ushbu topshiriqlar asosida har ikkala guruhda olingan natijalar tajriba va nazorat guruhlarida bitiruvchi ta'lim oluvchilarining bilimi va ularda texnologik ta'lim tushunchalarining takomillashganlik darajalari orasidagi farq tahlil qilindi.

3.2-§. Bo'lajak o'qituvchilarning metodik kompetentligini rivojlanganligini baholash mezonlari va darajalari

Bo'lajak o'qituvchilarda metodik kompetentligini takomillashtirishni baholash shakllari umumiy baholash shakllaridan farq qiladi. Bu metodik kompetensiyalar elementlarini baholash ko'rsatkichlarining o'ziga xosligidan kelib chiqadi.

Ta'limni tashkil etish nuqtai nazaridan bunday metodlar umumiy kompetensiyalarni shakllantirishda ham, metodik kompetensiyalarni takomillashtirishda bir xil bo'lishi mumkin, lekin metodik kompetensiyalarni baholash shakllari baholash metodlari bilan farqlanadi.

Testlar va nazoratlar. Ta'lim oluvchilarning metodik kompetensiyalarini baholash jarayonida o'tkaziladigan nazoratlar, an'anaviy ta'lim tizimidagi nazoratlardan farq qiladi, chunki metodik kompetensiyalarni baholashda bilim va ko'nikmalarning mavjudligi emas, balki o'zlashtirilgan bilim va ko'nikmalarni amaliy vaziyatlarda qo'llay olish qobiliyatlari muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun, testlar faqat amaliy vaziyatlardagi to'siqlarga qo'shimcha sifatida amal qiladi.

Nazoratlar quyidagi shakllarda o'tkazilishi mumkin:

- Og'zaki muloqot: Layoqatlarni aniqlash maqsadida og'zaki shaklda nazorat.
- Intervyu shaklida: Ta'lim natijalariga baho berish uchun og'zaki savollar orqali intervyu olib borish.
- Audit shakli: (lotincha audit - tinglamoq) Ta'lim oluvchini tinglash va nutqini tahlil qilish orqali ularning kompetensiyalarini baholash usuli.
- Yozma yoki test shakli: Nazariy bilimlarni tushunganligini va ularni amalda qo'llay olish qobiliyatini baholash uchun.

Nazoratlar bir qator turli xil savollarni o'z ichiga olishi mumkin, jumladan:

- Qisqa javob: Qisqa javoblarni talab qiladigan savollar.
- Tanlash va asoslash: Bir nechta javobdan to'g'ri variantni tanlab, uni asoslash.
- Tuzilmali savollar: Esse shaklida mufassal javoblarni talab etuvchi savollar.

Tuzilmali savollar, ma'lum bir masala bo'yicha chuqur bilimlarni aniqlashga qaratilgan.

Esse tipidagi mufassal javoblarni talab etuvchi savollar, biror masala bo'yicha chuqur bilimlarni baholash, shuningdek, muhokama, taqqoslash, tahlil qilish,

baholash yoki muammoning yechimini izlash kabi kognitiv kompetensiyalarni aniqlashga qaratilgan. Bu savollar tuzilmali savollardan javoblarning yanada kengroq bo'lishi bilan farq qiladi.

Afsuski, bugungi kunda ko'p qo'llaniladigan test usuli asosan ta'lim oluvchilarning axborotni eslab qolish darajasini baholash uchun ishlatiladi. Test usulining samaradorligini oshirish uchun savollarni shunday tarzda tuzish kerakki, ularni faqatgina bilimlarni qo'llagan holdagina yechish mumkin bo'lsin. Bu holda eslab qolingani axborot miqdori emas, masalani tushunganlik va bilimlarni amalda qo'llay olish darajasi tekshiriladi.

O'z-o'zini ta'riflash. Ta'lim oluvchilar o'z kasbiy sifatlarini o'zlari ta'riflab berishlari lozim va bu ta'riflar guruhdagi boshqa ta'lim oluvchilar va o'qituvchi tomonidan tasdiqlanishi kerak. O'z o'zini ta'riflash usuli – bu baholanuvchi ta'lim oluvchining metodik kompetensiyalarini yozma ravishda baholashidir. Ta'rifda keltirilgan barcha ma'lumotlar o'qituvchi tomonidan tekshiriladi va tasdiqlanadi.

Ta'rifda odatda quyidagi ma'lumotlar kiritiladi:

- Ta'lim oluvchining ismi, ta'lim bosqichi va akademik guruhi;
- Mazkur fan bo'yicha ta'lim oluvchining bajargan ilmiy yoki ijodiy ishlari ro'yxati;
- Ta'lim oluvchining metodik kompetensiyalarini mustaqil ravishda baholash jarayoni;
- Kelajakda metodik jihatdan o'zini rivojlantirish va takomillashtirish uchun rejalari;
- Oliy o'quv yurtidagi ta'lim jarayoniga oid fikr va takliflari.

O'z-o'zini ta'riflash metodi pedagogikaning boshqa ta'lim yo'nalishlari bilan solishtirganda texnologik ta'lim yo'nalishiga ko'proq mos keladi, chunki bu sohada metodik kompetentligini takomillashtirishning ko'plab va xilma-xil usullari mavjud. Kompetensiya elementlarini rivojlantirish va baholashning shakllari ham turli-tuman. Bunday yondashuv bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarida kasbiy va shaxsiy kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirishga yordam beradi.

“Portfolio” metodi. Ushbu metod, ta'lim oluvchilarda metodik

kompetensiyalarni takomillashtiruvchi materiallar va ma'lumotlar to'plamini tashkil etadi. Portfolio ta'lim jarayonida olingan natijalar, olimpiadalar, tanlovlar va konferentsiyalardagi ishtirok va yutuqlar bilan birga, nashr qilingan ilmiy tadqiqotlarga oid turli hujjatlar, sertifikatlar, diplomlar va guvohnomalarni o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, bajarilgan topshiriqlarga oid loyihalar, keyslar, eskizlar, chizmalar, tayyorlangan mahsulotlar, taqdimotlar, videoyozuvlar va boshqa materiallar ham portfolioning bir qismidir.

Imitasion topshiriqlar, aniq faoliyat jarayonlarida yuzaga keladigan muammolarni yechishga yo'naltirilgan topshiriqlardan iborat. Ushbu metodning asosiy maqsadi, ta'lim oluvchilarni berilgan vazifalarni mustaqil ravishda bajarishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish va kasbiy faoliyat muhitiga kirish orqali ularning metodik kompetensiyalarini rivojlantirishni nazorat qilishdir.

Mazkur metodning asosiy mazmuni – bu ta'lim oluvchining metodik kompetensiyalariga ega ekanligini isbotlovchi dalillarni aniqlash va tahlil qilishdan iborat. Bunday dalillar, odatda, ta'lim oluvchining kasbiy faoliyatga oid topshiriqlarni yechish jarayonidagi harakatlarini tizimli ravishda kuzatish orqali yig'iladi. Kuzatuv jarayonini o'qituvchi olib boradi va bu jarayon ta'lim oluvchining amaliy ko'nikmalarini aniq ko'rsatib berishga xizmat qiladi.

Metod baholash shakllari nuqtai nazaridan imitasion vaziyatlarda amaliy topshiriqlarni bajarishga asoslangan baholash usuliga yaqin turadi. Bu yerda "imitasiya" tushunchasi shuni anglatadiki, ta'lim oluvchi o'zining metodik kompetensiyalarini bevosita real kasbiy faoliyat davomida emas, balki shu faoliyatning mazmuni, shart-sharoitlari va maqsadlariga maksimal darajada yaqinlashtirilgan sun'iy vaziyatlarda namoyon etadi.

Shunday qilib, bu metod ta'lim oluvchining kasbiy tayyorgarlik darajasini aniqlashda real vaziyatlarga yaqin bo'lgan sharoitlarda kuzatish orqali sifatli va puxta baholash imkonini beradi.

Ta'lim jarayoniga "assessment" (ingliz tilidan assess – baholash) texnologiyasini joriy etish orqali yuqori natijalarga erishish mumkin. "Assessment" – bu xodimlarni kompleks baholashning bir usuli bo'lib, bir-birini to'ldiruvchi

metodlardan tashkil topgan. U xodimlarning psixologik va kasbiy jihatlarini, shuningdek, kasb va lavozim talablariga mosligini aniqlashga, baholashga va mutaxassislarining potensial imkoniyatlarini ochishga qaratilgan. Ta'lim sohasida "assessment" texnologiyasi, ishbilarmonlik o'yinlari jarayonida ta'lim oluvchilarni kuzatish va ularning harakatlarini baholashni maqsad qiladi. Bu qobiliyatga tashqi ko'rinishi jihatidan treningga o'xshab qoladi: ishtirokchilarga ishbilarmonlik o'yinlari va topshiriqlar beriladi. Biroq, bu jarayonning asosiy maqsadi ko'nikma va malakalarni rivojlantirish emas, balki har bir ishtirokchiga o'zining kuchli va zaif tomonlarini ochib berish uchun teng imkoniyatlar yaratishdir. Har bir topshiriqni bajarishda har bir ishtirokchiga ekspert biriktiriladi, u o'z kuzatuvlariga asosan ishtirokchida namoyon bo'layotgan kasbiy sifatlar haqida batafsil ma'lumotlarni yozib boradi.

Assessment quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

- 1) ekspert bilan intervyu davomida ishtirokchining bilimlari va tajribasiga doir barcha ma'lumotlar yig'ib boriladi;
- 2) ishtirokchining ekspertlar va boshqa qatnashchilar oldida qisqacha taqdimoti;
- 3) ishbilarmonlik o'yini: nazoratchi rahbarligida ishtirokchilar guruhi ilgari tayyorlab qo'yilgan ssenariy bo'yicha kasbiy vaziyatni ijro etadi;
- 4) so'rovnoma;
- 5) kasbiy yutuqlar ro'yxati;
- 6) muayyan vaziyatning individual ravishda bajarilgan tahlili: ishtirokchiga berilgan vaziyatda harakat strategiyasi va taktikasini tanlash taklif etiladi;
- 7) ekspert kuzatuv, uning natijalariga ko'ra har bir ishtirokchi uchun alohida tavsiyanomalar tayyorlanadi.

Baholashda albatta qaytar aloqa bo'lishi kerak, ya'ni ta'lim oluvchiga uning bajargan ishi bo'yicha kuchli va zaif tomonlarini ko'rsatib o'tgan holda batafsil izoh va tavsiyalar beriladi. O'rinli tashkillashtirilgan qaytar aloqa ta'lim oluvchining tanlagan mutaxassisligi bo'yicha keyingi ta'lim va rivojlanishi uchun motivasion omil bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Nazoratlar va testlar metodik kompetensiyalarni baholashning asosiy metodlari, o'z-o'zini ta'riflash, portfolio metodlari esa baholashning ob'yektivligini ta'minlash uchun xizmat qiladigan qo'shimcha metodlar hisoblanadi. Metodik kompetensiyalarning shakllanganligi darajasini aniqlashning eng ishonchli metodlaridan biri sifatlarning turli elementlarini ish o'rnida namoyish etilishini kuzatish metodidir. Ushbu metodni qo'llash uchun anchagina to'siqlar mavjudligini hisobga olinsa, mehnat vaziyatini imitatsiya qilish metodi bunga eng yaqin metod hisoblanadi. Bunda imitatsiya ish o'rnidagi vaziyatlarning barcha jihatlarini e'tiborga olishi zarur. Baholashda ko'p miqdordagi axborotni eslab qolish qobiliyati emas, balki bilimlarni amalda to'g'ri qo'llay olish qobiliyati e'tiborga olinadi.

Amaliyot davomida metodik kompetensiyalar egallanishini aniqlashda oraliq baholash, bitiruv malakaviy ishlarni himoya qilishda esa yakuniy baholash amalga oshiriladi. Metodik kompetensiyalarning shakllanganlik darajasini baholash uchun har bir ta'lim yo'nalishi uchun umumkasbiy va maxsus sifatlarni aniqlab olish, ularni baholash bo'yicha ko'rsatkichlar va mezonlarni ishlab chiqish kerak bo'ladi. Bunday tarzda baholash kam mehnat va oz vaqt sarflagan holda baholash sifatini oshirishga imkon yaratadi.

Bitiruvchilarni metodik kompetensiyalari shakllanganligini yakuniy baholashda reyting ballari varaqasini qo'llash mumkin. Baholashning reyting tizimi oliy ta'lim muassasalarida ko'pdan buyon muvaffaqiyatli qo'llanilmoqda, zamon talablariga mos ravishda o'zgartirilib, takomillashtirilib borilmoqda, shu sababli reyting varaqalarini qo'llashda qiyinchiliklar vujudga kelmaydi. Funksional xaritalarni va yakuniy nazorat materiallarini ishlab chiqishda ish beruvchilar ham faol ishtirok etishlari maqsadga muvofiq bo'ladi. Reyting varaqasiga yakuniy nazorat va bitiruv malakaviy ishlarini himoyasi paytida baholar kiritiladi. Baholash mezonlari umumkasbiy va maxsus sifatlarning o'zlashtirilganlik darajasini aniqlashga qaratilgan bo'lib, shunday tuzilishi kerakki, metodik kompetensiyalarning shakllanganlik darajasini aniq belgilash mumkin bo'lgan tuzilmaga ega bo'lsin. Reyting varaqasida va ta'lim oluvchiga berilgan topshiriqda metodik kompetensiyalarning namoyon bo'lishi belgilari o'zaro mos bo'lishi kerak.

Reyting varaqasiga yakuniy nazoratning muayyan turida baholanadigan ko'rsatkichlar kiritiladi.

Oliy pedagogik ta'lim muassasalarida tashkil etiluvchi o'quv jarayonida ta'limiy faoliyatni olib borish yo'nalishlarining ustuvorligi, bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarini metodik kompetensiyalarini takomillashtirish bosqichma-bosqich maruza, amaliy, laboratoriya, seminar mashg'ulotlarida, kurs ishi, pedagogik hamda ishlab chiqarish amaliyotida hamda bitiruv malakaviy ishini bajarishda amalga oshadi.

Texnologik ta'lim o'qituvchilarining kasbiy va metodik faoliyati sharoitlarini o'rganish hozirgi kunning muhim masalalardan hisoblanadi.

3.3-§. Pedagogik tajriba-sinov ishlarining natijalari va ularning statistik tahlili

Bo'lajak o'qituvchilarni metodik kompetentligini takomillashtirish bo'yicha mutaxassilik fani yuzasidan ishlab chiqilgan didaktik vositalar hamda biz tomonimizdan ishlab chiqilgan tashkiliy-tuzilmaviy metodik modelning o'quv jarayonida samaradorligini aniqlash uchun Toshkent davlat pedagogika universiteti, Farg'ona davlat universiteti, Namangan davlat universiteti va Jizzax davlat pedagogika universitetlarida tajriba-sinov ishlari olib borildi.

Tajriba - sinovning boshlanishida ishtirok etgan ta'lim oluvchilarning soni va olgan baholari 3.3.1-jadvalda taqdim etilgan.

3.3.1-jadval

№	Tajriba maydonlari	O'quv yillari	Tajriba guruhi	Nazorat guruhi	Jami
1	TDPU	2020-2021	16	15	31
		2021-2022	13	13	26
		2022-2023	18	17	35
		Jami	47	45	92
2	JDPI	2020-2021	15	14	29
		2021-2022	16	14	30

		2022-2023	15	15	30
		Jami	46	43	89
3	NamDU	2020-2021	14	15	29
		2021-2022	14	15	33
		2022-2023	14	12	26
		Jami	42	42	84
4	FarDU	2020-2021	16	17	33
		2021-2022	17	16	33
		2022-2023	16	17	33
		Jami	49	50	99
Umumiy		2020-2021	61	61	122
		2021-2022	60	58	122
		2022-2023	63	61	124
		Jami	184	180	364

3.3.1-jadvaldan ko‘ringanidek tajriba-sinov ishlarini olib borish uchun guruhlar son jihatidan qoniqarli. Tadqiqotimiz amaliyot bilan ko‘p jihatdan bog‘liq bo‘lganligi uchun natijalarni tadqiqot modelida keltirilgan mezonlar bo‘yicha o‘quv yillari ketma ketligida tahlil qilish maqsadga muvofiq deb bildik. Quyida statistik ma’lumotlarni yillar ketma-ketligida, sinov ishlarining avvalida va sinovdan keying holatlarini aks ettirgan holda taqdim etamiz, keyingi hollarda matematik tahlillar va xulosalarni ifodalaydigan ma’lumotlarni keltiramiz.

Bo‘lajak o‘qituvchilarni metodik kompetentligini takomillashtirish bo‘yicha olib borilgan tajriba-sinov ishlarining statistik ma’lumotlari (2020-2021-o‘quv yili natijalari)

3.3.2-jadval

Mezon	Daraja	Tajriba guruhi			Nazorat guruhi		
		Yuqori	O‘rta	Past	Yuqori	O‘rta	Past
	TS boshi	6	16	39	10	12	39

Motivatsion qadryatli	TS yakuni	11	22	28	10	13	38
Kognitiv (intellektual)	TS boshi	8	15	38	5	18	38
	TS yakuni	10	21	30	6	19	36
Amaliy faoliyatli	TS boshi	7	16	38	6	16	39
	TS yakuni	13	17	31	7	17	37
Refleksiv (o'zini o'zi rivojlantirish)	TS boshi	6	15	40	8	16	37
	TS yakuni	14	17	30	10	17	34

Oʻrtacha qiymat	TG	$\bar{X} = \frac{\sum x_i m_i}{N}$	bu yerda mj- baxolarning takrorlanishlar soni		
	NG	$\bar{Y} = \frac{\sum y_i m_j}{N}$			
Samaradorlik koyefitsenti			$\eta = \frac{\bar{X}}{\bar{Y}}$		
Tanlanma dispersiya	TG	$S_x = \frac{1}{n-1} \sum_{i=1}^k (n_i \cdot (x_i - \bar{x})^2$		bu yerda K baholash turlari soni	
	NG	$S_y = \frac{1}{n-1} \sum_{i=1}^k (n_i \cdot (y_i - \bar{y})^2$			
Oʻrtacha kvadratik chetlanish	TG	$S_T = \sqrt{S_T^2}$	Variatsiya qiymatlari	TG	$\delta_T = \frac{S_T}{\bar{X}}$
	NG	$S_H = \sqrt{S_H^2}$		NG	$\delta_H = \frac{S_H}{\bar{Y}}$
Ishonch chetlanishlari	TG	$\Delta_x = t_\gamma \cdot \frac{S_x}{\sqrt{n}}$	bu yerda Statistik alomatning qiymatdorlik darajasi $\alpha= 0,05$ deb qabul qilinadi $\Phi(t_{\alpha}) = \frac{1-2\alpha}{2} = \frac{1-2 \cdot 0,05}{2} = \frac{0,9}{2} = 0,45$ hamda Laplas funksiyasi jadvali boʻyicha statistik tahlil uchun kritik nuqta (tkr) aniqlanadi. Anʼanaga koʻra kritik nuqta tenglikdan topilib,		
	NG	$\Delta_y = t_\gamma \cdot \frac{S_y}{\sqrt{n}}$			

			tkr =1,67 ga teng bo'ladi.
Styudent statistikasi		$T = \frac{ \bar{x}_T - \bar{x}_H }{\sqrt{\frac{S_T^2}{N_T} + \frac{S_H^2}{N_H}}}$	
Statistikaning darajasi	ozodlik	$K = \frac{\left(\frac{S_T^2}{N_T} + \frac{S_H^2}{N_H}\right)^2}{\frac{\left(\frac{S_T^2}{N_T}\right)^2}{N_T - 1} + \frac{\left(\frac{S_H^2}{N_H}\right)^2}{N_H - 1}}$	
Kritik qiymat		t0.95(K) K ning qiymati asosida Styudent jadvalidan olinadi	
Kriteriy xulosasi		Agar $T > T_{0,95}(k)$ bo'lsa, H_1 (olib borilgan tatqiqot ishlari samarali) qabul qilinadi, aks holda esa H_0 (olib borilgan tatqiqot ishlari samarasiz) qabul qilinadi.	
Tajriba-sinov ishlari samaradorligini belgilovchi sifatini baholash ko'rsatkichi	o'qitish baholash	$K_{yco} = \frac{\bar{X} - \Delta_x}{Y + \Delta_y}$ sifatli baholash ko'rsatkichi Kusb>1 bo'lsa samarali deb qabul qilinadi	
Bilim darajasini baholash ko'rsatkichi		$K_{oob} = (\bar{X} - \Delta_x) - (Y - \Delta_y)$ Kbdb>0 bo'lsa samarali deb qabul qilinadi	
izoh		Bu formulalardan keyingi o'quv yillar statistik ma'lumotlarini tahlil qilishda ham foydalaniladi	

Bo'lajak o'qituvchilarni metodik kompetentligini takomillashtirish bo'yicha olib borilgan tajriba-sinov ishlarining matematik tahlillari (2020-2021-o'quv yili natijalari)

3.3.3-jadval

Xulosalar atalishi	Motivatsion qadryatli		Kognitiv (intellektual)		Amaliy faoliyatli		Refleksiv (o'zini o'zi rivojlantirish)	
	TSB	TSO	TSB	TSO	TSB	TSO	TSB	TSO

O'rtacha qiymat	TG	3,46	3,72	3,51	3,67	3,49	3,70	3,44	3,74
	NG	3,52	3,64	3,46	3,51	3,46	3,51	3,52	3,61
Samaradorlik koyefitsenti		0,981	1,051	1,014	1,047	1,009	1,056	0,977	1,036
Tanlanma dispersiya	TG	0,45	0,57	0,52	0,56	0,49	0,64	0,45	0,66
	NG	0,59	1,21	0,42	0,45	0,45	0,49	0,52	0,58
O'rtacha kvadratik chetlanish	TG	0,67	0,76	0,72	0,75	0,70	0,80	0,67	0,81
	NG	0,77	1,10	0,65	0,67	0,67	0,70	0,72	0,76
Variatsiya qiymatlari	TG	0,19	0,20	0,21	0,20	0,20	0,22	0,20	0,22
	NG	0,22	0,31	0,19	0,19	0,19	0,20	0,20	0,21
Ishonch chetlanishlari	TG	0,012	0,016	0,014	0,015	0,013	0,018	0,012	0,018
	NG	0,016	0,033	0,011	0,012	0,012	0,013	0,014	0,016
Styudent statistikasi		0,64	0,47	0,51	1,74	0,29	1,84	0,78	1,16
Statistikaning ozodlik darajasi		115	87	117	117	121	114	120	120
Tajriba-sinov ishlari samaradorligini belgilovchi o'qitish sifatini baholash ko'rsatkichi		0,98	1,03	1,01	1,04	1,01	1,05	0,98	1,04
Kriteriy xulosasi		H_0	H_1	H_0	H_1	H_0	H_1	H_0	H_1

2020-2021 o'quv yilida o'tkazilgan sinovlarning dastlabki va yakuniy natijalardan ko'rinadiki, barcha mezonlar bo'yicha talabalarning tajriba sinov ishi yakuniy bosqichida bilim darajasi tajriba guruhida nisbatan yuqori ekanligi, Styudent statsitikasi orqali olingan t ning qiymati kritik qiymatdan kattaligi, ishonch

oraliqlarining bir biri bilan ustma-ust tushmasligi va o'qitish sifatini baholash ko'rsatkichining birdan kattaligi, bilim darajalarini bahlovchi kursatkichlarning noldan kattaligi, tajriba va nazorat guruhlaridagi olib borilgan tadqiqot ishlaridan tajriba guruhlarida qisman samarali ekanligi va samaradorlik ko'rsatkichi har bir mezon bo'yicha mos holda 1.03 (5 foiz), 1,04 (3 foiz), 1,05 (4 %) va 1,04 (6 %) ga yuqori ekanligini ko'rsatadi va har bir mezon bo'yicha statistik gipoteza sifatida H_1 qabul qilinadi. H_1 gipotezaning qabul qilinishi tadqiqot ishini samarali kechishi bilan izohlanadi. Tadqiqotning tajriba sinov ishlarini olib borishga mo'ljallangan dastur, ishlab chiqilgan va takomillashtirilgan metodikalar foydalanilgan barcha turdagi vositalar bilan yana qayta va zaruriy tuzatishlar amalga oshirish kerakligi matematik tahlillar natijalariga ko'ra qayd etildi. Qayd etilgan tuzatishlar kiritilgandan so'ng 2021-2022 o'quv yilida tajriba ishlari davom ettirildi.

Bo'lajak o'qituvchilarni metodik kompetentligini takomillashtirish bo'yicha olib borilgan tajriba-sinov ishlarining statistik ma'lumotlari (2021-2022-o'quv yili natijalari).

3.3.4-jadval

Mezon	Daraja	Tajriba guruhi			Nazorat guruhi		
		Yuqori	O'rta	Past	Yuqori	O'rta	Past
Motivatsion qadryatli	TS boshi	6	16	38	7	15	36
	TS yakuni	14	21	25	10	16	32
Kognitiv (intellektual)	TS boshi	5	18	37	4	18	36
	TS yakuni	14	20	26	7	21	30
Amaliy faoliyatli	TS boshi	6	15	39	5	16	37
	TS yakuni	14	19	27	9	14	35
Refleksiv (o'zini o'zi rivojlantirish)	TS boshi	7	16	37	9	12	37
	TS yakuni	15	23	22	11	16	31

Bo'lajak o'qituvchilarni metodik kompetentligini takomillashtirish bo'yicha olib borilgan tajriba-sinov ishlarining matematik tahlillari (2021-2022-o'quv yili natijalari).

3.3.5-jadval

Xulosalar atalishi		Motivatsion qadryatli		Kognitiv (intellektual)		Amaliy faoliyatli		Refleksiv (o'zini o'zi rivojlantirish)	
		TSB	TSO	TSB	TSO	TSB	TSO	TSB	TSO
O'rtacha qiymat	TG	3,47	3,82	3,47	3,80	3,45	3,78	3,50	3,88
	NG	3,50	3,62	3,45	3,57	3,45	3,60	3,52	3,66
Samaradorlik koyefitsenti		0,990	1,054	1,005	1,055	1,001	1,065	0,995	1,062
Tanlanma dispersiya	TG	0,46	0,63	0,42	0,64	0,46	0,65	0,49	0,61
	NG	0,50	1,19	0,39	0,49	0,43	0,57	0,57	0,62
O'rtacha kvadratik chetlanish	TG	0,68	0,79	0,65	0,80	0,67	0,80	0,70	0,78
	NG	0,71	1,09	0,63	0,70	0,65	0,75	0,75	0,78
Variatsiya qiymatlari	TG	0,19	0,21	0,19	0,21	0,20	0,21	0,20	0,20
	NG	0,20	0,30	0,18	0,19	0,19	0,21	0,21	0,21
Ishonch chetlanishlari	TG	0,013	0,017	0,012	0,018	0,013	0,018	0,014	0,017
	NG	0,014	0,034	0,011	0,014	0,012	0,016	0,016	0,018
Styudent statistikasi		0,30	1,14	0,20	2,20	0,00	1,61	0,20	1,94
Statistikaning ozodlik darajasi		116	87	118	112	118	117	114	118
Tajriba-sinov ishlari samaradorligini belgilovchi o'qitish sifatini baholash ko'rsatkichi		0,99	1,06	1,01	1,06	1,00	1,05	1,00	1,06

Kriteriy xulosasi	H_0	H_1	H_0	H_1	H_0	H_1	H_0	H_1
-------------------	-------	-------	-------	-------	-------	-------	-------	-------

2021-2022 o‘quv yilida o‘tkazilgan sinovlarning dastlabki va yakuniy natijalardan ko‘rinadiki, barcha mezonlar bo‘yicha talabalarning tajriba sinov ishi yakuniy bosqichida bilim darajasi tajriba guruhida nisbatan yuqori ekanligi, Student statsitikasi orqali olingan t ning qiymati kritik qiymatdan kattaligi, ishonch oraliqlarining bir biri bilan ustma-ust tushmasligi va o‘qitish sifatini baholash ko‘rsatkichining birdan kattaligi, bilim darajalarini bahlovchi ko‘rsatkichlarning noldan kattaligi, tajriba va nazorat guruhlaridagi olib borilgan tadqiqot ishlaridan tajriba guruhlarda qisman samarali ekanligi va samaradorlik ko‘rsatkichi har bir mezon bo‘yicha mos holda 1.06 (7 foiz), 1,06 (5 foiz), 1,05 (5 %) va 1,06 (6 %) ga yuqori ekanligini ko‘rsatadi va har bir mezon bo‘yicha statistik gipoteza sifatida H_1 qabul qilinadi. H_1 gipotezaning qabul qilinishi tadqiqot ishini samarali kechishi bilan izohlanadi. Tadqiqotning tajriba sinov ishlarini olib borishga mo‘ljallangan dastur, ishlab chiqilgan va takomillashtirilgan metodikalar foydalanilgan barcha turdagi vositalar bilan yana qayta tuzatishlar amalga oshirish zarurligi matematik tahlillar natijalariga ko‘ra zarurligi qayd etildi. Qayd etilgan kamchiliklarga yakuniy tuzatishlar kiritildi va 2022-2023 o‘quv yilida tajriba ishlari davom ettirildi.

Quyida bo‘lajak o‘qituvchilarning metodik kompetentligini takomillashtirish bo‘yicha 2022–2023-o‘quv yili davomida olib borilgan tajriba-sinov ishlarining statistik natijalari umumlashtirilgan holda keltirilmoqda. Ushbu natijalar eksperimental va nazorat guruhleri o‘rtasida taqqoslash orqali aniqlangan.

3.3.6-jadval

Mezon	Daraja	Tajriba guruhi			Nazorat guruhi		
		Yuqori	O‘rta	Past	Yuqori	O‘rta	Past
Motivatsion qadryatli	TS boshi	6	16	41	7	15	39
	TS yakuni	23	25	15	11	18	32
Kognitiv (intellektual)	TS boshi	3	19	41	6	16	39
	TS yakuni	21	28	14	9	20	32

Amaliy faoliyatli	TS boshi	7	17	39	5	17	39
	TS yakuni	26	23	14	9	18	34
Refleksiv (o'zini o'zi rivojlantirish)	TS boshi	8	13	42	5	13	43
	TS yakuni	21	30	12	9	17	35

Tajriba guruhlarida:

O'rtacha o'zlashtirish ko'rsatgichlarini barcha mezonlar uchun keltirib o'tamiz (tajriba boshida):

$$\bar{x}_{mq} = \frac{5 \cdot 6 + 4 \cdot 16 + 3 \cdot 41}{63} = 3,44; \quad \bar{x}_{ki} = \frac{5 \cdot 3 + 4 \cdot 19 + 3 \cdot 41}{63} = 3,40$$

$$\bar{x}_{af} = \frac{5 \cdot 7 + 4 \cdot 17 + 3 \cdot 39}{63} = 3,49 \quad \bar{x}_r = \frac{5 \cdot 8 + 4 \cdot 13 + 3 \cdot 42}{63} = 3,46$$

O'rtacha o'zlashtirish ko'rsatgichi (tajriba oxirida):

$$\bar{x}_{mq} = \frac{5 \cdot 23 + 4 \cdot 25 + 3 \cdot 15}{63} = 4,13 \quad \bar{x}_{ki} = \frac{5 \cdot 21 + 4 \cdot 28 + 3 \cdot 14}{63} = 4,11$$

$$\bar{x}_{af} = \frac{5 \cdot 26 + 4 \cdot 23 + 3 \cdot 14}{63} = 4,19 \quad \bar{x}_r = \frac{5 \cdot 21 + 4 \cdot 30 + 3 \cdot 12}{63} = 4,14$$

O'rtacha o'zlashtirishning foizli ko'rsatgichi:

tajriba boshida:

$$\bar{x}_{0(mq)} = \frac{3,44}{5} \cdot 100\% = 68,8\%; \quad \bar{x}_{0(ki)} = \frac{3,40}{5} \cdot 100\% = 68\%$$

$$\bar{x}_{0(af)} = \frac{3,49}{5} \cdot 100\% = 70\% \quad \bar{x}_{0(r)} = \frac{3,46}{5} \cdot 100\% = 69\%$$

tajriba oxirida

$$\bar{x}_{0(mq)} = \frac{4,13}{5} \cdot 100\% = 82,6\%; \quad \bar{x}_{0(ki)} = \frac{4,11}{5} \cdot 100\% = 82,2\%$$

$$\bar{x}_{0(af)} = \frac{4,19}{5} \cdot 100\% = 83,8\% \quad \bar{x}_{0(r)} = \frac{4,14}{5} \cdot 100\% = 82,8\%$$

Dispersiyasi (qoyilgan baholarning o'rtacha bahoga nisbatan taqqoqligi):

Tajriba boshi

$$D_{x(mq)} = \frac{5^2 \cdot 6 + 4^2 \cdot 16 + 3^2 \cdot 41}{63} - 3,44^2 \approx 0,47$$

$$D_{x(ki)} = \frac{5^2 \cdot 3 + 4^2 \cdot 19 + 3^2 \cdot 41}{63} - 3,40^2 \approx 0,33$$

$$D_{x(af)} = \frac{5^2 \cdot 7 + 4^2 \cdot 17 + 3^2 \cdot 39}{63} - 3,49^2 \approx 0,48$$

$$D_{x(r)} = \frac{5^2 \cdot 8 + 4^2 \cdot 13 + 3^2 \cdot 42}{63} - 3,46^2 \approx 0,51$$

Tajriba oxirida mos holda: $D_{x(mq)} \approx 0,60$, $D_{x(ki)} \approx 0,55$, $D_{x(af)} \approx 0,61$, $D_{x(r)} \approx 0,51$,

O'rtacha kvadratik chetlanish (o'lchash xatoligi):

tajriba boshi:

$$\sigma_{x(mq)} = \sqrt{0,47} \approx 0,68, \quad \sigma_{x(ki)} = \sqrt{0,33} \approx 0,58$$

$$\sigma_{x(af)} = \sqrt{0,48} \approx 0,69, \quad \sigma_{x(r)} = \sqrt{0,51} \approx 0,71,$$

tarjiba oxiri:

$$\sigma_{x(mq)} = \sqrt{0,60} \approx 0,77, \quad \sigma_{x(ki)} = \sqrt{0,55} \approx 0,74$$

$$\sigma_{x(af)} = \sqrt{0,61} \approx 0,78, \quad \sigma_{x(r)} = \sqrt{0,51} \approx 0,71,$$

Variatsiya koeffitsient (tanlanmalarni taqqoslash ko'rsatgichi):

$$V_{x(mq)} = \frac{0,77}{4,13} \cdot 100\% = 19,2 \quad V_{x(ki)} = \frac{0,55}{4,11} \cdot 100\% = 17,$$

$$V_{x(af)} = \frac{0,78}{4,19} \cdot 100\% = 18,6, \quad V_{x(r)} = \frac{0,71}{4,14} \cdot 100\% = 17,$$

Agar statistik alomatning qiymatdorligi $\alpha = 0,02$ deb olsak, u holda Laplas funksiyasi jadvalidan statistika uchun kritik nuqta t_{kr} ni topamiz.

$$F(t_{kr}) = \frac{1 - 2\alpha}{2} = \frac{1 - 2 \cdot 0,02}{2} = \frac{0,96}{2} = 0,48$$

Tenglikdan aniqlaymiz: $t_{kp} = 0,48$. bundan baholashning ishonchli chetlanishlarini topsak:

$$\Delta_{n(mq)} = t_{kp} \cdot \frac{D_n}{\sqrt{n}} = 0,48 \cdot \frac{0,60}{\sqrt{63}} = \frac{0,288}{7,9} \approx 0,04$$

